O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 19-avgustda 360240-raqami bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

2024-yil
1-son

e-ISSN 3060-4885

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ФИЛОЛОГИЯ И ПЕДАГОГИКА

PHILOLOGY AND PEDAGOGY

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL OF THE MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Ushbu sonda

Badiiy adabiyotdagi dialektal zonalarda kontaktologiya masalasi 13-bet

Mavlono Lutfiy va Hofiz Xorazmiy ijodida Layli obrazining badiiy talqinlari 24-bet

O‘quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning ahamiyati 36-bet

Kasbiy malakani rivojlantirishda ko‘rib tushunish ko‘nikmasini shakllantirish 45-bet

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 19-avgustda 360240-raqami bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

2024-yil
1-son

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ФИЛОЛОГИЯ И ПЕДАГОГИКА

PHILOLOGY AND PEDAGOGY

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL OF THE MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MAS’UL MUHARRIR
Shahobiddin Rasulov

MUHARRIRLAR:
Emma Torosyan
Nargis Bobodjanova
Nargiza Sotvoldiyeva
Muxlisa Do‘stmuhamedova

SAHIFALOVCHI
Akmal Farmonov

Tahririyat manzili:
100011, Toshkent shahri
Navoiy ko‘chasi 30-uy.
Telefon: (55) 510-28-44,
(77) 358-57-67
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar
@FilologiyaPedagogikaBot
orqali qabul qilinadi.

Elektron jurnal 28.08.2024 da nashr etildi.

MUASSIS
O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta‘limi vazirligi
“Til va adabiyot ta’limi”
davlat korxonasi

TIL VA ADABIYOT TA’LIMI
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ | LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

TAHRIR HAY’ATI:

Hilola Umarova
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri

Farhod Boqiyev
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri o‘rinbosari

Azizbek Turdiyev
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri maslahatchisi

Farrux Jabborov
“Til va adabiyot ta’limi” – “Преподавание языка и литературы” – “Language and literature teaching” jurnali bosh muharriri

10.00.00 – FILOLOGIYA

Baxtiyor Mengliyev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, filologiya fanlari doktori

Baxtiyor Doniyorov
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nurafshon filiali professori, filologiya fanlari doktori

Anatoliy Lixodziyevskiy
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Oksana Gibraltarskaya
O‘zbekiston Milliy universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Svetlana Im
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Ranusha Atayeva
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Qozoqboy Yo‘ldoshev
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, pedagogika fanlari doktori

Salima Jumayeva
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Xadicha Muxitdinova
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, pedagogika fanlari doktori

G‘afur Hamroyev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, pedagogika fanlari doktori

Sevara Ziyayeva
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori

Indira Narkulova
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

M U N D A R I J A

10.00.00 – FILOLOGIYA

Abduraxim Nasirov. Tilshunoslikda proverbial frazeologizmlarning ahamiyati 3
Анатолий Лиходзиевский. Великий просветитель 7
Ilhom Kazakov. Realiyalarda o‘zbek va qoraqalpoq xalqlari madaniyati 10
Baurjan Sayfullayev. Badiiy adabiyotdagi dialektal zonalarda kontaktologiya masalasi 13
Светлана Им. Морфонология и единицы ее описания 16
Xolmo‘min Fayzullayev. Adabiyotda inson va jonivor obrazlarining paralleli (“Dasht-u dalalarda” romani misolida) 18
Dildora Turg‘unova. Hayvon xatti-harakati ishtirok etgan maqollarning lingvomental xususiyatlari 20
Шахло Алимарданова. К вопросу о языковом варьировании 22
Kamola Ulug‘murodova. Mavlono Lutfiy va Hofiz Xorazmiy ijodida Layli obrazining badiiy talqinlari 24
Ixtiyor Ermatov. Terminologiyada dubletlar va sinonimlarning farqli va o‘xshash jihatlari 27

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Гулшод Хамраева. Виды подчинительной связи в сложном предложении 30
Shohruh Abdiraimov. Bitiruvchi sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmasini baholash 33
Zulxumor Mirzayeva, Nilufar Kadirova. O‘quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning ahamiyati 36
Aqmaral Nisanbayeva. Yosh pedagoglarda mahorat oshirish masalalari 41
Muborak Jo‘rayeva. Multimedia taqdimotlaridan samarali foydalanish orqali chet tilida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish 43
G‘ofir Hamroyev. Kasbiy malakani rivojlantirishda ko‘rib tushunish ko‘nikmasini shakllantirish 45
Замира Нурманова. “Его величество Человек” 48

Abduraxim NASIROV,
filologiya fanlari doktori, professor

TILSHUNOSLIKDA PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada tilshunoslikda alohida o‘ringa ega bo‘lib kelayotgan frazeologiyaning bir bo‘lagi hisoblanmish proverbial frazeologizmlar va ularni boshqa birliklardan ajratib turuvchi belgilar bayon etilgan hamda o‘zbek, fransuz, rus tilidagi misollar orqali sharhlangan.
Kalit so‘zlar: chet til, proverbial frazeologizm, ko‘chma ma’no, turg‘unlik, semantik tutashlik.
Annotation. In this article, proverbial phraseology, which is a part of phraseology that has a special place in linguistics, and the signs that distinguish them from other units are described and interpreted through French, Uzbek, and Russian examples.
Keywords: foreign language, proverbial phraseology, figurative meaning, stability, semantic fusion.
Аннотация. В данной статье на примере французского, узбекского и русского языков описывается и интерпретируется провербиальная фразеология, являющаяся частью фразеологии, занимающей особое место в лингвистике, а также признаки, отличающие их от других единиц.
Ключевые слова: иностранный язык, провербиальная фразеология, переносное значение, устойчивость, семантическая слитность.

Uzluksiz ta’lim tizimida xorijiy tillarni o‘rgatishda frazeologizmlarning ham o‘ziga xos salmoqli o‘rni bor. O‘rganilayotgan xorijiy tildagi frazeologik birliklar hamda ularning ona tilidagi muqobillarini qiyoslab o‘rganish, ularni o‘z o‘rnida tilning jozibadorligini oshirish maqsadida to‘g‘ri qo‘llay olish og‘zaki va yozma nutqning serjiloligini ta’minlaydi. Mamlakatda sodir bo‘layotgan barcha voqealar: jamiyatdagi o‘zgarishlar, siyosiy islohotlar, sport, madaniy voqealar, turmushdagi yangiliklar frazeologik birliklarda o‘z aksini topadi.

Frazeologik birliklar (FB) xalqning asrlar mobaynida yaratgan timsoliy ifoda va tasviriy vositalari bo‘lib, ana shu vositalarning ma’lum bir qismini proverbial frazeologizm (PF)lar tashkil etadi. PFlar xalq ijodiy tafakkurining o‘ziga xos mahsuli bo‘lib, ularda insonning tabiat va ijtimoiy hodisalarga munosabatlari muxtasar hamda mukammal tarzda o‘z ifodasini topadi, nutqqa ko‘rkamlik, joziba va obrazlilik baxsh etib, so‘zlovchi va tinglovchining kuchi hamda vaqtini tejashga xizmat qiladi. Xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida FB va PFlarning o‘rgatilishi o‘quvchi-talabalarda kommunikativ kompetensiyaning shakllanishiga ko‘maklashadi. Jumladan, fransuz, o‘zbek va rus tillaridagi PFlar mazkur xalqlar madaniyatining milliy-madaniy xususiyatlarini ifodalashi orqali chet tilni o‘rganuvchilarda sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantiradi.

Olimlarning fikricha, har bir inson o‘z tilidagi 800 ga yaqin maqol, matal yoki aforizm haqida tushunchaga ega bo‘lar ekan. Bu jihat, ayniqsa, yozuvchilar va tilshunoslar ijodida (30,7%) namoyon bo‘lib, ko‘proq qissadan hissa keltirib chiqarish maqsadida ishlatiladi. Aristotel FBlarni so‘z ma’nosining ko‘chimi sifatida ta’riflab, “Ko‘chma so‘z narsaga xos bo‘lmagan, jinsdan turga yoki turdan jinsga, yoxud turdan turga ma’nosi ko‘chirilgan so‘zlar, narsalardagi o‘xshashlik asosida amalga oshiriladi”, deb yozadi [2: 149]. Demak, turg‘un birikmani o‘xshashlik asosidagi ko‘chim deb hisoblash Aristotel zamonidan bizgacha yetib kelgan. Suqrot o‘z davrida “proverbe” terminini qisqa, lo‘nda va esdan chiqmaydigan so‘zlar birikmasi sifatida ta’riflagan [3: 10].

FB va PFlardan foydalanish so‘zlashuvchilar uchun odatiy holdek ko‘rinsa-da, aslida bu birliklarning lingvistik tabiati juda murakkabligi sababli uni yuzaki o‘rganib bo‘lmaydi. Xorijiy tillarni o‘rgatishda og‘zaki va yozma nutqda FBlarni o‘rganish va qo‘llash tilni boyitish imkonini beradi, shu bilan birga, o‘rganayotgan xorijiy tildagi muloqoti yanada mukammal, shirali, ifodali va xilma-xil bo‘ladi, qiziqishini yanada oshiradi.

Proverbial frazeologizmlar nutq jarayonida tayyor holda namoyon bo‘ladigan, to‘liq yoki qisman ko‘chma ma’noda ishlatiladigan, strukturasi gapga teng, semantik yaxlit, kontekst tarkibida bir butun holda mustaqil lug‘aviy ma’no anglata oladigan, kinoya-qochirimli yoki nasihatomuz fikrni ifodalovchi maqol, matal va yumuq iboralardan iborat turg‘un birliklar hisoblanadi.

Hozirgi zamon fransuz tili frazeologiyasining yirik namoyandasi Alen Rey “Frazeologik birliklarda asosiy urg‘u semantik xususiyatlarga qaratiladi, ayniqsa, “semantik ko‘chish” va “semantik dinamizm” g‘oyalariga asoslanadi. Frazeologiya alohida xossalarga ega bo‘lgan iboralar tizimi bo‘lib, ijtimoiy hayot bilan bog‘liq holda faollashadi”, deb yozadi. Fransuz tilshunosi M.Martel FBlarni ikki qismga ajratib, maqolsiz frazeologizmlarni “expressions proverbiales” va maqollarni “proverbe” deb ataydi. So‘ngra “expressions proverbiales”ga xos asosiy belgi ma’noning metaforik ko‘chimi, “proverbe”larga xos asosiy belgi esa xulosaviy fikr anglatishdir, deb tushuntiradi [4: 78]. “FBlar so‘zdan farqli ravishda, shaklan so‘z birikmasi yoki gapga teng bo‘ladi, ularni bir narsa, ya’ni gapning komponenti ekanligi bog‘lab turadi, FBlar gapda gap bo‘lagi yoki gap ichidagi gap shaklida ishlatiladi”, deydi M.Umarxo‘jayev [5:

23]. FBlarga berilgan ta'riflardan ko'rinadiki, frazeologizmning eng asosiy xususiyatlari ularning turg'unligi, ko'chma ma'noliligi, emotsional-ekspressivligi, inson ongida tayyor holda in'ikos etishi kabilardir. Shulardan kelib chiqib, frazeologiya milliy leksikaning o'ziga xosligini yorqin tarzda aks ettiruvchi tarmog'i degan xulosaga kelamiz.

Turg'un birlikning ma'no ko'chimiga asoslangan proverbial frazeologizmlarga xos belgilar ham bugungi kungacha olimlar o'rtasida bahslarga sabab bo'lmoqda. Jumladan, bevosita o'zbek tilshunosligida frazeologik birlik yoki iboralar, birinchidan, tilda ko'p vaqt bir qolipda qo'llanaverib bo'linmaydigan yaxlit, bir butun holga kelib qolgan bo'ladi; ikkinchidan, FB yoki ibora tarkibida eng kamida ikkita mustaqil so'z ishtirok etadi; uchinchidan, ibora yaxlit holda yoki uning bir qismi ko'chma ma'noda qo'llanilgani uchun obrazlilik, ta'sirchanlikka boy FBga aylanadi, degan to'xtamga kelinayotir.

PFlar o'ziga xos asosiy belgilarga ega. Bular: turg'unlik, ko'chma ma'no yoki majoziylik, har bir komponenti alohida-alohida qayd etilishi, kishi ongida qayta in'ikos etilishi, semantik tutashlik, ekspressiv-emotivlik, ifodalilik kabilar. Shu belgilar natijasida FB va PFlar boshqa birliklardan farqlanadi. Jumladan:

1. **Turg'unlik belgisi**ni fransuz olimi A.G.Nazaryan strukturaviy va ishlatilishiga ko'ra turg'unlik turlariga ajratadi. Strukturaviy turg'unlik belgisi FBlarning leksik, grammatik tarkibining aniqligidir. FBlarda ishlatilish turg'unligi asosan uning tarixiy-xronologik omiliga alohida e'tibor berish kerak deb izoh beradi, ya'ni FBlar ma'lum bir muddatni, hech bo'lmaganda, bir avlod muddatini o'tashi, so'ngra ishlatilishi jihatidan turg'un deb hisoblanishi mumkin bo'ladi [6: 39]. Masalan, *"Chercher un mouton à cinq pattes" – "Anqoning urug'ini qidirmoq" – "Искать то, что не существует" frazeologizmi mazmunida shu holatni kuzatish mumkin.*

Ingliz frazeologiyasi bo'yicha olim A.V.Kunin "FBlarda turg'unlik bu – frazeologik darajasi turli xil aspektlarning o'zgarmaslik hajmidir", deydi va u turg'unlik belgisi frazeologik birliklarning leksik tarkibi, ishlatilishi, semantikasi, morfologik, sintaktik tuzilishida mavjudligini sharhlab beradi [7: 9]. Rus tilidagi *"Семь пятниц на неделе"* maqolini *"Семь суббот на неделе*" ko'rinishida ishlatish mumkin emas. Shuningdek, *"После дождика в четверг"* maqolini "*После дождика в пятницу*" yoki "*После снежка в четверге*" shaklida ishlatib bo'lmaydi, chunki ularga xos bo'lgan turg'unlik buziladi.

Bizningcha, turg'unlik bu – ibora tarkibidagi so'zlar birikmasining yagona ipga tizilganligidir. Ushbu belgi FBlar tarkibini kengaytirish, boyitish, komponentlarini almashtirish imkonini beradi. Turg'unlik belgisi frazeologik birikmalar va proverbial frazeologizmlarning leksik tarkibi, ishlatilishi, ma'nosi, morfologik tuzilishida uchraydi.

2. **Ko'chma ma'nolilik.** FB va PFlarda ko'chim (trop)ning bo'lishi, bizningcha, asosiy belgi hisoblanadi. Chunki har qanday ibora frazeologizm hisoblanishi uchun birinchi shart – u ko'chma ma'noda ishlatilishidir. PFlar o'z tarkibidagi so'zlarning umumlashgan ko'chma ma'nosi asosida qurilgan bo'lib, ular ifodalaydigan ma'no zaminida metaforik asos yotadi. Masalan: *"Le fruit ne tombe jamais loin de l'arbre"*(tarjimasi: "*Meva daraxtdan uzoqqa tushmaydi")* iborasi o'zbek tilidagi *"Olma olmani ko'rib rang oladi"* yoki *"Onasini ko'rib, qizini ol"*, *"Ilonning bolasi ilon, chayonning bolasi chayon"* iboralariga hamda rus tilidagi *"Яблоко от яблони недалеко падает"* muqobillariga mos keladi. Mazkur ma'no ular tarkibidagi komponentlarning alohida ma'nolaridan emas, balki ularning umumma'nolaridan kelib chiqqan holda yuzaga kelgan.

Ko'chma ma'nolilik belgisi PFlarning asosiy belgilaridan biridir. Nutqimizda ishlatiladigan ko'chma ma'nodagi maqollar miqdori o'z ma'nosida ishlatiladigan maqollar miqdoriga nisbatan ko'proq. Negaki, o'zbek xalqi qo'llab kelayotgan PFlar badiiy ko'chimlarga boy va ular milliy mentalitetimizning o'ziga xosligini namoyon etadi, poetik ko'chimlar esa badiiy tafakkurimizning barcha qatlamlarida obraz yaratish hamda obrazli nutqni yuzaga keltirishga xizmat qiladi. Metafora, metonimiya hamda sinekdoxa kabi badiiy ko'chimlarning PFlarda tutgan o'rni salmoqli.

Majoziy ma'noda ishlatilmagan maqollarda obrazlilik va bo'yoqdorlik yetishmaydi. V.G.Gakning fikricha, FBlar uchta belgiga ega: ular bir hadli emasligi (ko'p komponentlilik), muomalada ko'chma ma'noda va turg'un holatda ishlatilishi, yuqoridagi bironta belgining ishlatilmasligi natijasida FBlarning boshqa til birligiga aylanib ketishi [8: 5].

"Qayroqi so'zlar" risolasining mualliflari Sh.Shomaqsudov va S.Dolimovlarning fikricha, maqollarning barchasi majoziy ma'noda ishlatilmaydi, lekin iboralarning deyarli hammasi majoziy ma'noda ishlatiladi [9: 4].

3. **Har bir komponenti alohida qayd etilganlik belgisi,** ya'ni so'zdan ustunligi, u har doim komponentlarning faolligini va nutqda so'z maqomini aks ettiruvchidir. Ular ikki va undan ortiq komponentlardan iborat holda shakllanadi. Ta'kidlash lozimki, FBlar nechta so'zdan tashkil topgan bo'lishidan qat'i nazar, bir butun, ajralmas ma'noni anglatadi. Masalan: *"Une hirondelle ne fait pas le printemps" – "Bir qaldirg'och bilan bahor bo'lmas"* yoki muqobili *"Yolg'iz otning changi chiqmas", "Un peu de fiel gâte de miel", "Ложка дёгтя в бочке мёда" – "Bir tirraqi buzoq butun podani buzar", "Qui sème dru, récolte menu", "Густой посев – редкий урожай" – "Nima eksang, shuni o'rasan*" kabi frazeologik birliklar komponentlari alohida-alohida qayd etilgan bo'lsa-da, semantik yaxlit ma'noni anglatmoqda.

"Frazeologizmlarda har bir komponentning alohida qayd etilishi va yaxlitligi ular komponentlarining o'zaro almashinishini va bir vaqtning o'zida frazeologik birliklarning semantik turg'unligini ta'minlaydi", deb yozadi A.E.Mamatov [10: 32]. Bizningcha, FBlardagi har bir

komponenti alohida-alohida qayd etilganlik belgisi FBlar tarkibidagi komponentlarning so‘zdan ustunligi va ibora tarkibida yaxlitlashib, yagona ma’noni anglatishidir.

4. **Kishi ongida tayyor holda namoyon bo‘lish** belgisi “turg‘unlik” belgisining davomi hisoblanadi. F.de Sossyur ushbu belgi to‘g‘risida “Bunday iboralar improvizatsiya qilinmaydi, balki odatiga ko‘ra tayyor holda avloddan avlodga o‘tib keladi”, degan fikrni bildirgan. N.M.Shanskiy esa bu belgini FBlarni erkin so‘z birikmalaridan ajratib turadigan va so‘zga yaqinlashtiradigan asosiy xususiyatdir, FBlar nutq jarayonida tayyor holda in’ikos etadi, deb hisoblaydi. Masalan: *“За девять лет он ни разу не простил”* iborasida kishi ongida tayyor holda namoyon bo‘lish belgisi yo‘q, lekin *“за тридевять земел”* (uzoq degani) FB ko‘chma ma’noda, tayyor holda namoyon bo‘lgan. Fransuz tilidagi *“Chat échaudé craint l’eau froide“,“Brebis galeuse gate le troupeau“,* o‘zbek tilidagi *“Tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq”, “Asfalasofilinga jo‘natmoq”* yoki rus tilidagi *“На брюхо шёлк, а в брюхе щёлк”, “Попаст из огня да в полымя”* kabi FBlarni eshitgan fransuz, o‘zbek, rus tillari sohiblarining barchasi o‘z tillarida mavjud frazeologizmlarning ma’nolarini bir xilda tushunishadi.

Yuqoridagi sharhlarga asoslangan holda mazkur belgiga bizning munosabatimiz: FBlarni yaratib bo‘lmaydi, ularni borligicha yod olish, ma’nosini aniq eslab qolish lozim. Ular tayyor holda, qolipga solingandek ko‘rinishda bo‘ladi.

5. **Semantik tutashlik,** V.Mokienkoning ta’kidlashicha, frazeologizmning ichki qiyofasini mavhumlashtiruvchi va so‘zning asl ma’nosini yo‘qotishga olib keluvchi xususiyatdir. Semantik tutashlikning ishtirok etmasligi yoki yo‘qolishi frazeologizmni so‘z birikmalariga yaqinlashtirib qo‘yadi. Semantik tutashlik FBlardagi umumiy ma’noning ularni tashkil qilgan komponentlar ma’nolarining yig‘indisidan chiqib ketmasligidir. Bu o‘rinda FBlar tarkibidagi komponentlar ma’nolarining motivsizligini tushunamiz. A.V.Kunin esa yaxlit ma’no yopiq FBlar ma’nosi komponentlarining to‘liq boshqa ma’noga ega bo‘lgan holda ishlatilishidir, deb hisoblaydi va semantik yaxlit FBlarnigina idiomalar deb ataydi [7: 101]. M.Irisqulovning fikricha, Umumiy tilshunoslik nuqtayi nazaridan, frazeologik birliklar deganda semantik jihatdan bir-biriga tobe bo‘lgan, nutq jarayonida gapiruvchi tomonidan erkin so‘zlarni bir-biriga qo‘shish yo‘li bilan tuzilmaydigan, til leksikonida tayyor holda mavjud bo‘lgan va jamiyat tomonidan belgilangan barqaror ma’noga ega bo‘lgan ma’lum bir leksik, grammatik tuzilma, birlik tushuniladi”.

Bizningcha, semantik tutashlik FB va PFlarda so‘zning asl ma’nosini yo‘qotishga eltuvchi belgidir. Bunda alohida komponentlar o‘zining asl ma’nosini qisman yoki to‘liq yo‘qotib, FBlar tarkibiga singib ketadi va semantik yaxlit, yagona ma’noni anglatishi uchun asosiy belgi hisoblanadi.

6. **Ekspressivlik va emotivlik** frazeologizmlarning xarakterli va kategorial belgisidir. Nutq fakti belgilari semantik mazmunning intensivligi va belgilar paydo bo‘lishining juda yuqori darajasidir; so‘zlovchining obyekt yoki jarayonga bo‘lgan munosabatini aks ettiruvchi, frazeologizm tomonidan belgilanuvchi yoki xarakterlanuvchi belgi ekspressivlik va emotsionallik (emotivlik) deyiladi. Ushbu munosabatlar kinoyali, hazilomuz, beiltifot, nafrat yoki kamsitish ma’nosida boshqa ifoda shakllarida bo‘lishi mumkin. A.M.Babkin bu borada “So‘zlovchining ijobiy va salbiy baholi munosabati frazeologizmlarga xosdir va u frazeologizm ma’noli ekvivalentining muhim xususiyatiga kiradi”, degan xulosaga keladi.

Tilda emotivlik ikki xil: so‘zlovchiga nisbatan va tinglovchiga nisbatan xarakterga ega. PFlar til vositasi sifatida emotiv-ekspressivlikni ifodalashi bilan ajralib turadi. PFlarning ko‘pchiligi nutqda stilistik maqsadlarni ifodalab, insonlarning emotiv holatini va emotiv baho munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Jumladan, *“eshakday qaysar”* ma’nosini anglatuvchi PFda ekspressivlik baho munosabati yoritilgan. “*On peut mener un âne à l’eau, mais on ne peut pas le faire boire”* ning so‘zma-so‘z tarjimasi: *“Eshakni majburlab suvga olib borish mumkin, lekin uni majburlab suv ichirib bo‘lmaydi”.* Ko‘rinadiki, so‘zlovchi ekspressiv belgi yordamida o‘zini o‘rab turgan hodisalarga munosabatini o‘z hissiyoti orqali bildiradi. Ushbu belgi fikrni tez, kuchli va ta’sirchan ifodalashga xizmat qiladi. U nutqda baho-munosabat bildirish xususiyatiga ega bo‘lishi ham, bo‘lmasligi ham mumkin, ekspressivlik yoki nutqning bo‘yoqdorligi emotiv, his-hayajonli ko‘rinishda ham bo‘ladi.

7. **Ifodalilik** (obrazlilik) deganda odatda til birliklarining narsa yoki jarayon haqidagi ko‘rgazmali, hayajonli tushunchalarni ifodalay olish imkoniyati tushuni-

ladi. Ifodalilik mohiyati nutqning ma’nosi, ta’sirchanligini ma’lum darajada oshirishdir. Ifodalilik va ekspressivlik o‘zaro bog‘liq, lekin ekspressivlikni yaratishdagi vositalardan biri sifatida aynan leksemalarning aniq va ko‘chma ma’noda qabul qilinishi o‘rtasida ma’lum tafovut mavjud. Shunday mavhumlik va aniqlikning qarama-qarshi qiyoslanishi ekspressivlikni yaratadi, deb yozadi A.Larin [11: 202]. D.N.Shmelevning fikricha, ifodalilik frazeologizmlarni aniqlashda xizmat qiluvchi xususiyatlardan biri bo‘lib, badiiy nutqni jonlantiradi va til birliklarining narsa, voqea-hodisalarga nisbatan hissiy faol holatda ishlatilishiga imkon yaratadi. V.G.Gak ham ifodalilik haqida: “Ikkita tasvirning qo‘shma ko‘rinishi, ya’ni ulardan biri FBning obrazli ko‘chma ma’nosini, ikkinchisi so‘zma-so‘z ma’nosini yaratishda xizmat qiladi”, deb ta’kidlaydi [8: 101]. “Ifodalilik deganda asliyatning predmeti va hodisasi haqidagi ko‘rgazmasi, hissiy tasavvurlarini yaratish qobiliyati tushuniladi”, deb yozadi V.M.Mokiyenko. Uning fikricha, ifodalilik bu – FBlardagi qo‘shimcha belgi, ekspressivlik esa kategorial belgi hisoblanadi. Lekin qo‘shimcha belgi asosiylikdan chetda degani emas, balki FBlarning ko‘pchilik qismi tarkibidagi mavjud hodisadir [12: 124].

Frazeologizmlar nafaqat hodisa, belgi va harakatlarni nomlaydi, balki ularning ma’lum bir ifodasini ham tashkil etadi. U birlamchi yaqqol ifodali asosning mavjud emasligi va rivojlanish jarayonidagi ichki shaklning so‘z birikmasi bilan yo‘qolishidir. Frazeologik birliklarning mohiyati, ularning boshqa til birliklaridan farqini tushunish uchun ifodalilikni yuqori baholash ham, baholay olmaslik ham zararli. FB va PFlarning shakllanishi va rivojlanishida obrazlilik va obrazsizlikning o‘zaro dialektik aloqasini baholash bu fenomenga obyektiv yondashishdir, ya’ni frazeologiyaning kategorial xususiyati hisoblangan ekspressivlikni yuzaga chiqarishdir. Ifodalilikda FBlardagi oddiy ma’no metaforik, metonimik ko‘chim bilan yoki qandaydir maxsus tasviriy yo‘l bilan ifodalangan holatlar ham mavjud. Masalan, “juda och” va “bo‘riday och” iboralarini solishtirib ko‘raylik: “juda och” so‘z birikmasi to‘g‘ri ma’noda, “bo‘riday och” iborasi esa ko‘chma ma’noda, ya’ni metaforik yo‘l bilan tasviriy bo‘rttirilgan frazeologiya. Demak, fikrimizcha, FB va PFlardagi ifodalilik ertak, doston, qo‘shiqlardagi ifodalilikdan o‘ziga xos xususiyati: qisqa, lo‘nda ko‘rinishi, kesatiq, kinoya ma’nolarni anglatishi va majoziy ma’nolar ifodalashi bilan farqlanadi.

Fikrlar va misollar tahlilidan ko‘rinadiki, qayd etilgan belgilarning har biri frazeologizmlar uchun universal, mukammal ko‘rsatkich emas, ularning ma’lum bir qirralarini namoyon etadi xolos. Bu o‘rinda A.G.Nazaryan va A.V.Kunin “Frazeologik birliklarda asosiy belgi – ular komponentlarining semantik jihatdan to‘liq va qisman o‘zgarishi natijasida frazeologik xarakterga ega bo‘lmagan erkin hamda turg‘un so‘z birikmalaridan farqlanishidir”, degan qarashlarini qo‘llab-quvvatlagan holda proverbial frazeologizmlarning asosiy belgilari turg‘unlik, ko‘chma ma’nolilik, nutq jarayonida tayyor holda mavjud bo‘lishi, semantik tutashlik, ekspressiv-emotsionallik, ifodalilik kabilardir deb hisoblaymiz. Ushbu belgilarning aksariyatiga ega bo‘lgan iboralar oddiy yoki erkin so‘z birikmalaridan ajralib turadi va nutq jarayonida so‘zlovchining bilim darajasi, notiqlik san’ati va mahoratiga qarab qo‘llaniladi.

Til hodisalarining barchasini o‘zida mujassamlashtirgan proverbial frazeologizmlarni boshqa turdagi frazeologik birliklar bilan bir qatorda til frazeologik fondining maxsus qatlamidagi alohida guruh deb hisoblash maqsadga muvofiq. PFlar tarkibidagi komponentlar leksik mustaqilligini yo‘qotib, bir butun, yaxlit, ajralmas ma’noni anglatish uchun grammatik va leksik jihatdan jipslashadi va turg‘un birlikni paydo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagi “Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 124-son qarori.
2. Aristotel. Poetika (poeziya san’ati haqida). – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980.
3. Montreynaud F., Pierron A., Suzzoni F. Dictionnaire des proverbes et dictons. Le Robert – Paris,1989.
4. Martel M. Petit receuil des proverbes français. – Paris, 1939
5. Умарходжаев М.И. Основы фразеологии. – Ташкент: Фан, 1983.
6. Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка. – Москва, 1987.
7. Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. – Москва, 1972.
8. Гак В.Г. Новый большой французско-русский фразеологический словарь. – Москва, 2005.
9. Shomaqsudov Sh., Sharaxmedov Sh. Ma’nolar mahzani. – Toshkent, 2001.
10. Mamatov A.E. O‘zbek tili frazeologiyasi shakllanishi masalalari. 10.02.02. Milliy tillar (o‘zbek tili): Fil.fan.dok...diss avtoref. – Toshkent, 1999.
11. Ларин Б.А. Очерки по фразеологии // Уч. зап. ЛГУ. Серия филол.наук. – Ленинград, 1956. №24.
12. Мокиенко В.М. Славянская фразеология. – Москва, 1980.

Анатолий Лиходзиевский,
доктор филологических наук,
профессор Узбекского государственного
университета мировых языков

ВЕЛИКИЙ ПРОСВЕТИТЕЛЬ

(к 275-летию со дня рождения Иоганна Вольфганга Гёте)

Значение жизни и деятельности Иоганна Вольфганга Гете (1749–1832) невозможно преувеличить. Он сделал очень много. Конечно, он в первую очередь великий писатель. Но как настоящий просветитель он проявил себя в разных отраслях науки и творчества. Он был специалистом по истории религии, защитил диссертацию, создал труды по ботанике, актуальные и в наши дни, занимался историей, философией, литературной критикой, активно участвовал в политической жизни. Его литературное наследие достаточно обширно: он сочинял лирику, драмы, романы, публицистику. При этом его авторитет сложился фактически после смерти писателя. Это сейчас Гете однозначно считается классиком мировой литературы. Но при жизни он постоянно подвергался нападкам соратников-литераторов. Негативно о его творчестве высказывались даже такие известные авторы как Фридрих Шлегель, Генрих Гейне и ряд других. Гете всю жизнь приходилось отстаивать свои идеи и произведения.

Причина нападок на Гете отчасти заключается в его политической и творческой противоречивости. Он занимал в Германии очень высокое положение, был чуть ли не вторым человеком у власти после императора, писал и проводил в жизнь законы. В этом отношении он был консерватором, наследником средневековых традиций, защитником привилегий своего класса, скептически относящимся ко всему новому, противником всяких революций. Но гений Гете позволил ему высоко оценить творчество бунтаря-Байрона, выразить в своих произведениях прогрессивные просветительские идеи. Консерватизм и бунтарство причудливо переплетаются в творчестве Гете. В нем есть и величие, гениальные предвидения и ограниченность немецкого обывателя. Парадоксально он одновременно и отстаивал пережитки феодализма, и давал им объективную критическую оценку.

Гете прожил долгую жизнь, став свидетелем важных исторических событий разных эпох. Вот почему невозможно однозначно определить его политическую и эстетическую позицию. В разные периоды жизни взгляды Гете менялись. Иногда настолько резко, что кажется будто это совсем разные авторы. Отсюда обязательная периодизация его жизни и творчества, давно принятая в литературоведении.

Родился писатель в городе Франкфурт-на-Майне в семье зажиточного бюргера, имперского советника. Уже в детстве Гете проявил талант в живописи, музыке и литературе. Он получил блестящее образование в университете Лейпцига, где в это же время обучался русский писатель А. Радищев. Уже студентом Гете пробовал писать в разных жанрах. Переехав в Страсбург, который был тогда центром немецкой культуры, он сблизился с философом и критиком Гердером, который привил начинающему писателю любовь к Шекспиру. Защитив диссертацию и получив докторскую степень, Гете, уже известный к этому времени писатель, возвращается в Франкфурт и становится во главе литературного движения за обновление литературы.

Ранний период творчества немецкого классика тесно связан с эстетикой популярного в те годы литературного движения «Буря и натиск». Его представители, которых справедливо считают провозвестниками романтизма, стремились изобразить сильную личность, вовлеченную в социальный конфликт. Они отстаивали свободу творчества писателя, их произведения были эмоционально насыщены, описывали бурные страсти, подвиги героев, борющихся за свободу своего народа. Это в полной мере относится и к раннему Гете. Его ранние стихи оптимистичны, воспевают радость жизни, любовь и дружбу. «Свидание и разлука», «На озере», «Моей матери», «Застольная» точно выражают все оттенки эмоций лирического героя. В программном стихотворении «Майская песня» есть такие строки:

Как эту радость
В груди вместить! –
Смотреть! и слушать!
Дышать! и жить!

В своих стихотворениях поэт обращается к национальному фольклору, жанру баллады («Лесной царь»). Лирика Гете быстро обрела общеевропейскую популярность, была хорошо известна в России в переводах М.Лермонтова и В.Жуковского.

Эстетика «Бури и натиска» ярко проявляется и в ранней драматургии Гете. В исторической драме «Гец фон Берлихинген (1773) изображен рыцарь, выступивший против лицемерия, интриганства, жадности немецкой аристократии, из которой он вышел сам. Гете сознательно идеализировал образ исторического лица ради выражения идеи справедливого бунта. Герой драмы, узнав о восстании крестьян против своих угнетателей, становится его лидером, нарушив при этом рыцарскую клятву вер-

ности императору. Осужденный за это, а потом помилованный Гец умирает перед самым известием о победе восставших и наступлении свободы, о которой говорит в предсмертной речи. Авторская идея заключена в словах сестры Геца Марии: «Честный, благородный человек! Горе веку, отвегшему тебя!». Этот же тип героя представлен в драме «Эгмонт» (1775, другая редакция – 1787), где в традициях Шекспира вводятся массовые народные сцены и исторический материал. Героем произведения становится Эгмонт, борец за независимость Нидерландов от испанского господства, пожертвовавший свою жизнь ради великой цели.

Главным произведением раннего Гете, безусловно, является прославивший его роман «Страдания молодого Вертера» (1774). Форма романа традиционна. Писатель использует дневник главного героя и письма издателя. Внешне сентиментальный любовный роман содержит скрытый протест против бездушия, жестокости, черствости современного немецкого общества. Главный герой, отвергнутый девушкой, в которую он был влюблен, кончает жизнь самоубийством, застрелившись из пистолета. Но его смерть нельзя объяснять только любовной неудачей. Она закономерна, и безответная любовь является лишь поводом для ухода из жизни. В своем дневнике Вертер пишет: «И если бы только меня не тревожила мысль о моих напрасно пропадающих силах… Превозмогаешь себя, душишь их в себе; и это щемит сердце. И быть все-таки непонятым – наша участь!» Богатый духовный мир героя вступает в резкий конфликт с окружающим миром. Его смерть – это протест, вызов всему обществу, построенному на пороках.

История Вертера не придумана, а взята из жизни Гете. Он был влюблен в аристократку Шарлотту Кестнер и, получив решительный отказ, всерьез думал о самоубийстве. Внешность Вертера, его костюм срисованы с самого Гете. Интересно, что Шарлотта, прожившая долгую жизнь, стала знаменитой как женщина, отвергшая будущего гения и ставшая прототипом его знаменитой героини. До конца жизни ее как особую достопримечательность преследовали любопытные зеваки.

В 1775 году по приглашению веймарского принца Гете переезжает в Веймар, становится тайным советником посольства и членом тайного совета. Очень много говорили и писали о его дружбе с другим немецким классиком – Фридрихом Шиллером, бедняком, которому покровительствовал и всячески помогал богатый и влиятельный Гете. В творчестве знаменитого автора «Страданий молодого Вертера» происходит перелом. Начинается период так называемого «веймарского классицизма» (термин закрепившийся в гетеведении).

Теперь Гете интересуют эстетика Древней Греции и Рима, античные мифы, сюжеты, жанры и проблематика. Эмоциональность и бунтарство остаются в прошлом. Им на смену приходят спокойствие, выдержанность, философские размышления над сущностью человека и смыслом его существования. Вместо бурных ранних стихотворений теперь рождаются произведения задумчивые, величавые. В сборнике «Римские элегии» (1790), посвященном Христиане Вульпиус, будущей жене Гете, поэт имитирует классические формы, вплоть до гекзаметра.

Чувствую радостно я вдохновенье
классической почвой,
Прошлый и нынешний мир громче
во мне говорят.

В стихах этого периода тоже много говорится о любви и дружбе. Но вместо бури чувств Гете насыщает стихи философским содержанием. Он часто обращается к современности, применяет элементы античной сатиры, рассуждения о сути и роли искусства, проводит прямые параллели между античными сюжетами и современностью. Как бы соревнуясь с античными драматургами Гете пишет трагедию «Ифигения в Тавриде» (1787), в которой смещает акценты. Его героиня не просто жертва ради военной победы отца Агаменмона, но и активная женщина-гуманистка, спасающая и излечивающая своего брата Ореста. По сравнению с античной трактовкой мифа у Гете конец изменен: Ифигения своими качествами добивается великодушия у царя и все кончается благополучно.

К этому же периоду относится и драма «Торквато Тассо» (1789) о трагической судьбе великого итальянского поэта эпохи позднего Возрождения, доведенного фанатиками-инквизиторами до безумия. Правда, сумасшествие Тассо у Гете отчасти связано и с его безответной любовью. Также драматург приукрасил и обстановку (снял конфликт Тассо с властью), что соответствовало положению писателя в Германии. Получилось, что в своих бедах поэт виноват сам, поскольку не смог приспособиться к придворной обстановке.

В жизни Гете было много поворотов. Он не понял и не принял Французской революции и идей ее деятелей Дантона, Робеспьера и других, боялся их влияния на Германию. Он пережил наполеоновские войны, выразив противоречивое к ним отношение. В поздний период творчества Гете много путешествовал, создал такие примечательные произведения, как трилогия о Вильгельме Мейстере, ставшей одним из источников немецкого романтизма, веселую и жизнерадостную поэму на фольклорный сюжет «Ренеке-Лис», замечательный поэтический сборник «Западно-восточный диван» (1819), отдав дань восточной тематике и образности. За несколько месяцев до смерти Гете завершает главный труд своей жизни – трагедию «Фауст», о которой следует поговорить отдельно.

История создания произведения хорошо известна. Впервые Гете обратился к образу средневекового мага и чернокнижника еще в студенческие годы. Сохранившийся неполный текст пьесы, относящий-

ся к 1773-1775 гг. ученые назвали «Прафаустом». В 1790 году Гете опубликовал фрагмент драмы. Но все это в окончательный текст не вошло. Писатель переработал сюжет, и в 1808 году вышла первая часть «Фауста», а в 1831 была завершена вторая часть, которая была опубликована уже после смерти Гете. Таким образом, Гете работал над «Фаустом» практически всю свою жизнь. Очевидно, сложность темы, постановка глобальных философских проблем требовали большого жизненного опыта, и писатель, пережив многие события, пройдя через многочисленные раздумья, в самом конце жизни подвел итоги своего творчества.

Источником драмы были легенды об алхимике и колдуне Фаусте, который жил в первой половине XVI века, и особенно книга издателя Шписа «История о докторе Иоганне Фаусте…» (1587), в которой эти легенды были собраны. Можно назвать и первую пьесу о Фаусте, написанную английским драматургом Кристофером Марло «Трагедия о докторе Фаусте» (1588) и многочисленные постановки в кукольных театрах. Но Гете полностью отверг трактовку образа своими предшественниками. У него легендарный чернокнижник и злодей превратился в ученого-гуманиста, занятого поиском сущности человека и смысла его существования. Весь сюжет драмы связан с поиском ответа на эти вопросы.

Для понимания зрителем и читателем сложного замысла Гете использует два пролога. Один из них, в котором спорят трагический и комический актеры, выражает эстетическую программу драматурга, готовит к восприятию сложного соединения элементов разных жанров. А второй пролог «На небесах» содержит в себе и завязку действия и постановку основной проблемы. Господь Бог спорит с чертом Мефистофелем о сущности человека. Господь считает его своим лучшим и важнейшим творением, тогда как Мефистофель определяет человека как ничтожество и желает это доказать. Они заключают пари, а в качестве объекта для испытания выбирают престарелого ученого Фауста, личность неординарную (простого человека Мефистофель легко бы совратил), и, таким образом, Фауст, сам не зная своей роли, будет защищать честь всего человечества. Мефистофель и Фауст заключают договор, согласно которому черт будет выполнять все желания ученого, а в обмен получит его душу, если Фауст объявит о своем счастье и довольстве. Все эпизоды драмы – это попытки Мефистофеля совратить Фауста, который проходит различные испытания по мере возрастания их сложности: чревоугодие и пьянство, любовь к женщине, власть, слава и т.д.

Разочарованному в жизни и науках Фаусту слуга-черт нужен для новых возможностей в познании мира и бытия. Вот почему он сразу же соглашается подписать договор. По ходу действия Фауст проживает фактически две жизни: его омолаживают для любовных страстей, а затем он снова стареет. В конце концов он находит смысл своей жизни в служении людям и произносит сокровенную фразу. Но Мефистофель не получает его душу и проигрывает пари Господу Богу, поскольку Фауст не согрешил и в аду ему не место.

Антиподом Фауста в пьесе является его ученик схоласт Вагнер, создавший искусственного человека Гомункулюса, который при полном отсутствии человеческих чувств, может существовать только в пробирке. Его конец закономерен – он разбивается об скалы.

Таким образом, драма представляет собой гимн человеку, утверждает его величие. Сама концепция человека у Гете получает философское обоснование. Фауст говорит:

Но две души живут во мне,
И обе не в ладах друг с другом.
Одна, как страсть любви, пылка
И жадно льнет к земле всецело,
Другая вся за облака
Так и рванулась бы из тела.

По мнению Гете, человек – это единство материального, земного (в этом его слабость и отчасти порочность) и возвышенного, творческого (в этом его величие). Фауст не может остановить мгновение и по другой причине. Смысл бытия по Гете состоит в вечном и беспрерывном движении. Важно даже не достичь цели, а постоянно к ней стремиться. Остановка означает конец существованию. Эта мысль проводится от посвящения к драме до самого ее финала.

Художественная сторона «Фауста» очень своеобразна. В ней переплетаются реальность и фантастика в стиле народных легенд (Вальпургиева ночь с танцующими ведьмами и другие эпизоды). В пьесе много образов-символов и намеков на современные реалии. Например, в образе героя Эвфориона, сына Фауста и Елены Прекрасной (мужской ум и женская красота рождают гениев) явно просматривается намек на Байрона, который в своей короткой жизни пролетел как звезда, ослепив человечество своим светом. «Фауст» насыщен остротами и афоризмами, многие из которых стали существовать самостоятельно. Например, меткая фраза Мефистофеля:

Теория, мой друг, суха,
Но зеленеет жизни древо.

Структура пьесы очень сложна. Практически она никогда не ставилась на сцене целиком. Это связано и с ее объемом (две части фактически представляют собой две пьесы), и с быстрой сменой сцен и декораций, что очень осложняет постановку. Поэтому до сих пор в театрах ставятся лишь фрагменты произведения (сцена договора, история любви Фауста и Маргариты). Эта драма предназначена скорее для чтения, чем для театра. И, тем не менее, «Фауст» – один из самых выдающихся шедевров мировой литературы, созданный гением. Каждое поколение читателей будет открывать в нем что-то новое.

Ilhom KAZAKOV,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

REALIYALARDA O‘ZBEK VA QORAQALPOQ XALQLARI MADANIYATI

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek va qoraqalpoq xalqlarining ko‘p asrlik milliy madaniyatini o‘zida aks ettiruvchi realiyalar, ya’ni tarixiylikka daxldor kiyimlar va zargarlik buyumlari o‘rganilgan. Madaniyatlararo xususiyatlarning lisonda turfa xil aks etishi har qaysi millat olamni o‘ziga xos tarzda anglaganligi va tafakkuriga joylaganligi natijasi ekanligi ko‘rsatilgan.
Kalit so‘zlar: realiya, milliy kiyim, zargarlik buyumlari, milliy madaniyat, urf-odat, an’ana, mentalitet, lingvokulturologik birliklar.
Annotation. The article studies the realities that reflect the centuries-old national culture of the Uzbek and Karakalpak peoples, that is, historical clothes and jewellery. It is shown that the different expression of intercultural features in the language is the result of each nation’s understanding of the world in its own way and its way of thinking.
Keywords: reality, national clothes, jewellery, national culture, custom, tradition, mentality, linguistic and cultural units.
Аннотация. В статье исследуются реалии, отражающие многовековую национальную культуру узбекского и каракалпакского народов, в частности историческая одежда и украшения. Показано, что различное выражение межкультурных особенностей в языке является результатом индивидуального понимания каждым народом мира и своего способа мышления.
Ключевые слова: реалии, национальная одежда, украшения, национальная культура, обычай, традиция, менталитет, лингвокультурные единицы.

O‘zbek xalqiga xos milliy kiyimlar o‘zining ko‘p asrlik tarixiga ega bo‘lib, ular o‘tmishdagi kishilarning an’anaviy turmush tarzi, tabiiy-jo‘g‘rofiy muhit va xo‘jaligidagi madaniy aloqalar bilan bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, o‘zbek ayollarining asosiy milliy kiyimlari **ro‘mol, keng ko‘ylak, uzun lozim, nimcha** va **kaltacha** hisoblanadi. Bu kabi liboslarni tikishda *alocha, beqasam, adras* kabi turli ipak va matolar qo‘l kelgan. Erkaklar uchun oq yoki malla bo‘zdan tikilgan **keng ko‘ylak, yaktak, to‘n, chopon, belbog‘** va **salla** odatiy turmush kiyimlari darajasida e’tirof etilgan. Bosh kiyimlardan **do‘ppi, kuloh** kabilar kiyilgan. Islom davridan boshlab do‘ppining ustidan salla o‘ralgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da keltirilishicha, **salla** – savat, to‘rxalta; tugun. Uzunligi 1,5 metrdan 7 metrgacha bo‘ladigan, do‘ppi, kuloh, telpak ustidan o‘raladigan sidirg‘a mato, doka; musulmon erkaklarining bosh kiyimi. *Salla o‘ramoq. Kalla boshqa, salla boshqa* (Maqol). *Qorovul chol ham boshidan sallasini olmoqchi edi, chuvalib, oyog‘i ostiga tushdi* (N.Aminov, Qahqaha) [1: 717]. Aslzodalarning bosh kiyimlari zarli va kumush iplar bilan bezatilgan bo‘lib, peshona qismiga olmos, qimmatbaho toshlardan yasalgan to‘g‘nog‘ichlar qadalgan. Qish faslida badavlat kishilar **kuloh** yoki **mo‘ynali telpak** kiyishgan. Izohlash lozimki, 1. **Telpak** – tepasi yumaloq, doira shaklli, tekis mo‘yna jiyakli issiq bosh kiyim. *Savsar telpak. Qunduzsiz telpak* – mo‘yna jiyagi bo‘lmagan, faqat ichiga mo‘yna qoplangan bosh kiyimi. *Ko‘sa, ozg‘in, keng guppi to‘n va qunduzsiz telpak kiygan bir kishi kirdi* (A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari). 2. Mo‘ynali har qanday issiq bosh kiyim (quloqchin, papax, tumoq va sh.k). *O‘rta bo‘yli, ozg‘in, qora charm telpakni boshiga bostirib kiygan kishini uchratsam, Gavharning dadasimikan, deb yuragim o‘ynab ketadi* (S.Siyoyev, Yorug‘lik) [1: 63].

O‘zbek milliy kiyimlari orasida boshqa xalqlarda uchramaydigan **munisak (mursak)** deb ataluvchi ayollarning o‘ziga xos ustki libosi bo‘lgan. Uning bichimi an’anaviy to‘n va ko‘ylaklar bilan deyarli bir xillik kasb etsa-da, *munisak (mursak)*larda yoqa bo‘lmagan. *Munisak*ning qo‘ltiq ostidagi yon qismlari qat-qat yig‘ilib turgan. Shuni ham ta’kidlash kerakki, *munisak* hamma joyda ham kiyilmagan. U Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg‘ona vodiysi va Xorazmda keng tarqalgan. Samarqand *munisak*lari (ayrim o‘rinlarda *kaltacha* deb nomlangan) boshqa joylardagi *munisak*lardan qo‘ltig‘i ostidagi burmalarning miqdor jihatdan ko‘pligi bilan ajralib turgan. Avvallari *munisak* to‘y, marosim liboslari sanalgan. Ammo XIX asr oxirlariga kelib u motam, aza libosiga aylangan. Toshkentda *munisak* endi libos sifatida emas, balki marhumaning tobuti ustiga yopiladigan yopinchiq bo‘lib xizmat qiladi. Shu tariqa *munisak* o‘zining qadimiy libos maqomidagi vazifasini o‘tab bo‘lib, boshqa vazifa bajara boshlagan.

Tahlillardan ko‘rish mumkinki, har bir xalq o‘zining qadimiy milliy-madaniyatiga, urf-odat, an’analariga ega. Shunga ko‘ra, muayyan xalq milliy-madaniyatini o‘zida ko‘z-ko‘z etuvchi milliy libos nomlarini bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish jarayonida o‘z qatlamga mansub o‘sha ma’noga yaqinroq mazmun ifodalovchi muqobillar bilan tarjimada berish hollari ham uchraydiki, bu katta xato hisoblanadi. Chunki har qanday xalq lisonidagi biror narsa-hodisani nomlash vazifasiga ixtisoslashgan leksika alohida termin sifatida shakllanishi uchun yillar, boringki, asrlar silsilasiga bardosh berishi kerak. U ang-

latgan mohiyatni boshqa so‘z bilan izohlash yoki ifodalash so‘zshunoslikdagi jiddiy xatolarning vujudga kelishiga sababkor bo‘ladi. Bu kabi so‘zlar (garchi har ikki tildagi so‘zning vujudga kelishi bir ildizga borib taqalsa-da) qardosh tillar doirasida ham ko‘plab uchraydi. Ana shunday tillar va madaniyatlararo farqlilikni o‘zida jamlovchi xususiyatlar zargarlik buyumlarining nomlanishida ham ko‘zga tashlanadi.

Har qaysi xalq milliy kiyimlari ularning o‘ziga xos madaniyatidan boxabar qilsa, zargarlik buyumlari ham o‘sha millatning o‘tmishdagi urf-odat hamda an’analarini o‘zida aks ettiradi. Ayniqsa, o‘zbek va qoraqalpoq xalqlari madaniyatiga oid taqinchoqlar bir-birini takrorlamaydigan jihatlariga ega bo‘lib, zargarlik namunalarining noyob durdonalari qatoriga mansub, qadimdan zargarlik san’atining yirik markazlaridan biri bo‘lgan Buxoro viloyatida ishlangan buyumlar ham Toshkent zargarlik buyumlari singari shokilalarining ko‘pligi, nafisligi bilan ko‘zni yashnatadi. Ana shunday taqinchoqlarni yasashda tilla, kumush, marjon, sadaf kabi noyob va qimmatbaho toshlardan foydalanilgan.

O‘zbek xalqi kelinlari **tillaqosh, tillabargak, gajak, mohi tillo, zebigardon, nozigardon, xafaband** singari barcha turdagi taqinchoqlarni bezak o‘rnida peshonasi, chakkasi, bo‘yni va ko‘ylaklariga taqishgan. Shu bilan birga, bu taqinchoqlar ayollarni turli xil balo-qazolardan, yomon ko‘z va nazarlardan asrash vazifasini bajargan. Shunday taqinchoqlardan biri kelinlar peshonasiga taqiladigan **tillaqosh** bo‘lib, u ma’danga xuddi qosh singari shakl berish asosida yasalgan. Uning pastki qismi yaproq ko‘rinishidagi *shokila* (tovush chiqaruvchi, zargarlik buyumi)lardan iborat bo‘lib, yuqori qismi nafis naqshlar bilan bezatilgan va unga toshlar qadab chiqilgan. O‘tmishda *tillaqosh*larga har xil naqshlar berish urf bo‘lib, bunday turlar Buxoro, Samarqand, Toshkent va Qo‘qonda yasalganligini qayd qilish kerak.

Taqinchoqlardan yana biri **tillabargak** bo‘lib, u ham peshonaga taqish uchun mo‘ljallangan. *Tillabargak* bir-biriga ulangan kvadrat tangalardan iborat bo‘lib, uning yuqori qismida marjon, feruza toshlar bilan bezatilgan gulsimon tangachalar qatori joylashgan. Pastki qismini esa barg ko‘rinishidagi mayda shokilalar to‘ldirgan. Buxoro *tillabargak*lari tuzilishi jihatidan Xorazm ayollarining *manglayduzi* taqinchog‘iga juda o‘xshash. Bu taqinchoq ham peshona taqinchog‘i hisoblangan. U, asosan, turli xil ranglar yordamida sirlangan va har bir rang o‘z ahamiyatiga ega bo‘lgan. Masalan, oq rang – quyosh va birdamlik, moviy rang – ulug‘vorlik ramzi deb qaralgan. Qizil rang esa bezaklarning naqshlariga yanada ko‘rkamlik baxsh etib turgan. Ushbu taqinchoq kelinlar qalpoqlariga taqish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, XX asrning birinchi yarmiga kelib urfdan qolib ketgan. Shuni ham aytish muhimki, *manglayduzi* kumush, marjon va boshqa qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan. Demak, bejizga *tillabargak* singari zargarlik buyumlariga barg ko‘rinishidagi bezaklar bilan zeb berilmagan. Buning asosiy sababi shuki, qadim zamonlardan odamlar bargni hayot va tabiatning uyg‘onish ramzi deb tushunishgan.

Gajak zargarlik buyumlaridan biri bo‘lib, manbada qayd qilinishicha, oltin, kumush va shu kabilardan egik holda yasalib, chakkaga taqiladigan bezak buyumidir. *Suxsur olib boqmaydi, Gajagini taqmaydi. Ishlamagan dangasa, Ko‘pchilikka yoqmaydi* (Qo‘shiqlar) [1: 563].

Mohi tillo qadimgi davrlarda ayollar sallasiga taqishi uchun mo‘ljallangan. Shuningdek, yarim oy shaklidagi *mohi tillo* chakka va peshonaga ham taqib yurilgan. Bu taqinchoqda hosildorlik marosimlariga oid arxaik belgilar aks etgan.

Zebigardon va **nozigardon** nomli zeb-u ziynatlar esa ayollarning ko‘ylak yoki choponlari ustidan ko‘krakka taqiladigan taqinchoqlar hisoblangan. Ular ko‘ylakning jozibadorligini yanada orttirish uchun xizmat qilgan. Kelinlarga nikoh to‘yida, albatta, **xafaband** taqilgan. *Xafaband* (gulband) – fors tilidan o‘zlashgan bo‘lib, ayollarning bo‘yin taqinchog‘i hisoblanadi. U bo‘yinni o‘rab turadigan tasma hamda marjon, shuningdek, turli shakldagi nozik munchoqlardan terib yaratiladigan to‘rsimon shokilali tuzilishga ega. Ko‘krakkacha tushib turadigan shokilalar trapetsiya va boshqa shakllarda bo‘lib, gullari ramziy ma’nodagi shox, uchburchak, romb va handasiy naqshlardan tarkib topgan. “Gulband” atamasi *“yovuz ruh va band”* degan ma’noni anglatib, u yomonlik, yovuzliklardan saqlovchi tumor vazifasini bajargan. Ammo vaqt o‘tishi bilan bu so‘zning ma’nosida o‘zgarish yuz bergan.

Qoraqalpoq zargarlik san’ati ham o‘zining betakror uslubi, hashamati, simmetrik shakl-u shamoyili bilan qardosh xalqlar zargarchiligidan alohida ajralib turadi. Zargarlar o‘z mahsulotlari uchun oltin, kumush, bronza, feruza hamda marjonlardan, shuningdek, yirtqich hayvon, qushlarning tirnoq va qoziq tishlaridan foydalanishgan. Avvalo, barcha zargarlik buyumlari insonlarni yovuzliklardan asrovchi va baxtga eltuvchi tumorlar hisoblangan.

Qoraqalpoq naqshlari va bezaklari juda qadimiy bo‘lib, ularning vujudga kelishi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Ular ibodat ramzlari va totemlarni o‘zida aks ettirgan. Xususan, **túyme** – ko‘krakka taqiladigan, bezaklarga qo‘shiladigan zargarlik buyumi bo‘lib, uning *jumalaq túyme, baqa túyme (jalpaq túyme)* va *shar túyme* singari turlari bo‘lgan. *Jumalaq túyme* “ilon izi” nomli belbog‘ naqshli, unga yarim tuxum shaklidagi bezaklar tushirilgan bo‘lib, uning ikki xil vazifasi bo‘lgan. Birinchisi, ko‘ylakning bezagi sanalsa, ikkinchisi, ko‘ylak yoqasini mustahkamlash uchun *jumalaq túyme* qadalgan. Ular asosan kumushdan ishlangan. *Baqa* yoki *jalpaq túyme*larning shakli qurbaqanikiga o‘xshash bo‘lib, o‘rta qismida qimmatbaho tosh qo‘yilgan va ba’zilarida shokilalar ham kuzatilgan. *Shar túyme*da xoch shaklidagi ega quyosh va olov ramzlari tushirilgan bo‘lib, u toshlar bilan bezatilgan katta ko‘ndalang shaklga ega ko‘krak bezagi hisoblangan.

Qoraqalpoq zargarlik buyumlarining eng mashhur taqinchoqlaridan biri **háykel** sanaladi. Manbada keltirilishicha, bu taqinchoq asosan tumorning ilk shakllangan bosqichi bo‘lgani ehtimoldan xoli emas. Chunki *háykel* juda jozibador va chiroyli bo‘lishi bilan birga unda Qur’on suralari ham saqlangan [2: 122]. “*Háykel”* nomi qoraqalpoq millati ajdodlarining qadimgi davrlardagi e’tiqodi va totemidan kelib chiqqan bo‘lib, shoxi tepaga qayrilgan buqa va shoxi pastga qayrilgan qo‘y tasvirlari tushirilgan taqinchoq turi hisoblangan. O‘sha davrda kuchli buqa va serpusht qo‘yning shoxi yovuz kuchlardan asrovchi xususiyatga ega, degan munosabatda *“oy buqasi”* hamda *“quyosh qo‘yi”* ramzlari sifatida ko‘rilgan. Bu taqinchoq kelin sepining asosiy zargarlik buyumi hisoblangan. Shuning uchun ham yangi kelinlar farzand ko‘rishgacha bo‘lgan davr mobaynida uni tumor kabi taqib yurishgan.

Qoraqalpoqlarda zargarlikning yana bir noyob namunalaridan biri bu – **tumar** yoki **tumarsha**dir. Tumar: 1. Ko‘z tegmasligi uchun ichiga diniy arbobning yozib bergan duosini solib qo‘yishga mo‘ljallangan, mis, kumushdan yumaloq etib ishlangan yoki uch qirrali shaklda mato, gazlamadan tikilib, kiyimning biror joyiga tikib, taqib yuriladigan narsa. 2. Xotin-qizlarning kiyimi ustidan bo‘yniga yoki yelkasiga osib, qo‘ltiqqa tushirib yuradigan buyumi [3: 354–355]. Afsonalarga qaraganda, *tumar* – oddiy kovak g‘ilof bo‘lib, uning ichida qadimdan “yovuzlik kuchlaridan asrovchi” igna saqlangan. Hududga Islom dini kirib kelganidan so‘ng, ignaning o‘rnini qog‘ozga yozilgan duo egallagan. Bundan tashqari, qoraqalpoq zargarlik buyumlari orasida **burun sirg‘a, baldoqli sirg‘a, uzuk** hamda **bilaguzuklar** ham bo‘lib, ular qardosh xalqlar zargarlik buyumlaridan o‘zining yasalish uslubi va toshlardan foydalanish xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi.

“Qoraqalpoqlarda **árebek –** burunga taqiladigan sirg‘a. U kumush simdan yumaloq shaklda yasalgan bo‘lib, tashqi tomoniga ko‘k rangli, feruza tusga ega mayda-mayda toshlar terib chiqilgan. Kumush tarkibiga ozroq miqdorda oltin ham qo‘shilgan. Odatda, u burunning o‘ng tomoniga taqishga mo‘ljallangan. Burun nozik a’zo bo‘lganligi sababli *árebek* yengil qilib ishlangan bo‘lishi shart” [2: 121]. Shuni ham ta’kidlash muhimki, “Qoraqalpoq ayol-qizlari taqinchoqlarni yoshiga qarab taqishga odatlanishgan. Jumladan, 12–13 yoshdagi qizlar *háykel, bo‘yin tumor, ilgak* taqishgan. Balog‘at yoshiga to‘lgan qizlar ham *háykel,* shuningdek, *jumalaq túyme, shar túyme* taqishni o‘zlari uchun farz deb bilishgan” [2: 121].

O‘tmishda shakllanib, asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan muayyan xalq milliy-madaniyati qaror topishi uchun ularning turmush tarzi, liboslari, zargarlik yoki boshqa buyumlari muhim rol o‘ynagan. Asosan o‘zbek va qoraqalpoq xalqlari milliy kiyimlari va zargarlik buyumlari xususida so‘z borar ekan, ular birdaniga yaratilmaganligini ta’kidlash kerak. Ularning yuzaga kelishi, millat madaniyatining ajralmas bir qismi sifatida lisonda ergashib yurishi uchun asrlar o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Demak, har ikki xalqning faqat o‘z milliy-madaniyatigagina xos bo‘lgan qadimiy milliy liboslari va zargarlik buyumlari mavjud. Ular quyidagi omillar asosida vujudga kelganligini ko‘rsatish mumkin: 1) har qaysi xalqning muayyan hududda istiqomat qilganligi; 2) yashagan muhitidagi iqlim sharoiti; 3) diniy e’tiqodlari nuqtayi nazaridan insonlarning olam to‘g‘risidagi tasavvurlari.

Xulosa shuki, realiyalar, bir tomondan, har qanday xalq milliy madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan guvohlik berib, o‘sha millat mentaliteti darajasining ko‘rsatkichi hisoblansa, ikkinchi tomondan, uzoq yillik madaniyatlararo ta’sir natijasida o‘zgacha husn-u tarovat, ko‘rinish kasb eta oladigan darajadagi lingvokulturologik birliklar hisoblanadi. Realiyalarni qardosh tillar va ularning madaniyatlararo hamkorligi asosida o‘rganish har ikki millat lisoni va madaniyati o‘rtasidagi farqlarni aniq ko‘rsatib berish barobarida madaniyatlararo muloqot jarayonidagi har xil to‘siqlarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o‘zbek va qoraqalpoq tillarini o‘rgatishdagi samaradorlikni oshirish uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 3-jild. – Toshkent: O‘zME, 2006–2008.
2. Мамбетов К. Қарақалпақлардың этнографиялық тарийхы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1995.
3. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. 4-том. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1992.

Baurjan SAYFULLAYEV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

BADIIY ADABIYOTDAGI DIALEKTAL ZONALARDA KONTAKTOLOGIYA MASALASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada lingvistik kontaktologiyaning ba’zi nazariy va amaliy masalalari to‘g‘risida fikr yuritiladi.
Kalit so‘zlar: areal lingvistika, lingvistik kontaktologiya, kontakt lingvistikasi, tillar ta’siri, “til va shevalar ittifoqi”, so‘z o‘zlashtirish, “lingvistik gegemoniya”.
Annotation. This article discusses some theoretical and practical issues of linguistic contactology.
Keywords: areal linguistics, linguistic contactology, contact linguistics, influence of languages, “language-dialect union”, word formation, “language hegemony”.
Аннотация. В данной статье рассматриваются некоторые теоретические и практические вопросы лингвистической контактологии.
Ключевые слова: ареальная лингвистика, лингвистическая контактология, контактная лингвистика, влияние языков, “языково-диалектный союз”, словообразование, “языковая гегемония”.

Dunyoda hech bir til va sheva yo‘qki, u boshqa tillar va shevalar bilan aloqada bo‘lmasin. Bunday aloqalar obyektiv reallik bo‘lib, u jamiyatda til va shevalarning amaldagi faoliyatini bildiradi. Tilshunoslikda tillar (shevalar) orasidagi bunday munosabatlar doimiy ravishda ilmiy tadqiqotlarga asos bo‘lib kelgan va hamon bu muammo kun tartibidan olinmagan. Bu masala areal lingvistikada yangi mazmunga ega bo‘ldiki, u bilan maxsus bo‘lim – kontaktologiya shug‘ullanmoqda, ya’ni aloqadagi til va shevalar kontaktologiya bo‘limida o‘rganiladi. Fanda lingvistik kontaktologiyaning turli talqinlari bor. Bu muammo *kontakt lingvistikasi* obyekti hisoblanadi. Kontakt lingvistikasi yoki lingvistik kontaktologiya ham areal lingvistika, ham umumiy tilshunoslikning obyekti bo‘lib kelmoqda. Shundan umumiy tilshunoslik asosan til kontaktlari bilan shug‘ullansa, areal lingvistika, yuqorida ta’kidlanganidek, har ikkala lingvistik hodisani tadqiq qiladi.

Ma’lumki til kontaktlari ikki va undan ortiq tillar va til ko‘rinishlarining bir-biriga ta’siri va o‘zaro ta’siri tufayli yuz beradi. Tillarning ko‘rinishlaridagi kontakt, ya’ni shevalarning boshqa til shevalari bilan kontaktga kirishishlari tillar aralashgan va tutashgan hududlarda yuz beradi. Til kontaktlari “*aloqadagi tillar”* tushunchasi bilan ham yuritiladi.

Ikki turli yoki dialekt vakillari bir-biri bilan so‘zlashganda yoki yozishganda til kontakti sodir bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, ikki yoki undan ortiq til kollektivi orasida vujudga keladigan nutqiy aloqa til kontaktidir. Masalan, o‘zbeklar bilan qozoqlar, asosan O‘zbekistondagi bu ikki xalq bir-biri bilan so‘zlashganda, ya’ni kontaktga kirishganda o‘zbek-qozoq til kontakti sodir bo‘ladi. Kontaktga kirishganda qo‘llangan til “kontakt tili” deb ataladi. Mazkur holda o‘zbek bilan qozoq o‘zbek tilida so‘zlashganda, kontakt tili o‘zbek tili bo‘ladi. Agar ular qozoq tilida so‘zlashsalar, kontakt tili qozoq tili bo‘ladi. Ammo ular rus tilida ham so‘zlashishlari mumkin. Bu holda rus tili kontakt vositasi sifatida qo‘llangan uchinchi til bo‘lib, bu “vositachi til” deb ataladi.

Qozoq tilining har jihatdan o‘zbek tiliga ta’siri bo‘lganidek, o‘zbek tilining ham qozoq tiliga, binobarin, O‘zbekistondagi qozoq millati vakillari tiliga fonetik, leksik-semantik, morfologik, sintaktik va stilistik ta’siri seziladi.

Ushbu maqolamizda mahalliy qozoq adiblari ijodi bilan bog‘liq masalalar yoritiladi. Mahalliy adiblar ijodini tahlil qilar ekanmiz, ishni dastavval ijodidagi umumiylikdan, she’riyatga qo‘shgan hissasidan boshlashni oldimizga maqsad qilib qo‘ydik.

Kontaktologiya masalasining badiiy adabiyotdagi xususiyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, aralash badiiy ikki tillilik ikki turdagi yozma adabiy kontaktlarni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladi, ya’ni o‘zbek-qozoq va qozoq-o‘zbek. O‘zbek-qozoq tillari aloqalarini amalga oshirish jarayonida yozuvchilar, jamoat arboblarining individual, keyin esa ommaviy faoliyati, yozma adabiy aloqalar jarayonida o‘zbek tilining qozoq tiliga yaqinlashishi kuzatiladi. Shuningdek, so‘zlar lug‘at grammatik darajalarida ikki xil grammatik tizimning yaqinlashishiga hissa qo‘shadigan o‘zlashtirilgan grammatik shakli hisoblanadi.

Qozoq-o‘zbek tillari kontaktlari jarayonida, o‘z navbatida, qozoq tilining o‘zbek tiliga yaqinlashishi kuzatiladi. Qozoq tilini o‘zbek tiliga o‘xshatishda bir xil so‘zlarning (o‘zbek tilidagi asli va qozoq tilidan o‘zlashtirilgan) har ikki tilda bir xil tushunchalarni, predmetlarni bildirishda, bir xil so‘z yordamida yangi so‘zlarning yasalishida namoyon bo‘ladi.

Fanda lingvistik kontaktologiyaning so‘z o‘zlashtirish, o‘zaro ta’sir, boshqa til funksiyasining qabul qilinishi, lingvistik gegemoniya, “til ittifoqi” kabi shakllari bor. Ular quyidagi mazmunga ega:

– *so‘z o‘zlashtirish*. Bu hodisa bevosita aloqada bo‘lgan tillar va shevalarda namoyon bo‘ladi, shuningdek, aloqada bo‘lmagan tillardan ham yuz beradi.

Ma’lumki, o‘zbek tilining so‘z o‘zlashtirish manbalari talaygina. Ularga rus, tojik, shuningdek, ingliz va arab tillarini kiritish mumkin, qadimda fors, xitoy, grek tillaridan ham so‘z olingan va ular hozirgi o‘zbek tilida tub so‘zlarimiz kabi qo‘llanmoqda. Hozirgi davrda rus va tojik tili bevosita aloqadagi til hisoblansa, ingliz tilining xalqaro til, arab tilining esa dinimiz tili va ma’rifat tili sifatida o‘rni bor. Bu tillardan o‘zbek tiliga so‘z o‘zlashtirish turli darajada davom etmoqda va bunday o‘zlashtirishning o‘z qonuniyatlari borki, u bilan har bir millatning o‘z tilshunosligi shug‘ullanadi. Har bir tilga, shu jumladan, o‘zbek tiliga kontaktdagi tillardan so‘z o‘zlashtirish bu tilni qarindosh tillardan birining boshqasiga nisbatan ayrim farqli xususiyatini keltirib chiqaradi.

Shuningdek, adabiy tilga so‘z o‘zlashtirish va shevalarda so‘z o‘zlashtirish tarzi bir xil emas, ya’ni adabiy tilga u yoki bu tildan so‘z o‘zlashganda manba tildagi adabiy shakli o‘zlashadi, bunda u tilning orfografik va orfoepik me’yorlari saqlanadi, masalan, rus tili orqali o‘zlashgan *motor* so‘zining rus tilidagi shunday me’yorlari saqlanadi, lekin u singarmonizmli shevalarda *mātär, mātur* va boshqa talaffuzlarga ega bo‘ladi, demak, aksariyat o‘zlashgan so‘zlar shevalarda qayta “ishlov”dan o‘tadi;

– o‘*zaro ta’sir.* Bunda tillar bir tomonlama emas, balki ikki tomonlama ta’sir etadi. Ma’lumki, o‘zbek tili, uning shevalari turkiy va turkiy bo‘lmagan tillar bilan chegaradosh hamda bir arealdaligi jihatidan o‘zaro aloqada bo‘lib kelmoqda. Bu tillarda ko‘p asrlardan beri aloqa qilib kelinmoqda, bu esa tillarning va shu tillar shevalarining zonadagi o‘ziga xosligini ta’minlagan. Bunday zonalarda aholi ikki tilli bo‘ladi, ya’ni siyosiy jihatdan mavqeyi ustun bo‘lgan tilni va uning shevasini o‘rganish keng tarqaladi. “Qozoq dialektologiyasi” mualliflari O‘zbekiston bilan yondosh yoki O‘zbekistondagi qozoqlar tilida (shevasida) o‘zbek tilining sezilarli ta’sirini ko‘radilar, lekin unga o‘zbek tilining ta’siri deb qaramaydi, balki qozoq tili shevasiga xos xususiyat deb talqin qiladilar, jumladan, *og‘ilxona, qistama (qishlov), zingg‘ittay (o‘ta kichkina), anaqi-munaqi (unaqa-munaqa), onsha-munsha (uncha-muncha), azin-shag‘in (ozgina-chog‘likkina), askadi (oshkadi), belkurak* [1: 97–101]. Bu fikr sof dialektologik jihatdan yondashish tufayli yuzaga kelgan, lekin bunday qarashni xato deb bo‘lmaydi. Bu qarindosh til misolidagi kontaktning natijasi bo‘lsa, qarindosh bo‘lmagan til misolida Buxoro shevalariga tojik tilining sezilarli ta’sirini M.Mirzayev tadqiqotlari isbotlaydi, jumladan, u tojik tilidan yondosh o‘zbek shevalariga *resha*, *bedona, alvonj* (arg‘imchoq), *gavora* (beshik), *choygardon* (cho‘mich) kabi o‘zbek tiliga o‘zlashmagan so‘zlarning qo‘llanishini ko‘rsatadi [2: 164–167];

– *lingvistik gegemoniya*. Tillarning xalqaro tus olishi natijasida dunyoda ingliz, fransuz, nemis, portugal, rus va boshqa tillarning keng yoyila boshlashi bu tillarning funksionalligini ta’minlaydi va kontaktlarning rivojlanishiga olib keladi hamda bu tillar hatto davlat darajasiga ham ko‘tariladi, jumladan, Hindistonda ingliz tili davlat tili sifatida iste’molda bo‘lib, hozir ham uni uchinchi davlat tili sifatida qo‘llashga harakat boshlangan. Gegemon tilni xalqaro til tushunchasi bilan ham bog‘lash mumkin. Bu jihatdan ingliz tilining ustunligi ma’lum. Siyosiy jarayonlarda hukmronlik qilayotgan xalq tili dastlab gegemon til, keyin esa g‘olib til ko‘rinishiga ega bo‘ladi.

Lingvistik gegemoniyani bir qarashda shevalarga nisbatan, ya’ni adabiy tilning tayanch dialektiga nisbatan qo‘llash mumkindek tuyuladi. Bunday qarash yanglishdir, chunki tayanch dialekt va adabiy til me’yori tushunchalari korrelativ emas. Tayanch dialekt adabiy tilning muhim bo‘lgan ayrim unsurlarinigina oladi, boshqacha aytganda, u tayanch dialektning barcha xususiyatlaridan iborat bo‘lmaydi. Demak, u gegemonlik qila olmaydi, lekin tayanch dialektning ayrim xususiyatlari, qonunlari gegemonlik qilishi mumkin, jumladan, o‘zbek adabiy tilida singarmonizmni yo‘qotgan shevalar gegemonlik qiladi, lekin bir sheva ikkinchisiga gegemon bo‘la olmaydi. Adabiy til qachonki bir dialekt asosiga quriladigan bo‘lsa, shundagina sheva gegemonligi to‘g‘risida fikr yuritish mumkin;

– *g‘olib til*. Bu siyosiy harakatlar natijasi o‘laroq paydo bo‘ladi. Bunda bir til o‘rnida boshqa til aholi muomalasiga kiradi. Bunda mag‘lub til muomaladan chiqib ketadi va yo‘qolib ketishiga olib keladi. Bunday kontakt qadimgi Xorazm tilining turkiy tilga o‘tishida ko‘rinadi. Shuningdek, bunga Amerikadagi bir qator tillarning ingliz tili tomonidan siqib chiqarilishini ham keltirish mumkin.

Lingvistik kontaktning yorqin ko‘rinishlaridan biri *interferensiya*dir. Bu hodisa tillar tutashgan hududda yuz beradi. Bunda kesishuvchi ikki tilning izoglossalari aralashadi va bu zonada har ikki tilga qisman o‘xshash, aslida ulardan farq qiladigan oraliq hodisa paydo bo‘ladi. Shu jihatdan, ya’ni o‘zaro ta’sir tufayli bu zonada umumiylik bo‘ladi. Albatta, kesishuvchi tillardan biri chet til sifatida o‘rganiladigan bo‘lsa, interferensiya tilning normativ holatini to‘g‘ri ko‘rsatib bera olmaydi va til o‘rganishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Interferensiya kontakt jarayoni va natijasi sifatidagina o‘rganiladi.

Lingvistik kontakt faqat tillar tutashgan hududlardagina emas, balki turli etnik guruhlarga taalluqli bo‘lgan shevalar orasida ham yuz beradi. Uning namunasini turkiy tillardan ozarboyjon shevalari tadqiqotlarida uchratish mumkin. M.Sh.Sheraliyev ozarboyjon shevalaridan *geokchay* shevasi sharqiy va g‘arbiy shevalar, *jebrail* shevasi g‘arbiy va janubiy shevalar ta’siriga uchrab oraliq sheva bo‘lib qolganligining xabarini beradi [3: 39–40].

O‘zbek tilining qipchoq va qarluq lahjalariga oid shevalarning aralashishi masalasini Qashqadaryo shevalari misolida T.Qudratov tadqiq qilgan [4: 19–20]. Demak, *“til ittifoqi”* bir til ichida, shevalarning o‘zaro ta’siri natijasi o‘laroq, pirovard natijada, oraliq shevalarning yuzaga kelishiga olib keladi.

Janubiy Qozog‘iston qozoq shevasiga o‘zbek shevalaridan o‘zlashgan fonetik hodisalar: ***č // ш*** mosligi: čir (шыр); ***y // j*** mosligi: qayerde (қайжерде)ǯ.

O‘zbek tilining ayrim fonetik xususiyatlari saqlangan so‘zlar: iloj - *ылаж,* aslida – *äsili* (bu so‘z o‘rnida qozoq adabiy tilida *затында* so‘zi qo‘llanadi), ko‘zlari javdiragan – *жаудіреген* (qozoq tilida so‘z yo‘q, жалбарып so‘ziga sinonim), orqali – *арқалы* (аркылы), kosa – *кәсе* (кесе), tanglay – *таңлай* (таңдай).

O‘zbek tilining morfologik xususiyatlari saqlangan so‘zlar: tenglik – *теңлік* (теңдік), o‘tiribman – *отырыппын* (отырмын), aytgin – *айтқын* (айт).

O‘zbek tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlar: oshiq-ma’shuq – *ашық-машық* (есіктің топсасы), qo‘shni – *қоңсы* (көрші), tog‘a – *тағa* (нағашы), hashar – *асар* (adabiy tilda bu so‘z yo‘q) va boshqalar. Bu asarning 81-sahifasida o‘zbek tiliga o‘tgan o‘ndan ortiq so‘zlar beriladi.

Ayni o‘rinda O‘zbekiston qozoqlari shevasida O‘zbekistondagi o‘zbek shevalariga xos areal xususiyatlar aks etganki, hatto ular mahalliy qozoq adiblari asarlarida ham qo‘llanmoqda. Jumladan, Bo‘ron Qidirovning “Zaman” romanida quyidagi o‘zbekcha so‘zlarni uchratish mumkin: *жалбарынған* (yolvorgan), *кепкен* (quritilgan, bu so‘z Janubiy Qozog‘iston va Toshkent viloyatining ayrim shevalarida *keptirilgan* shaklida qo‘llaniladi), *көсек* (ko‘sak), *ана* (ana, undov so‘z), *шіпан* (shiypon), *масліхат* (maslahat), *жолкіре* (yo‘lkira), *нарқ* (narx), *мусапыр* (musofir), *жым-жырт* (jim-jit). Bu so‘zlar qozoq adabiy tilida qo‘llanmaydi, balki o‘zbekistonlik qozoqlar shevasidagina uchraydi.

Tillarning aloqasi bilan tilshunoslar qadimdan shug‘ullanib kelishgan. Jumladan, Mahmud Koshg‘ariyning til kontakti natijasida yuzaga kelgan o‘zgarishlar, xususan, **h** undoshining paydo bo‘lishi haqidagi fikri e’tiborli: “... bo‘g‘iz tovushlaridan ھ ,ح, harflari (*harf* termini *tovush* ma’nosida ham qo‘llanishda bo‘lgan) ham turkiyda yo‘qtur. ... Ammo ھ qo‘llangan hech bir so‘z yo‘q. Goho xo‘tanliklar so‘zida bu harf uchraydi, chunki u hind tilining ta’siridir. Kanjaklar tilida ham ھ harfi uchraydi deyish mumkin. Chunki bu ham turkcha emasdir” (ДЛТ 1, 1960: 49; ДЛТ 2017: 17). Turkiy va forsiy tillar kontaktologiyasi to‘g‘risida Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asaridagi fikrlar barchamizga ma’lum.

Keyingi davrda til kontaktiga bag‘ishlangan tadqiqotlar paydo bo‘la boshladi. Jumladan, K.Rahmonberdiyevning risolasida lingvistik kontaktologiya masalasi batafsil bayon qilingan [5: 81–82].

Shuni aytish lozimki, tillar kontakti tushunchasi til o‘rganish degan tishunchaga korrelativ bo‘la olmaydi hamda qaysi til bo‘lishidan qat’i nazar, o‘rganilayotgan va ta’lim berilayotgan til kontakt til deb yuritilishi to‘g‘ri bo‘lmaydi. Shu ma’noda O‘zbekistonda *ingliz tilining tarqalishi* degan tushunchadan foydalanish ham yanglishdir [6], chunki tilning tarqalishi aholi tomonidan bu tilning o‘zlashtirilishini anglatadi, bir guruh shaxslarning yoki boshqa tilning o‘rganilishi kontaktlik natijasi emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қалиев Ғ., Сарыбаев Ш. Қазақ диалектологиясы. – Алматы: Мектеп, 1967.
2. Mirzayev M. O‘zbek tilining Buxoro gruppa shevalari. – Toshkent: Fan, 1961.
3. Ширалиев М.Ш. О проблеме языка и диалекта // Вопросы диалектологии тюркских языков. – Баку: ИАН АЗССР, 1963.
4. Qudratov T. O‘zbek tilining oraliq shevalari: filol. fan. nomz. – Toshkent, 1968.
5. Rahmonberdiyev K. O‘zbek tili kontaktlari. – Toshkent: Fan, 1989.
6. Rahimov G‘.X. Ingliz tilining O‘zbekistonda tarqalishi: fil. fan. dokt. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2018.

Светлана ИМ,
доктор филологических наук, профессор Узбекского государственного университета мировых языков.

МОРФОНОЛОГИЯ И ЕДИНИЦЫ ЕЕ ОПИСАНИЯ

Впервые о морфонологии как об особой лингвистической дисциплине, имеющей свой объект изучения, заговорили в конце 20–начале 30-х годов.

Термин «морфонология» является одним из самых противоречивых в современной лингвистике. Обоснование морфонологии содержится в работе Н.С.Трубецкого. Пражская школа лингвистики пыталась выделить морфонологию как самостоятельную лингвистическую науку, уточняет ее понятийный аппарат, считая объектом изучения морфонему и альтернант.

В нее вкладывается различное значение, поэтому объем ее задач и проблем также неоднозначен. Противоречивость была свойственна морфонологии с самого начала ее возникновения. Н.С.Трубецкой видит в ней «связующее звено между морфологией и фонологией» [1, с. 116–118]. Его идеи опираются на теорию И.А.Бодуэна де Куртенэ о дивергенциях и корреляциях [2, с. 265–347].

Взгляды Н.С.Трубецкого получили развитие у членов Пражского лингвистического кружка. По мнению пражцев, морфонема – это общая идея о совокупности двух или нескольких членов альтернаций. Они пытаются выделить самостоятельные морфонологические единицы – морфонему и альтернант. «Морфонологическая альтернация. – Альтернация фонемы с а) коррелятивной фонемой или б) с дизъюнкционной фонемой, в) с группой фонем или г) с нулевой фонемой внутри одной и той же морфемы в зависимости от морфологической структуры слова… Альтернанты. Члены одной и той же альтернации. Морфонема. – Общая идея о совокупности двух или нескольких членов альтернации …» [1, с. 322]. Однако пражцы не смогли отвлечься от конкретного вида фонем, поэтому не могут решить проблему отождествления альтернаций с разным составом фонем. Отсюда различия типа *лечу – летишь* и *люблю – любишь* рассматриваются как разные альтернации.

В рамках Пражской школы морфонология так и не получила статуса самостоятельной лингвистической дисциплины, так как единицы морфонологии определялись через фонему и морфему. Практически теория Н.С.Трубецкого о пражцах продолжала оставаться фонологической теорией, что не позволило морфонологии получить статус самостоятельной лингвистической дисциплины со своими единицами. В этом заключался ее главный недостаток. По представлению Пражской школы, морфонология – промежуточная межуровневая наука, пользующаяся единицами фонологии и морфологии. В настоящее время из понимания пражцев бытует концепция, согласно которой морфонология является промежуточным небазисным уровнем, включающимся в базисный (морфологический), причем «небазисные уровни своих собственных единиц не имеют» [3, с. 83].

В настоящее время выделяется несколько морфонологических школ.

Американская дескриптивная школа морфонологии, представленная такими учеными, как Л.Блумфильд, Г.Глисон, З.Л.Харрис, отрицает статус морфонологии как самостоятельной дисциплины. Все морфонологические изменения объясняются результатами сочетаемости аффиксов. Дескриптивная школа последовательно синтагматична.

Выделяется еще одно направление американской лингвистики – школа порождающей грамматики. Доминирующей идеей теории порождающей грамматики является идея глубинных структур [4, с. 57]. Объектом исследования являются глубинные структуры и правила воплощения их в поверхностные. К глубинным структурам относятся абстрактные основы и абстрактные суффиксы с максимальным количеством признакооснов и суффиксов, которые наблюдаются в речи. Исходные, или глубинные, основы воплощаются в поверхностные при помощи различных морфонологических правил. Школа порождающей грамматики отрицает морфонологию как самостоятельную дисциплину, имеющую свой объект исследования – морфонему.

К этой школе из зарубежных лингвистов можно отнести Е.Станкевича, М.Комарека. Взгляды представителей порождающей грамматики разделяются такими лингвистами, как В.Б.Чурганова, В.Б.Смиренский.

В современном языкознании в порождающей лингвистике выделяется еще аналитическая словообразовательная школа, которая восходит к богатой традициями школе академика В.В.Виноградова и Г.О.Винокура. Для этой школы характерно признание доминации аффиксации над ударением и альтернацией. По мнению В.В.Лопатина и И.С.Улуханова, «морфонологические различия мотивирующего и мотивированного слова носят дополнительный, вспомогательный характер» [5, с. 49]. «Морфонологические явления не системны, хотя широко используются при суффиксации» [5, с. 44]. Аналогичного мнения придерживается Е.А.Земская: «Морфонологические явления сопутствуют аффиксации, но не являются определяющими при выборе аффиксов. Ударение также относится к области морфонологии. Однако в русском языке ударение не играет важной

роли в словообразовании. Чередования в русском словообразовании – морфонологическое явление, как правило, не имеющее собственного деривационного значения» [6, с. 114].

Дальнейшее развитие морфонологии привело к выделению ее в самостоятельную лингвистическую дисциплину, к обособлению от фонологии и морфологии. Эта задача решалась в рамках Московской фонологической школы (МФШ). В основе формирования представления о морфонологической единице лежит идея тождества морфемы МФШ. Правила, определяющие тождество морфемы, являются морфонологическими. В этом заключается смысл дальнейшей эволюции морфонологических взглядов.

По мнению А.А.Реформатского, в морфонологии есть свои позиции, но они не те, что в фонологии [7, с. 98–119]. Под ними понимаются условия, определяющие реализацию и функционирование каких-либо единиц, характеризующихся определенными дифференциальными признаками. Морфонологическая единица включает в себя альтернацию фонем и альтернацию ударения, характеризуется своими дифференциальными признаками, которые при описании единства слога позволяют отвлечься от конкретного вида фонем или последовательности слогов, что позволяет отнести к морфонеме слова с разным составом фонем и слогов.

Дальнейшее развитие морфонологических взглядов получило развитие в трудах В.А.Редькина, который, в отличие от Н.С.Трубецкого, трактует морфонему функционально. Такая трактовка альтернаций фонем и ударения позволяет описать корреляцию альтернантов. Имена корреляций и будут являться дифференциальными признаками морфонем. В.А.Редькин выделяет морфонологические единицы ударения и чередования фонем, что позволяет определить морфонему как единицу самостоятельной лингвистической дисциплины.

Принцип, на котором строится определение морфонологической единицы, это понятие варианта. Под вариантами понимаются такие лингвистические объекты, различия между которыми сводятся к некоторому правилу. Обоснование морфонологической единицы как относительно автономного объекта языка опирается на идею иерархической организованности морфонологических объектов и строится путем определения их тождества.

Впервые понятие морфонологической единицы было сформулировано В.А.Редькиным на акцентологическом материале в виде класса правил, определяющих акцентные характеристики данного класса словоформ. Класс правил – это абстракция некоторых отношений, полученная в результате наблюдений над фактами языка. Под классом словоформ понимаются отдельно взятое слово или класс слов [8, с. 6]. Предполагается, что именно морфонема выражает и определяет единство звукового облика слова.

К морфонологическим единицам русского языка относятся акцентная кривая и альтернационный ряд. Дифференциальные признаки морфонологических единиц выводятся из понятия нейтрализации, подробно исследованной в рамках МФШ.

Дифференциальный признак морфонологической единицы при описании единства слова в плане выражения позволяет отвлечься от конкретного вида фонем или последовательности слогов и отнести к морфонологическим единицам слова с равным составом фонем или слогов. Морфонологические единицы различаются дифференциальными признаками. Они образуются либо альтернацией фонем, либо альтернацией ударения. Дифференциальные признаки ударения различаются как имена двух корреляций: различие ударения между разными фонемами и различие ударения внутри одной морфемы.

Дифференциальные признаки альтернационного ряда, или альтернанты, рассматриваются в отвлечении от конкретного вида фонем. Морфонологическим содержанием альтернанта является набор словоформ, в которых данный альтернант употребляется. Альтернанту соответствуют некоторые классы фонем, которые являются его дифферентоидами. Так, для чередования согласных морфонологическую значимость имеет не вся совокупность дифференциальных признаков, а только четыре: вокальность, консонантность, компактность и периферийность. По указанным дифференциальным признакам фонем выделяются классы дифферентоидов (классы альтернантов) морфонологических единиц чередования [9, с. 462–485].

Таким образом, морфонология – это самостоятельная лингвистическая дисциплина, имеющая свой объект исследования – морфонему.

Литература

1. Трубецкой Н.С. Некоторые соображения относительно морфонологии // Пражский лингвистический кружок. М.: Прогресс, 1967.
2. Бодуэн де Куртенэ И.А. Опыт теории фонетических альтернаций // Избранные труды по языкознанию, т. 1. М.: Изд-во АН СССР, 1963.
3. Земская Е.А. Современный русский язык. Словообразование: учебн. пособие, изд. 9, стер. М.: Флинта, 2016.
4. Ворт Д.С. О роли абстрактных единиц в русской морфонологии // Развитие современного русского языка. М.: Наука, 1975.
5. Лопатин В.В., Улуханов И.С. Словообразование // Грамматика современного русского литературного языка. М.: Наука.
6. Макаев Э.А., Кубрякова Е.С. О статусе морфонологии и единицах ее описания // Единицы разных уровней грамматического строя языка и их взаимодействие. М.: Наука, 1969.

Xolmo‘min FAYZULLAYEV,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ADABIYOTDA INSON VA JONIVOR OBRAZLARINING PARALLELI (“DASHT-U DALALARDA” ROMANI MISOLIDA)

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda yozuvchi N.Norqobilov qalamiga mansub “Dasht-u dalalarda” romanidagi To‘lanboy va tulki Qoraquloq obrazlari tahlilga tortilgan. Yozuvchining inson va tabiat muammosini qanday badiiy pryomlar negizida poetik ifoda etgani haqida fikr va xulosalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: roman, badiiy paralellizm, inson va tabiat muammosi, obrazlar, hayvonot obrazi, syujet, epizod, detal, qahramon, nabotot, hayvonot, jamodot, badiiy xulosa, uslub.

Annotation. In this research, the images of Tolanboy and the fox Karakulok in the novel «in the fields and deserts» by the writer N. Norqabilov are analyzed. Opinions and conclusions are put forward about how the writer poetically expressed the problem of man and nature on the basis of artistic principles.

Keywords: novel, artistic parallelism, problem of man and nature, images, an image of an animal, plot, episode, detail, hero, nature, animal, character, artistic conclusion, style.

Аннотация. В данном исследовании проанализированы образы Туланбая и лисы Чёрное Ухо из романа “Дату далаларда” писателя Н. Норкобилова. Выдвинуты идеи и сделаны выводы о том, на основе каких художественных приемов писатель поэтически выразил проблему человека и природы.

Ключевые слова: роман, художественный паралеллизм, проблема человека и природы, образы, образ животного, сюжет, эпизод, деталь, герой, животный мир, общество, художественный вывод, метод.

Zamonaviy adabiyotimizning yirik yozuvchisi Normurod Norqobilovning “Dasht-u dalalarda” romanida milliy, ijtimoiy, maishiy muammolar o‘ziga xos tarzda, tabiat va inson obrazini badiiy parallellashtirish orqali tasvir etiladi. Bu jihat, ayniqsa, To‘lanboy va tulki Qoraquloq obrazlari parallelligida yaqqol namoyon bo‘ladi.

To‘lanboy va Qoraquloq obrazlariga asarning ilk jumlalaridanoq duch kelamiz. Dashtda poda boqib yurgan To‘lanboy tasodifan qopqonga ilingan Qoraquloqqa duch keladi. Shu tarzda parallel ravishda To‘lanboy va Qoraquloq obrazlari xarakteri, shunga bog‘lanishli holatda roman voqealari badiiy bayon etila boshlanadi.

To‘lanboyning chehrasi nimadandir g‘amgin. U dasht qo‘ynida yolg‘iz. Atrofida inson zoti yo‘q. Mana shu g‘amgin chehrada, qopqonga tushgan Qoraquloqni ko‘rgach, tabassum paydo bo‘ladi. Sababi Qoraquloqdek dasht ichra mashhur, tutqich bermaydigan hamda o‘ta chiroyli ko‘rinishli tulkining jo‘ngina qopqonga tushib qolgani... Dasht odami sifatida To‘lanboy uchun bu tasodifiy hodisa haqiqatan ham quvonarli. Chunki bu tulki nafaqat To‘lanboyga o‘xshagan podachi, cho‘ponlarni, balki unga anchadan beri havaslanib ko‘z tikib yuradigan ovchilarni ham ko‘zini o‘ynatib, mahliyo etib yurardi. To‘lanboy uchun bu tasodifning yana bir quvonarli tomoni ham bor edi. Qoraquloq tushgan qopqon uning bolalikdagi jo‘rasi Ro‘ziqulniki. Ro‘ziqul havaskor ovchi. To‘lagan qopqon egasini darhol taniydi: “Bugun yo qopqon egasi Ro‘ziqulning omadi chopgan, yo Qoraquloqni ajal boshlab kelgan bu yerga? Nimaga deganda, Ro‘ziqul jo‘rasi esini taniganidan beri ovchilik bilan shug‘ullanib kelayotgan esa-da, hali-hanuzgacha qopqonni eplab qo‘ya bilmaydi” [1: 4], deb o‘ylaydi bu haqda qopqonga duch kelgan To‘lanboy. U mudom To‘lanboydan berkitib dasht jonivorlariga qopqon qo‘yadi. Ammo har safar bu qopqonlarga To‘lanboy duch keladi. Duch kelgan joyida qopqonni olib ketadi. Go‘yoki “topib berilgan” qopqon evaziga Ro‘ziqulni ziyofatga tushiradi. Uning g‘amgin yuziga tabassum yugurishining bir sababi ham shu edi.

Shu tarzda assotsiativ holatda roman voqealari bir-biriga ulanib ketadi. To‘lagan qanchalik polvon kelbatlik, alpqomat, kuchli bo‘lsa, Ro‘ziqul shunchalik mujmariq, kuchsiz. Ammo bu farq ular o‘rtasidagi do‘stlikka to‘siq bo‘la olmaydi. Chunki Ro‘ziqul do‘stlik to‘rini mustahkam tutadigan, har-har zamonda dashtda dilgir yuradigan do‘stining ko‘nglini ko‘tarish, dardini eshitishni yodidan chiqarmaydigan yigit. Kerak paytda (ayniqsa, ichib boshlari qiziganda) Ro‘ziqul To‘lanboyga istagan gapini ayta oladi. Uning kelbati, polvonligini unutadi. Unga hech kim aytishga jur’at qilolmagan bir so‘zni aytadi: “E, Pastux!” Ro‘ziqul bu so‘z To‘laganning jon joyiga borib tegishini yaxshi biladi. Chunki qochonlardir shu kelbati bilan shahardan kelgan chiroyli talaba qizga asir bo‘lib qolgan To‘lagan “birinchi muhabbati”ning chiroyli va bejirim lablaridan mayinlik bilan so‘ralgan shu so‘zni eshitgan edi: “Pastuxmisiz?” Oqibat birinchi muhabbat chechagi ochilmasdan turib so‘ladi. Bu gapdan qishloqda faqat Ro‘ziqul xabardor edi. Shuning uchun kayfi oshgan kezlarda To‘lanboyning o‘rligi-yu zo‘rligidan ichida yig‘ilib qolgan alamini shu tarzda chiqarib yuborar edi.

N.Norqobilovning badiiy mahorati va xarakterlarni chizishdagi o‘ziga xosligi shunda ko‘rinadiki, u ikki do‘st o‘rtasidagi hamishagi hazil-huzul vositasida bosh qahramon To‘lanboy o‘tmishiga urg‘u beradi. Uning polvon kelbat bo‘lsa ham, ko‘ngli juda nozik ekani, bir noo‘rin so‘z tufayli birinchi muhabbatini qurbon qilganini o‘quvchiga sezdirmaygina yetkazadi. To‘lanboy shu tarixga ishora qilgani uchun Ro‘ziqulni go‘yo majaqlab tashlamoqchi bo‘ladi. Ammo yozuvchi shu epizod orqali ham To‘lanboy xarakterining yana bir nozik qirrasini ochadi: “Ro‘ziqul hazil yo‘sinda yuqoridagi savolni beradi: “Agar shunda tutib olsang, nima qilardi – a, jo‘rajon?» To‘lanboy, og‘zi to‘la taom, javobga oshiqmaydi. Qarshisida hozircha mo‘mingina bo‘lib o‘tirgan jo‘rasiga ko‘z qirini tashlarkan, o‘shanda tutib olsam, nima qilardim – a deya o‘ylaydi. *Ro‘ziqulning bir tayoqlik-da holi yo‘qligini go‘yo endi payqayotganday, unga bot boshdan-oyoq razm solarkan, o‘shanda quvib yetolmaganidan ichida quvonib qo‘yadi” [1: 9].*

Shu tariqa yozuvchi odamlar hayvonot (Qoraquloqning qopqonga tushishi) bilan bog‘liq voqealarni insonlarga, inson bilan bog‘liq holat va hodisalarni hayvonot va tabiatga izchil tarzda bog‘lab yuboradi. Masalan, Ro‘ziqulning qopqoniga tushgan tulki dashtdagi eng kuchli, eng chiroyli, eng mashhur jonivor. To‘lanboy esa qishlog‘idagi eng mashhur odam. Chunki uning polvonligi, kurashlari, mushtlashuvlari, Oygulga uylanishi bilan bog‘liq o‘ziga xos hodisalar el ichida doston.

Shuning uchun Qoraquloqqa Ro‘ziqul emas, To‘lanboy eng munosib raqib. To‘lanboy Qoraquloqqa nisbatan oshkora bo‘lmasa ham botin-botinida pinhona hasad sezadi. Hatto shundayki, bu hasadini o‘zi ham sezmaydi, sezganda ham tan olgisi kelmaydi. To‘lanboyning bu holati ham shunchaki aytish, qayd etish bilan emas, yozuvchi tomonidan nozik psixologik tasvir bilan beriladi. Tulkini qopqonda ko‘rgan To‘lanboy istehzoli tabassum bilangina cheklanib qolmaydi. Qoraquloqning bu muteligi uning yuragidagi vahshiyona bir tuyg‘uga erkinlik beradi. Uning ko‘nglida tulkini azoblash istagiga o‘xshash bir betayin istak paydo bo‘ladi.

Romanning dastlabki jumlasi ham tulki obrazi bilan bog‘liq holda shunday boshlanadi: *“To‘lanboy podani kungay betga yoyib, o‘zi tund va hafsalasiz bir qiyofada, oshiqmay, quyoshga ters tepalikka ko‘tarilarkan, to‘satdan nigohi yonbag‘irlikda, qurigan siyrak tikanaklar orasida jon talvasasida talpinib, o‘zini har yon urayotgan kattakon mallarang tulki – Qoraquloqqa tushib, beixtiyor to‘xtadi”* [1: 3]. Tasvirda aks etgan To‘lanboyning “tund”, “hafsalasiz” holati arzimas sabab va yot kishilarning aralashuvi bois xotinining ketib qolishi bilan bog‘liq. Shu tariqa To‘lanboy hayotidagi voqea Qoraquloq qismatidagi tutqunlik voqeasi bilan bog‘lanadi, ya’ni Qoraquloq qopqonda, To‘lanboy dashtda tutqin va yolg‘iz. Romanda tasvirlanishicha, Qoraquloq dashtdagi eng dadil, ustamon, ayyor va chiroyli, kelishgan tulki. U dasht qonun-qoidalarini mukammal o‘zlashtirgan. Qoraquloq uchun tabiat stixiyalari, o‘zidan kuchliroq vahshiylardan kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatar, ov qilish va oila boqish mashaqqati, hatto Ro‘ziqulga o‘xshagan ochko‘z ovchilar qo‘yadigan tuzoq ham hech gap emas. Bir so‘z bilan aytganimizda, Qoraquloq – havas qilishga arziydigan, ko‘rganning ko‘zini o‘ynatadigan tulki. Shuning uchun ilkis tuzoqqa ilingan Qoraquloqni payqagan To‘lanboy hayratga tushadi: *“Ko‘zlariga ishonmaganday, unga bir muddat tikilib qoldi. So‘ng g‘amnok chehrasiga tabassumga o‘xshash g‘alati bir ifoda qalqib, beliga ko‘ndalang tutgan tayog‘ini shoshqaloqlik bilan avval chap, keyin o‘ng qo‘liga oldi. Biroq o‘ljasi tomon endigina intilgan yerida, bu qadar hovliqishi o‘ziga erish tuyulib, darrov shashtidan qaytdi” [1: 3].*

Dasht qo‘ynida yolg‘izlikdan “g‘amnok” yurgan To‘lanboy uchun Qoraquloqning qopqonga tushgani ayni muddao edi. Chunki qopqonga jo‘ngina tushib qolgan ayyor Qoraquloq xotini, bola-chaqasini sog‘inib iztirob chekayotgan To‘lanboyga yaxshigina ermak edi. U Qoraquloqni oldindan bilar, kuzatib yurar, hatto uning tutqich bermasligi, erki va dadilligidan biroz g‘ashlanar ham edi. Shu bois bu tasodifdan ko‘ngli biroz yorishgandek bo‘ladi. Ikkinchisi, To‘lanboy yuragining tub-tubida doimo yovuzlikka o‘xshagan bir nima pisib yurar edi. Qachonlardir tirik tulkining terisini shilib olib otasidan kaltak yeyishining sababi ham shunda. Ovloqda, buning ustiga, bandilikdagi Qoraquloq undagi mana shunday yovuzlik tuyg‘usini alangalatadi. Xayolida uni qiynab rohatlanish istagi bosh ko‘taradi.

Ermak o‘tkinchi bir ish. U tezda odamning me’dasiga tegadi. Ro‘ziqul beradigan ziyofat esa hali uzoq. To‘lanboyning ko‘nglini o‘stiradigan narsa tutqun Qoraquloqni qiynash va bunday barcha alamlariga javob topish bo‘ladi. Romanda inson va tabiat muammosining aks etishi va uning naturalistik tasviri shu joyda yorqin ko‘rinadi, aniq bilinadi. Mana shu joyda jamiyatdagi eng mashhur va eng kuchli odam – To‘lanboy bilan dashtdagi eng ayyor eng chiroyli, eng chaqqon tulki – Qoraquloq o‘rtasida ayovsiz kurash ketadi. Psixoanalitik Zigmund Freyd To‘lanboyda yuz berganga o‘xshash holatni “sadizm” deb atagan ekan [2]. Adabiyotshunos Uzoq Jo‘raqulov bu tushunchaga quyidagicha izoh beradi: “Psixoanalizga doir lug‘atlarda “sadist” birovni azoblab rohatlanuvchi odamni bildiradi” [3: 57]. Qizig‘i shundaki, roman muallifi bilibmi-bilmaymi o‘z qahramoni To‘lanboydagi sadizm holatini tasvirlaydi. Bu holat esa aynan To‘lanboy va Qoraquloq o‘rtasida kechgan epizodlarda aniq ko‘rinadi. Mana bu tasvirga e’tibor qarataylik: *“Seni nima qilsam ekan, deganday o‘ng oldingi panjasini qopqon tishlari orasidan sug‘urmoqqa behuda urinayotgan jonivorga loqayd ko‘z tashlarkan, o‘sha tanish tiyiqsiz tuyg‘u – shafqatsizlik girdobida guvranayotganini his etib, o‘zini bir odim ortga oldi. Jonivorga rahm qilib emas, shunchaki unga tez o‘limni ravo ko‘rmagani bois, chekindi. U tulkini erkalab va ermaklab o‘ldirishni istardi”*[4: 9].

Jo‘n bir odam qopqonga oyog‘idan ilinib, jon holatda bolalari oldiga talpinayotgan jonivorni ko‘rganda rahmi kelishi, hattoki yig‘lab yuborishi ham aniq. Azob tortayotgan begunoh bir jonivorga hech kimsa loqayd qarashi mumkin emas. Ammo To‘lanboy loqayd qarashga qodir. Qodirgina emas, tulkining ayanchli holati uning yuragida uxlab yotgan yovuz tuyg‘usini uyg‘otib yuboradi. “O‘sha tanish tiyiqsiz tuyg‘u” deganda yozuvchi xuddi To‘lanboyda singgib ketgan yovuzlik istagini nazarda tutadi. Bu yovuz tuyg‘udan To‘lanboy uyalmaydi ham. Shunchaki o‘sha tuyg‘usini obdon qondirishni maqsad qiladi. Shuning uchun ham u “tulkini erkalab va ermaklab o‘ldirmoqchi edi”.

Roman To‘lanboy polvon hayotida ro‘y bergan bir voqea asosiga qurilgan. Asardagi boshqa barcha obrazlar, otasi Eshqul polvon, onasi Oybarchin, tog‘asi Haydar, ayoli Oygul, do‘sti Ro‘ziqul ovchi va boshqa epizodik obrazlar va detallar shu kichik voqea atrofida birlashadi. Boshida bu voqea unchalik arzirli voqea bo‘lib tuyulmaydi. Bor-yo‘g‘i oilada doimiy bo‘lib turadigan bir jo‘n mojaroga o‘xshaydi. Oilaviy mojaro tufayli Oygul bolalarini olib ketib qoladi. Roman To‘lanboyning xotini ketib qolgandan keyingi holatini tasvirlash bilan boshlanadi. Qolgan voqealarga To‘lanboyning o‘y-xayollari vositasida qaytiladi. Yana bir muhim jihat shundaki, roman syujetining asosida turgan To‘lanboy oilasiga doir bu voqea asardagi ro‘zg‘or, xonadon, muhabbat tarixi singari markaziy liniyani tashkil etmaydi. Chunki romanga xos bu kabi muhim o‘rinda poetik nuqtayi nazardan To‘lanboy oilasi yoki unga xos muhabbat tarixi batafsil hikoya qilinmaydi. Ro‘zg‘or, xonadon, muhabbat tarixi o‘ziga xos lirizm va romantika bilan qahramonning otasi Eshqul polvon hayot yo‘liga bog‘lanadi.

Xullas, asar bosh qahramoni To‘lanboy esa go‘yoki dasht va undagi voqea-hodisalar, jonivorlar, tosh-u tuproqlar tasvirini berish uchun tanlangan bir badiiy vositaga o‘xshaydi. Shunday tushunilganda roman syujet maydonining asosiy qismini odamlar obrazi emas, tabiat, nabotot, jamodot egallagani ma’lum bo‘ladi. Qoraquloq obrazi esa shu maydon markazini egallaydi. Romanning boshidan oxirigacha To‘lanboy obrazi bilan parallel holatda tasvirlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Norqobilov N. Dasht-u dalalarda. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009.
2. Фрейд З. “Я” и “оно”. – Тбилиси: Мерани, 1991. – С. 409
3. Jo‘raqulov U. Hududsiz jilva. – Toshkent: Fan, 2006.

Dildora TURG‘UNOVA,
Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

HAYVON XATTI-HARAKATI ISHTIROK ETGAN MAQOLLARNING LINGVOMENTAL XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqola o‘zbek tilida qo‘llaniluvchi zoonim komponentli lingvomadaniy birliklar, xususan, hayvonlar xatti-harakati ishtirok etgan maqollar haqida bo‘lib, unda so‘nggi yillarda zoonim tarkibli lingvokulturemalar faol o‘rganilayotgani, bu kabi tadqiqotlarda esa zoonimning xatti-harakati ishtirok etgan maqollar nazardan chetda qolayotgani haqida ma’lumot beriladi.
Kalit so‘zlar: barqaror birliklarda lingvomadaniy xususiyat, kognitiv faoliyat, konsept, kommunikativ pragmatik xususiyat, zoomorf kod.
Annotation. The article discusses linguocultural units with a zoonymic component used in the Uzbek language, in particular, proverbs associated with animal behavior, provides information about the active study in recent years of linguoculturemes containing zoonyms, and that such studies ignore proverbs associated with behavior of zoonyms.
Keywords: linguocultural feature in stable units, cognitive activity, concept, communicative-pragmatic feature, zoomorphic code.
Аннотация. В статье рассматриваются лингвокультурные единицы с зоонимическим компонентом, используемые в узбекском языке, в частности, пословицы, связанные с поведением животных, приводятся сведения об активном изучении в последние годы лингвокультурем, содержащих зоонимы, и о том, что в таких исследованиях игнорируются пословицы, связанные с поведением зоонимов.
Ключевые слова: лингвокультурный признак в устойчивых единицах, познавательная деятельность, концепт, коммуникативно-прагматический признак, зооморфный код.

O‘zbek tilidagi ibora, maqol va matallar qadriyat sanalib, ularda xalq tarixi bilan bog‘liq motivlar, milliy koloritni ifodalovchi unsurlar ifodalanadi. Tildagi turg‘un birliklar, quyma jumlalar xalqning turmush tarzi asosida yaratiladi va unda inson kuzatuvidagi narsa, predmet yoki odatiy, tabiiy harakatni ifodalovchi so‘zlar faol qo‘llanadi. Maqollar tilshunoslikning o‘rganish obyekti sifatida turli yo‘nalishlarda tadqiq etilib, turli ilmiy ta’riflar bilan ifodalanadi. Jumladan, maqol (arabcha maqola, kichik asar; so‘z, nutq) hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihat mazmuniga ega bo‘lgan ixcham, obrazli, tugal ma’noli va hikmatli ibora, gap [1: 569]. “Maqol – chuqur ma’noli, tuzilishi gapga teng, alohida ritmik-melodik belgi-xususiyatlarga ega bo‘lgan folklor janri. Maqollarda xalqning ko‘p yillik tajribalari, hodisalarga bergan bahosi aks etadi” [2: 54].

O‘zbek tilida qadimdan boshlab to hozirgi kungacha nafaqat hayvonlar, balki ularning harakati va holati ham til egasi bo‘lgan etnos ongida keng obrazli tasavvur imkoniyatiga ega. Bu xususiyat, ayniqsa, o‘zbek xalq maqollarida yaqqol aks etib, o‘zida etnos tabiatidan so‘z ochadi. Shuni alohida e’tirof etishimiz kerakki, hayvonlar xatti-harakati bilan bog‘liq tushunchalar, ularni ifodalovchi lingvistik birliklar etnos kognitiv dunyosida avvaldan mavjud bo‘lgan kompetentlik asosida shakllanadi.

O‘zbek tilida olib borilgan maqollar bo‘yicha izlanishlar natijasida maqollarning yondosh hodisalar bilan munosabati, xususan, iboralar, matallar, paremalardan farqli tomonlari ochib berildi. Intralingvistik va ekstralingvistik asosda yaratilgan maqollarning bir necha turlari aniqlangan [3]. So‘nggi yillarda esa barqaror birikmalarning lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganishga e’tibor ortib bormoqda. Bunday birliklarda til va madaniyat mushtarakligi doirasida turli xususiyatlar ifodalanishi tilshunoslar tomonidan e’tirof etilmoqda. Xususan, tilshunos olima D.Tosheva ta’biricha, “zoonim komponentli maqollarda “insonparvarlik”, “mehnatsevarlik”, “oilaparvarlik”, “vatanparvarlik”, “mehmondo‘stlik”, “hamjihatlik”, “ahillik”, “birdamlik” konseptlari ifodalanadi” [4]. Ta’kidlash joizki, olib borilgan bu kabi tadqiqot ishlarining barchasida hayvon nomlari, ya’ni zoonimlar asosida yaratilgan til birliklari o‘rganilgan. Unda asosiy e’tibor zoonim, hayvonning biologik tabiati, tashqi ko‘rinishi, hayot kechirish tarzi, maqolning yaratilishiga asos bo‘lishi e’tiborga olingan [5]. Lekin bu kabi izlanishlarda hayvonning xatti-harakatini ifodalovchi so‘zlar masalasi e’tibordan chetda qolgan.

N.Mahmudovga ko‘ra, bugungi kunda “Tilning obyektiv xususiyatlariga muvofiq ravishda antropotsentrik paradigmada inson asosiy o‘ringa chiqarildi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi” [6: 3]. Shunday ekan, inson shaxsini ko‘rsatishda uning kognitiv faoliyati muhim hisoblanadi.

Hayvonlar ham inson kognitiv dunyosida o‘zining muayyan xatti-harakatlari, boshqa mavjudotlardan farqlanib turishini ta’minlovchi holatlari bilan muhrlangan. Insoniyat uchun u yoki bu hayvonning nomidan ham ko‘ra ko‘roq harakat-holati ahamiyatli. Misol uchun, ilon va chayon zoonimidagi chaqish, tulki va bo‘ri kabi zoonimlarda ulish (uvlash), sichqon va kalamushlarda kemirish, tovuq zoonimida qaqag‘lash, ot zoonimida kishnash xususiyati zamirida albatta shunday xatti-harakat yotadi. Shunday ekan, ushbu xatti-harakatlarni tilda ifodalash uchun ehtiyoj paydo bo‘lishi tabiiy. Bu kabi ehtiyojlar natijasida til leksik zaxirasida ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan *chaqinib turgan chayondan biqinib yotgan ilon yaxshi; tulki iniga qarab ulisa, qo‘tir bo‘ladi; qaqillagan tovuq tug‘may qolmas; ishlaganning ishi bitar, kishnaganning kuni o‘tar; mol ozsa semiradi, odam ozsa kemiradi* kabi maqollar paydo bo‘lgan [7].

Shu o‘rinda zoonim komponentli maqollarning ushbu tadqiqot maqsadiga qay darajada aloqadorligini quyidagi misollarni keltirish va qiyoslash bilan izohlash mumkin:

1. Tuyani shamol uchirsa, echkini osmonda ko‘r.
2. Tuya silkinsa, eshakka yuk chiqar.
3. Cho‘qimay qarg‘a bo‘lgan, o‘qimay mulla bo‘lgan.
4. Yo‘rg‘alagan yurt oshar.

Dastlab, keltirilgan ikki maqolga e’tibor beradigan bo‘lsak, unda *tuya, echki, eshak* kabi zoonimlar qatnashgan. Ammo faqat zoonimga xos bo‘lgan, uning tabiatini ochib beruvchi harakat va holatni ifodalovchi leksemalar ishtirok etmagan bo‘lib, *ko‘rmoq, silkinmoq, chiqmoq* leksemalarining denotativ ma’nosi zoonimga tegishli emas. Keyingi ikki maqolda esa *cho‘qimoq* va *yo‘rg‘alamoq* so‘zlarining denotativ ma’nosi hayvon xatti-harakatini ifodalaydi va konnotativ ma’no ifodalash xususiyatiga ega.

O‘zbek tilida hayvon harakati ishtirok etgan maqollar sintaktik strukturasini tahlil qilish jarayonida bunday tipdagi etnolingvistik birliklar ikki xil usulda yaratilgani ma’lum bo‘ladi.

1-usul. Zoonim + harakat tipidagi maqollar. Masalan: *Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi; Ho‘kiz ishi xirmon yanchmoq.*

2-usul. Hayvonga aloqador harakat va holatni bildiruvchi leksemaning o‘zi ishtirok etgan maqollar. Masalan: *Ulug‘ning gapini olmagan uvlar; Qorong‘uda qichqirsang, qarindosh ovoz berar.*

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, tilda kognitiv bilim va lingvomadaniy qonuniyatlar asosida keyingi ikki maqol tarkibida zoonim ishtirok etmagan bo‘lsa-da, asosiy fikrni “tashuvchi”si zoonimga oid harakat ekanligi bilinadi.

Zoonim komponentli barqaror birliklarning tarkibiy qismini hosil qiluvchi xatti-harakatlar xalqning turmush tarzi asosida yaratilgan madaniy munosabatlari, dunyoqarashi, milliy-kognitiv mansubligini ifodalaydi. Bunday o‘rinlarda hayvon harakat-holatini ifodalovchi leksik birlik anglatgan ma’no xalq milliy-madaniy normalariga bog‘liq bo‘ladi.

Quyidagi matndan olingan parcha asosida hayvon harakati ishtirok etgan maqollarning inson ruhiy holatini ifodalashdagi ahamiyatini ko‘rib o‘tamiz.

*Men bir savolga hech qachon javob topolmayman. Nega bunday qilamiz? Ota-bobolarimizning biz faxrlanadigan tomonlari ham bor, lekin ko‘pgina Vatan, millat fidoyilarini pul uchun, mansab uchun sotganlar ham o‘zimizdan chiqqan. Xo‘sh nega shundaymiz? Savol javobi hamisha ochiq … **Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi,** degan maqol mutlaqo bizga tegishli emasdek. Nafaqat cho‘qiymiz, bir-birimizning ko‘zimizni o‘yib ham olamiz, achchiq haqiqat shu…* (https://www.xabar.uz).

Yuqoridagi parchada matnni yaratuvchi shaxsning *kinoya, achchiqlanish, g‘azab* kabi ruhiy holati *qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi* maqolini keltirish orqali ifoda etilmoqda. Matndan ko‘rinadiki, muallif o‘zbek tilining ta’sirchan maqolidan ustalik bilan o‘z o‘rnida foydalanish orqali matnni yaratishdan ko‘zlagan maqsadini tinglovchiga ta’sir kuchiga ega qilib yetkaza olgan. *“Nafaqat cho‘qiymiz, bir-birimizning ko‘zimizni o‘yib ham olamiz”* gapi tarkibida *cho‘qiymiz* so‘zini ko‘chma ma’noda insonga nisbatan qo‘llanishi natijasida ranjitmoq, xiyonat qilmoq, aldamoq, yomon holga solmoq kabi ma’nolarni anglashimiz mumkin.

Tahlilga tortilgan *“Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi”* maqoli ingliz madaniyatida *“Dog does not eat dog”* – “It itni yemaydi” shaklida invariantiga ega. Turk tilida esa *“Bir karga başka bir karganin gözünü gagalamaz”* yoki *“Karga karganın gözünü oymaz”* kabi shakllarda qo‘llanadi.

Aytish mumkinki, yuqoridagi o‘zbek va turk tilida qo‘llangan maqolda leksik-semantik tizim birliklari barqaror birikma ma’nosini to‘lig‘icha anglash imkonini beradi. Taqqoslang: *qarg‘a, ko‘z, cho‘qima*; turk tilida: *karga, göz, gagalama, oyma.* Chunki tillar o‘rtasidagi qarindoshlik aloqalari natijasida etnomadaniy ong bir-biriga o‘xshash madaniy bog‘lanishlarni yuzaga keltirgan. Ingliz tilida mavjud bo‘lgan yuqoridagi maqol *dog, does, not, eat,* so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, leksik xususiyatlari farqlanadi. Lekin barqaror birikma holida esa umumiy ma’nosi har uch tilda bir-biriga juda ham yaqin.

Har uch tilda ham tahlilga olingan paremiologik birlik bir ijtimoiy guruhga oid insonlarga nisbatan qo‘llanib, “xiyonat qilmaslik”, “qo‘llab-quvvatlamoq” ma’nolarini anglatish uchun xizmat qiladi. Bu xususiyat esa paremiologik birliklardagi kommunikativ-pragmativ munosabat yaqin yoki o‘xshash umumiy belgilarni ko‘rsata olishidan dalolat beradi.

Hayvon xatti-harakati ishtirok etgan maqollarda leksik-semantik tizim birliklari turli tillarda aynan bir xil lingvomental va kognitiv qadriyatlarni ifodalash xususiyatiga ega. Masalan, o‘zbek tilidagi *“It hurar – karvon o‘tar”* maqoli ingliz tilida “*Dogs bark, the caravan goes on”* variantiga ega. So‘zma-so‘z tarjima qilganimizda ham o‘zbek tilidagi muqobil variantiga to‘la mos ekanligining guvohi bo‘lamiz. Muhimi shundaki, bu maqolda hatto zoonimlar ham, ularning xatti-harakatlari ham to‘la mos keladi. Tahlilga olingan maqol har ikki etnomadaniyatida *“to‘siqsizlik”, “davomiylik”* ma’nolarini aks ettiradi. Bu kabi paremiologik birliklarda umumiy leksik-semantik tizim birliklari maqoldagi asosiy axborotni ifodalaydi.

Xullas, zoonim harakatini ifodalovchi so‘zlar ishtirok etgan ayrim maqollar ma’nosi turli etnomadaniyatlarda o‘zaro o‘xshash madaniy xususiyatlarning obrazli tasvirini yaratish uchun xizmat qila oladi. Bunda asosiy e’tibor hayvonga emas, uning *harakat-xususiyatidagi elementlarga* bog‘liq bo‘lib, bu harakatlar turli xalqlarning umumiy tasavvuri, olamni idrok qilishidagi uyg‘un jihatlar bilan bog‘liq. Bu kabi zoonim komponentli maqollarni tadqiq qilish orqali turli etnomadaniyat vakillarining madaniy o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Shuningdek, xalqlar o‘rtasidagi madaniy o‘xshashliklar va farqli xususiyatlarni kashf etishimiz ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006–2008.
2. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1985.
3. Hakimova G.E. Zoonim komponentli frazeologik birliklarning strukturaviy va semantik xususiyatlari (ingliz tili materiallari asosida): Filol. fan. nomz... diss. – Toshkent, 2008.
4. Tosheva D. Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari. Filol. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD)... diss. avtoref. – Toshkent, 2017.
5. Yuldasheva D.M. O‘zbek bolalar folklori tilida zoonimlar: Filol. fan. nomz... diss. – Toshkent, 2007.

Шахло АЛИМАРДАНОВА,
преподаватель Узбекского государственного университета мировых языков

К ВОПРОСУ О ЯЗЫКОВОМ ВАРЬИРОВАНИИ

Аннотация. В статье рассматривается явление языковой вариативности как объект различных лингвистических исследований, а также соотношение с явлением языковой дифференциации. Проблема вариативности изучалась на всех уровнях языковой системы: фонологическом, морфологическом, лексическом, синтаксическом, в результате чего были созданы различные теории лингвистической вариативности.

Ключевые слова: вариативность, вариантология, свойство, современный русский язык, вариантность, вариант, инвариант, языковая дифференциация.

Annotation. This article is devoted to the phenomenon of linguistic variability as an object of various linguistic studies, as well as the correlation with the phenomenon of language differentiation is also considered. The problem of variability was studied at all levels of the language system – phonological, morphological, lexical, syntactic – as a result of which various theories of linguistic variation have been created.

Keywords: variability, variantology, property, modern Russian language, variance, variant, invariant, language differentiation.

Языки развиваются по мере развития общества, естественным результатом которого является вариативность. В связи с этим невозможно объективно рассматривать вопрос вариативности без учёта социально-исторических условий жизни носителей языка. С другой стороны, вариативность – обязательное свойство живого литературного языка.

Явление языковой вариативности, привлекающее внимание многих языковедов, – одна из актуальных проблем современного языкознания. Лингвистическая вариативность возникает на всех уровнях языка как в синхроническом, так и в диахроническом аспекте. Понятие языковой вариативности в лингвистике понимается как «различие в воспроизведении, состоящее в изменении звукового состава или значения структурной единицы языка без утраты ее тождества» [1, с. 72]. Так, под языковой вариантностью подразумеваются специфические изменения, не приводящие к появлению совершенно нового, а, как пишет В.М.Солнцев, «предполагает и изменчивость, и постоянство, выступая как единство изменчивого и постоянного» [2, с. 32]. Языковые варианты – это «разные проявления одной и той же сущности, например, видоизменения одной и той же единицы, которая при всех изменениях остается сама собой» [3, с. 80].

Заметим, что языковое варьирование относится не только к отдельным уровням языка, но и в целом к языку. Вследствие этого сформировались отдельные лингвистические дисциплины, такие как вариалогия и вариантология. Заметим, что вариалогия шире вариантологии. В частности, первая рассматривает возможность языка варьироваться как нечто универсальное, что обеспечивает динамичность системы в широком смысле слова, вторая же понимается «как составная часть вариалогии, а именно: теория о лексических видоизменениях слова» [4] и занимается изучением результатов языкового варьирования.

Термины вариантность и вариативность как свойство языка выражать определённое значение разными средствами являются синонимами в большинстве исследований по лингвистике, в частности у В.М.Солнцева [5].

Отметим, что противопоставленность варианта и инварианта в языковой системе основывается на свойствах инварианта аккумулировать в себе свойства множества вариантов, существовать как некоторое абстрактное явление, а не отдельный объект, являться признаком сложной структурной организации и относиться только к тем лингвистическим объектам, которые обладают общими и существенными для данных объектов свойствами. Вариант предполагает существование инварианта и совмещает в себе изменчивость и в то же время устойчивость (постоянство), которые являются необходимым условием его существования.

Языковое варьирование бывает формальным, семантическим и функциональным. «Формальное варьирование – это варьирование плана выражения при неизменности плана содержания… Под семантическим варьированием понимают варьирование в плане содержания при неизменности плана выражения… Функциональное варьирование определено нами как варьирование функции при неизменности плана содержания и плана выражения» [6, с. 28].

Необходимо разграничивать некоторые смежные понятия с понятием вариативности, имея в виду формальное варьирование: вариативность – синонимия, вариативность – языковая дифференциация, вариативность – супплетивизм, а также вариативность – полисемия, вариативность – омонимия и др.

Например, варианты типа *пергамен // пергамин // пергамент, фалбала // фалбара // фалбора, сагайдак // сайдак // саадак* и словообразовательные синонимы типа *беретик // березняк, речонка // речушка* (примеры взяты с сайта http://www.textologia.ru/slovari/lingvisticheskie-terminy/dubleti/?q=486&n=571) различаются словообразовательными структурами и словообразовательными формантами, которые, как правило, вносят в слово новый оттенок значения или новую стилистическую окраску. Не менее важна проблема разграничения вариантности и языковой дифференциации. Дифференциация принципиально отличается от вариантности: она предполагает неравновесность и различие двух форм и включает явления, связанные со сферой употребления или со стилистической окраской. Например: *город* (*нейтр.*) *// град* (высок.), *сквозь // скрозь* (устар., обл.), *голова // глава* (устар.).

Другими словами, вполне целесообразно «введение понятия языковой дифференциации, противопоставленной вариантности» [7, с. 69]. Основываясь на таком понимании понятия вариантности границы данного явления становятся более отчётливыми, а количество слов, которое можно отнести к вариантам, значительно уменьшается. Иными словами, изменения

формального характера, сопровождающиеся стилистическими различиями, находящимися в пределах литературной нормы или выходящими за ее пределы, не могут быть отнесены к явлению вариантности, а должны квалифицироваться как примеры языковой дифференциации.

В современном языкознании существуют вполне чёткие положения, позволяющие относить те или иные изменения в слове к его лексическим формам: наличие общего корня, внутренних отличий при лексико-семантической общности (когда речь идет о лексико-семантических вариантах), сосуществование формальных лексических вариантов на синхронном срезе языка, функционирование их в единой языковой системе.

На основе этого можно сформулировать основные признаки формальных лексических вариантов: они имеют достаточно высокую степень воспроизводимости в устной и письменной речи, функционируют как в литературном языке (*равендук // равентук*), так и в диалектной речи (*церковь // церква* (диал.)), обладают одинаковой словообразовательной и морфологической структурой, одним и тем же грамматическим и лексическим значением.

Формальные лексические варианты рассматриваются как языковые факты на синхронном срезе языка, т.е. сосуществуют в определенный момент времени, в то же время отражая тот или иной эволюционный этап развития языковой системы. При архаичности одной из форм предполагаемых вариантов, как, например, *сторож // страж* (устар.), *голос // глас* (устар.), *берег // брег* (устар.), следует говорить о синонимии или языковой дифференциации. Языковая дифференциация допускается по признакам ‘просторечное’ *(какао // какава, хотят – хочут, печешь – пекѐшь, без пальто // без пальта),* ‘диалектное’ *(ковать // кувать, клубнИка // глубнИка // колубнИка // голубнИка // клубнИца // кулубнИца)* (примеры заимствованы из работы З.М.Богословской [8]), ‘устаревшее’ *(город // град).*

Явление вариантности рассматривается также с социолингвистической точки зрения. Выбор той или иной вариантной формы носителем языка зависит от различий социального характера (возраст, пол, образование, место рождения), а также от особенностей условий речевого общения (ситуация официального/неофициального характера).

Формальные лексические варианты являются фактами общеязыкового употребления, а не индивидуальной речи каждого отдельного человека. Их формальная и семантическая идентичность (при наличии случаев привычки или индивидуального вкуса) понятны в целом всем носителям языка. Как замечает А.Г.Шереметьева, «в этом плане обнаруживается сходство формального лексического варьирования с интерпретационно-семантическим варьированием слова в контексте. Контекстуально реализованное слово – объект, объединяющий один из элементов «общего» означаемого с конкретным вариантом из множества означающих» [7, с. 84].

Формальная лексическая вариантность представляет такое свойство языковой системы как избыточность, которая предполагает наличие повторной (многократной) передачи одной и той же информации, осуществляемой эксплицитно или имплицитно.

Существует также и понятие диахронической вариантности, которая характеризуется предельно близким расположением вариантов на временной оси. «При этом синхронные варианты как бы «наслаиваются» друг на друга, создавая зону «избыточной» формальной вариантности. Через определенное время импульс диахронической вариантности «затухает» и период сосуществования вариантов заканчивается стабилизацией одной из форм: *зал // зала // зало > зал, кофе // кофей // кофий > кофе, принцип // прынцип // принсип > принцип,* хотя возможна и повторная активизация вариантного импульса даже в той же форме: *кофе (он) // кофе (оно)»* [7, с. 86]. Формальные лексические варианты обладают высокой степенью воспроизводимости в устной и письменной речи; «обладают идентичной словообразовательной и морфологической структурой, одним и тем же грамматическим и лексическим значением; рассматриваются как языковые факты на синхронном срезе языка, отражая тот или иной эволюционный этап развития языковой системы; эквивалентны и в плане предпочтения говорящим / пишущим той или иной формы; демонстрируют такое свойство языковой системы как избыточность» [9, с. 33].

Р.Р.Атаева классифицирует формальные лексические варианты «на фонематические (*бриллиант // брильянт*), акцентные (*Аир // аИр*), лексико-морфологические (*рельс // рельса*)» [там же, с. 33].

Основным критерием разграничения языковых вариантов, с одной стороны, и синонимов, языковой дифференциации, супплетивизма – с другой является критерий сохранения тождества языкового объекта («себетождественность») [там же].

Таким образом, изменения формального характера, влекущие за собой стилистические различия, находящиеся либо не находящиеся в пределах литературной нормы, должны квалифицироваться как примеры языковой дифференциации.

Существование вариантов в системе языка не является постоянным и неизменным. Возможны изменения, в результате которых формальная вариантность трансформируется в дифференциацию или синонимию.

Литература

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М., 1966.
2. Солнцев В.М. Вариативность как всеобщее свойство языковой системы // Вопросы языкознания, 1984, №2.
3. Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. В.Н.Ярцева. М., 1990.
4. Инютина Т.С. Вариативность языковых средств в деловом письме Сибири XVII века. Дис. ... канд. филол. наук. Томск, 2009.
5. Солнцев В.М. Вариативность как общее свойство языковой системы // Вариантность как свойство языковой системы. Тез. докл., ч. 2. М.: Наука, 1982.
6. Хомутова Т.Н. Теория языковой вариативности: социолингвистический аспект // Вестник ЮУрГУ, 2005, №11.
7. Шереметьева А.Г. Лексико-грамматическая вариантность в русском языке (синхронно-диахронический аспект). Дис. … докт. филол. наук. Ташкент, 2001.
8. Богословская З.М. Соотнесённость формального и лексико-семантического варьирования в языковой системе // Вестник КемГУ, т. 1, 2013, №4.
9. Атаева Р.Р. Поливершинные словообразовательные гнёзда в русском языке. Автореф. дис. … докт. филос. по филол. наукам. Ташкент, 2020.

Kamola ULUG‘MURODOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil izlanuvchisi

MAVLONO LUTFIY VA HOFIZ XORAZMIY IJODIDA LAYLI OBRAZINING BADIIY TALQINLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada mumtoz she’riyatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan shoirlar: Mavlono Lutfiy hamda Hofiz Xorazmiy ijodida qo‘llangan Layli obrazining badiiy talqini izchil tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: Lutfiy, H.Xorazmiy, Layli, Majnun, obraz, timsol, she’riyat, mumtoz, tasavvuf, yor, oshiq.
Annotation. The article consistently analyzes the artistic interpretation of the image of Layli, used in the works of Maulana Lutfi and Hafiz Khorezmi, who made a significant contribution to the development of our classical poetry.
Keywords: Lutfi, H.Khorezmi, Layli, Majnun, image, symbol, poetry, classical, mysticism, friend, lover.
Аннотация. В данной статье последовательно анализируется художественная интерпретация образа Лейли, использованная в творчестве Мауланы Лутфи и Хафиза Хорезми, внесших значительный вклад в развитие нашей классической поэзии.
Ключевые слова: Лутфий, Х.Хорезми, Лейли, Меджнун, образ, символ, поэзия, классика, мистика, друг, возлюбленный.

O‘zbek mumtoz she’riyati rivojiga munosib hissa qo‘shgan Lutfiy Sharqda mashhur bo‘lgan shoirlardan sanalgan. Uning ijodi haqida ma’lumot beruvchi ko‘plab manbalar mavjud bo‘lib, ularning ba’zilariga murojaat qilamiz. Jumladan, “Mavlono Lutfiy lirikasining ilk tadqiqotchisi va tashviqotchisi Alisher Navoiy bo‘lib, uning shoir haqidagi yuksak sadosi vaqtlar davomida Sharqqa ham, G‘arbga ham kirib bordi. Bu Lutfiy haqidagi keng qarashlarga zamin yaratib berdi” [1: 11].

Hofiz Xorazmiy ham o‘zbek mumtoz she’riyati tarixiy taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan ijodkor. Uning ijodi Atoyi, Sakkokiy, Lutfiy kabi shoirlarning merosi singari Alisher Navoiygacha bo‘lgan o‘zbek she’riyatining yuksak namunasi sanaladi. Xususan, “XIV asr oxiri va XV asr boshlarida o‘zbek adabiyotida birinchi bo‘lib mukammal devon tartib bergan shoir ham Hofiz Xorazmiydir. O‘zbek she’riyatining Hofizi da’vosini qilgan xorazmlik Abdurahimning bizgacha yetib kelgan ulkan badiiy merosi uning o‘z da’vosida haqli ekanligining ochiq isbotidir” [2: 7].

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev “Adabiyot, san’at, va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi”, degan fikrlarni bejizga ta’kidlamagan. Xususan, Yurtboshimiz “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusida so‘zlagan nutqi orqali bugun va kelajak uchun shu sohadagi muhim masalalarning ustuvor ekanligini aniq ko‘rsatdi. Shu bilan bir qatorda, bu jarayon ishtirokchilarini har tomonlama rag‘batlantirish joiz ekanligini ta’kidladi.

Ma’lumki, hozirga qadar mumtoz she’riyat vakillari ijodi yuzasidan salmoqli ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, shoir Lutfiy ijodi yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarimiz ham ko‘pchilikni tashkil etadi. Ular: A.Samoylovich, Y.E.Bertels, Sh.Sulaymonov, V.Zohidov, H.Zarifov, E.Rustamov, A.Qayumov, S.Erkinov, N.Mallayev, E.Ahmadxo‘jayev kabilarning tadqiqotlari bo‘lib, fikrimizni asoslay oladi. Chunki Lutfiy she’riyati o‘ziga xosligi orqali ko‘plab adabiyotshunos olimlarning e’tiborini tortgan. Bu borada A.Hayitmetov shunday fikrlarni ilgari suradi: “O‘z davrida “malik ul-kalom” faxrli unvoniga sazovor bo‘lgan shoir boy adabiy meros yaratib, sodda va ravon uslubda ijod qildi. Uning so‘z boyligi asos-e’tibori bilan jonli xalq tili hisobiga boyib bordi. Bu bilan u o‘ziga zamondosh shoirlar – Atoyi, Sakkokiy, Gadoiylarga ham kuchli ta’sir ko‘rsatdi” [3: 92–94]. Mazkur ma’lumotlarga asoslanadigan bo‘lsak, Lutfiy o‘z davrida “ustozlik maqomini olgan shoir” sifatida ulug‘langan.

Hofiz Xorazmiyning ijodiy barkamolligi haqida esa adabiyotshunos Hamid Sulaymonov shunday ma’lumotlar bergan: “Badiiy mahorat, qofiya va radiflarni ustalik bilan tanlay bilishi, ajoyib lirik obrazlar yarata olishi Hofiz Xorazmiyning yetuk san’atkorligidan dalolat beradi” [4: 6]. Bunga biz shoirning 1981-yil nashr qilingan 2 kitobdan iborat devonidan o‘rin olgan qasida, g‘azal, qit’a va ruboiylari tahlili misolida guvoh bo‘ldik. Chindan, shoirning g‘azallarida qo‘llangan obrazlar mazmun-mohiyati va badiyati bilan mukammallik kasb eta olgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu borada shoirning birgina Layli obrazi fikrimizga asos bo‘la oladi. Mazkur obraz shoirning faqatgina g‘azallari tarkibida qo‘llangan bo‘lib, ularning badiiyatini oshirishga xizmat qilgan. Shoirlar ijodini qiyosiy tahlil qilib, Layli timsoli bilan bog‘liq o‘rinlarni ko‘zdan kechirganimizda, ularning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlariga guvoh bo‘ldik. O‘xshash tomonlari timsolning mazmun-mohiyatida ko‘ringan bo‘lsa, farqli tomonlari obrazning shakllarida, so‘zlarning lug‘aviy ma’nolarida ko‘zga tashlandi. Qolaversa, obrazning necha o‘rinda qo‘llanganligi jihatdan ham farqlarini ko‘rishimiz mumkin. Fikrimizni quyidagi jadval orqali asoslaymiz.

T/r	Shoirlar	Layli timsolini necha o‘rinda qo‘llagani	Layli timsolining shakllari	Ma’nolari
1.	**Lutfiy**	3 o‘rinda	Layli	**2 o‘rinda –** Majnunga suyukli yor; **1 o‘rinda –** go‘zal xilqat.
2.	**H.Xorazmiy**	13 o‘rinda	Layli, Laylo	**6 o‘rinda** – Majnunning suyukli yori; **4 o‘rinda** – Yaratganning yerdagi tajallisi; **2 o‘rinda** – badiiy asar nomiga ishora; **1 o‘rinda** – “tun” lug‘aviy ma’nosida.

Shoir Xorazmiy she’riyatida Layli obrazi devonda tartib berilgan 10-g‘azalning sakkizinchi bayti, 11-g‘azalning maqta’si, 64-g‘azalning maqta’si, 155-g‘azalning ikkinchi bayti, 327-g‘azalning oltinchi bayti, 340-g‘azalning ikkinchi bayti, 497-g‘azalning uchinchi bayti, 566-g‘azalning birinchi bayti, 770-g‘azalning uchinchi bayti, 772-g‘azalning to‘rtinchi bayti, 773-g‘azalning to‘rtinchi bayti, 1022-g‘azalning oltinchi bayti, 1018-g‘azalning yettinchi baytida turli mazmun-mohiyatda qo‘llangan. Jumladan:

Ishq olamda gahi noz bo‘lib, goh niyoz,
Goh Majnun-u gahi otini Laylo qilishar. (340-g‘azal)
Yoki:
Ishqi haqiqiy nogahon suvratg‘a kelgan orada,
Olam ichra oti gah Majnun-u, gah Laylo emish. (497-g‘azal)

“Ishq” tushunchasi mumtoz she’riyat vakillarining badiiy mahoratini namoyon etishda katta ahamiyat kasb etuvchi istiloh sanaladi. Uning asosi tasavvufiy qarashlarga ega bo‘lib, o‘zida zohiriy va botiniy ma’nolarni mujassam etgan. Shu bois ishqning zamiriga singdirilgan mohiyat oddiy nazar orqali o‘z ifodasini topmaydi. Mazkur tushunchani she’riyatda aks ettirish ijodkordan yuksak mas’uliyat talab etadi. Bu borada Hofiz Xorazmiyning ijodi fikrimizga asos bo‘la oladi. Chunki shoir she’riyatini tahlil qilar ekanmiz, uning “ishq” tushunchasiga nisbatan o‘zgacha yondashuvi ko‘zga tashlanadi. Xususan, shoir uning botiniy ma’nosini aks ettirishga katta ahamiyat qaratadi. 340-g‘azalining ikkinchi baytida va 497-g‘azalining uchinchi baytida “Ishq” obrazlar qiyofasida o‘zining botiniy ma’nosini ifoda etgan. Har ikkala g‘azalda bir xil mazmun-mohiyat kasb etgan bu tushuncha shoirning o‘ziga xos uslubini namoyon eta olgan. Ya’ni 340-g‘azalda: “Ishq” olamda noz-u niyozin ko‘rsatsa, uning oti goh Majnun, goh Layli deb atalishi; 497-g‘azalda Haqiqiy ishq suvrati chizilganda olam ichra uning oti goh Majnun, goh Layli bo‘lishining ifodasi fikrimizga asos bo‘la oladi.

Shuningdek, shoir 11-g‘azalining maqta’si, 340-g‘azalining 2-bayti, 497-g‘azalining 3-bayti, 566-g‘azalining 1-bayti, 770-g‘azalining 3-bayti, 772-g‘azalining 4-bayti, 773-g‘azalining 4-bayti, 847-g‘azalining 2-baytida Layli timsoli misolida “Ishq” tushunchasini turli mazmun-mohiyatda aks ettirgan.

Ma’lum bo‘ladiki, “ishq” botinda Allohning ko‘ngil uyi. Uni shoir Layli va Majnun obrazlari qiyofasida tasvirlashida ham ramziylik bor. Chunki Layli shoirlar talqinida Yaratganning Yerdagi tajallisi sanaladi. Majnunning unga yetishish yo‘lida chekkan mashaqqatlari Allohning ko‘ngil uyiga yetish bilan barobar ekanligiga qiyoslangan.

Shuningdek, Hofiz Xorazmiy ijodida Layli timsolining “tun” lug‘aviy ma’nosiga ishora qilgan shakli ham uchraydi. Buni biz shoir devonidagi 1022-g‘azalning oltinchi baytida kuzatamiz:

Tug‘ar Majnung‘a kecha oftobi
Agar ko‘rguzsa yuz layl ichra Laylo. (1022-g‘azal)

“Tun”, “kecha”, “oqshom” ma’nolarini beruvchi “layl” so‘zi Layli timsoli bilan juda yaqin uyg‘unlik hosil qilib, shoir mahoratini namoyon etgan. Chunki mazkur so‘zlar shoirlar tomonidan haqiqiy ishq mohiyatini ochib berishda, badiiy obrazlarning ruhiy holat va ichki kechinmalarini tasvirlashda katta ahamiyat kasb etgan. Ya’ni agar Layli tun qorong‘usida yuzini ko‘rsatsa, Majnun uchun qorong‘u tun oydin oftobni tug‘ib berishi tasvirlangan. Tasavvuf nuqtayi nazaridan yondashadigan bo‘lsak, Haq jamoliga yetishgan solikning qalbi oftob nuri misoli yorishishi nazarda tutilgan.

Yoki boshqa bir o‘rinda:

Jon sha’mini yoqmoq yoqadur tesa tong ermas,
Majnun topib ul jon tilagi Laylini laylo.
(1018-g‘azal, 7-bayt)

Bu o‘rinda shoir oshiqning jismini shamga qiyoslagan. Ya’ni oshiqning joni sham bo‘lib yonsa-da, uning yog‘dusi tunga oydinlik berolmaydi. Shu bois Majnun yonayotgan jismning ko‘p ovvora bo‘lmasligini ta’kidlaydi. Chunki lirik qahramon sham yongani bilan tunning yorishmasligini, bunga Laylining ishqi to‘sqinlik qilishini aytib roziligini bildirmoqda. Shunday bo‘lsa-da, Majnunning birdan bir tilagi – Layli. Chunki u qop-qorong‘u tunda Layli jamolini ko‘rish baxtiga muyassar bo‘lsa bo‘lgani. Majnun uchun bu eng oliy baxt sanaladi. Aslini olganda, shoirlarning mazkur obrazlarni ulug‘lashining siri – Layli ilohiy go‘zallikni butun jismiga jo etganligidadir. Uning oshig‘i sanalgan Majnun shu

go‘zallikni ko‘ra olgan, Haq yo‘lini ana shuni anglashdan, unga yetishga intilishdan boshlagan majzubi solik bo‘lganligidadir” [5: 30].

Lutfiy ijodida ham Layli timsoli o‘ziga xos uslubni ifoda etadi. Chunki uning she’riyati turli xil mavzular va ular zamiriga singdirilgan g‘oyalarning mazmun-mohiyatidan tashkil topgan. S.Erkinovning talqinicha, “shoir devonidagi lirik asarlarning yetakchi mavzusi – ishq sanaladi. Shu ishq insonning zohiriy va botiniy olamini oyna bo‘lib aks ettiradi” [6: 215].

Darhaqiqat, mumtoz she’riyatda “ishq” oliy tushuncha sanalgan. Shu bois mazkur mavzuda ijod qilish shoirdan yuksak mahorat talab etgan. Bu esa shoirlarning ijod borasida qobiliyatini baholab bergan. Shoir Lutfiy she’riyatini ko‘zdan kechirar ekanmiz, mazkur mavzu mohiyatini batafsil yoritishda an’anaviy obrazlardan foydalanganiga amin bo‘ldik. Ishimiz shoirning 2012-yili G‘afur G‘ulom nomidagi NMIUda nashr qilingan devoni asosida bo‘lib, unda shoir Layli timsolini uch o‘rinda faqat g‘azallari tarkibida qo‘llagani ko‘zga tashlandi:

Xayolingni yubor, Layli, mening holimni so‘rmoqqa,
Ki Majnundin sening ishqing mening holim batar qildi.

Ma’lumki, “Layli” Haqning tajallisi zuhur etgan timsol” [7: 30]. Shu bois uning jismida Yaratgan jamoli jilvalanadi. Haqiqiy ishqqa yo‘g‘rilgan bu go‘zallikdan bahramand bo‘lish oson emas. Chunki “Ruhi mutlaqni tasavvur qilishga inson aqli va ongi ojizlik qiladi” [8: 128]. Buni faqat haqiqiy ishq sohibi va sohibalari anglab yetadi. “Haqiqiy muhabbat faqat pokiza insonlar qalbidan joy oladi. Bu borada Majnun ishqi oliy namuna. Chunki u butun qalbi va jon dili bilan Allohni sevadi” [9: 30].

Haq ishqi tasavvufiy istiloh sanaladi. Najmiddin Kubro hazratlari aytganlaridek, ishq insonning yurak-bag‘rini yondirguvchi bir otashdir. U aqlni shoshiltirar, ko‘zni ko‘r, quloqni kar aylar. Ammo u eng ulkan qo‘rquvni ham kichraytirar, butun diqqatni ma’shuqaga jalb etar. Shu sababdan inson olamda uning go‘zalligini ko‘rar va shu go‘zallikni sevar. Olam esa Allohning go‘zalligidir. Agar Allohni kim shu nuqtayi nazar ila sevsa, olamni Alloh sevgisi bilan sevgan bo‘lur. Tasavvufiy maslakda ishq sevgining eng oxirgi darajasi va mukammal ko‘rinishi sanaladi. Ishq maqomiga ko‘tarilgunga qadar oshiq yana yetti darajada qalb va ruhni kamolga erishtirishi kerak. Ana shu bosqichlarni bosib o‘tgan har bir inson ishqning asl mohiyatini anglab yetadi. Suvrati-yu siyrati shu istiloh bilan orom topadi va qalban unga tobe bo‘ladi. Lutfiy she’riyatida ana shunday xayoloti hamda butun vujudida haqiqiy ishq makon tutgan lirik qahramonning siyrati haqqoniy va ta’sirchan bo‘yoqlarda mahorat bilan tasvirlangan.

Mazkur baytda shoir ishq dardiga yo‘liqqan oshiq holatining tasvirini bergan. Ya’ni baytning dastlabki misrasida oshiq Layli timsoliga murojaat qilib, holidan xabar olish uchun hech bo‘lmaganda xayolini yuborishni iltimos qilayotgan bo‘lsa, ikkinchi misrasida yorning ishqi oshiqning ahvolini Majnunning holidan ham battar yomon ahvolga solgani tasvirlangan. Aytish joizki, bayt zamirida ishqning ham dunyoviy, ham diniy talqini aks etganini ko‘rish mumkin. Chunki shoir lirikasida ancha keng o‘rin tutgan dunyoviy mavzular ayni paytda, diniy-tasavvufiy mavzular bilan uyg‘unlashib, bir-birini to‘ldirib keladi. Shu tarzda ular majoz va haqiqat birligini tashkil qiladi. Bu o‘rinda shoir Layli timsolini suyukli yor ma’nosida qo‘llagan.

Xullas, shoirlar ijodida qo‘llangan Layli timsoli xususida ko‘plab mulohazalar bildirish mumkin. Chunki bu obraz ular ijodida rang-barang ma’no-mohiyat kasb etganligi bilan ajralib turadi. Lutfiy va Hofiz Xorazmiy she’riyatida qo‘llangan Layli timsoli o‘zi anglatgan mazmun-mohiyati bilan g‘azal badiiyatini oshirishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, u shoirning ichki kechinmalari va xohish-istaklarini namoyon eta olgan. Ta’kidlash joizki, Lutfiy hamda Hofiz Xorazmiy Layli timsoli misolida ajdodlar merosining avlodlar yodida saqlanib qolishiga munosib hissa qo‘shgan. Bugungi ijodiy jarayonda bu kabi obrazlar deyarli ko‘zga tashlanmaydi. Shoir va yozuvchilarimiz ijodiy ishlarida mazkur timsollarga murojaat qilsalar, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hayitmetov A. Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Fan, 1996.
2. Haqqulov I. Taqdir va tafakkur. – Toshkent: Sharq, 2007.
3. Erkinov S. Lutfiy. Maqola // Ma’naviyat yulduzlari. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2011.
4. Lutfiy. Devon / Erkinov S. So‘zboshi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
5. Mullaxo‘jayeva K. Alisher Navoiy g‘azaliyotida tasavvufiy timsol va badiiy san’atlar uyg‘unligi. – Toshkent: Akademnashr, 2019.
6. Ochilov E. Majnun – Haq oshig‘i // Navoiyga armug‘on (maqolalar to‘plami). 4-kitob. – Toshkent, 2004.
7. Yusupova D. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018.
8. Shamsiyev P. Alisher Navoiy asarlari lug‘ati. – Toshkent: Fan, 1972.
9. www.xabar.uz

Ixtiyor ERMATOV,
Guliston davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori (DSc)

TERMINOLOGIYADA DUBLETLAR VA SINONIMLARNING FARQLI VA O‘XSHASH JIHATLARI

Annotatsiya. Maqolada leksikaning umumxalq tiliga mansub odatdagi so‘zlar bilan xalq xo‘jaligi, fan va texnika, ularning muayyan sohalariga mansub terminlar munosabatidagi farqli va o‘xshash jihatlari haqida fikr yuritilgan.
Kalit so‘zlar: til, so‘z, termin, sinonim, dublet, denotat, absolut ma’nodosh.
Annotation. The article discusses the differences and similarities between common words of the lexicon and the terms of national economy, science and technology, and their specific fields.
Keywords: language, word, term, synonym, doublet, denotation, absolute synonym.
Аннотация. В статье рассматриваются различия, сходства между общеупотребительными словами, терминами народного хозяйства, науки и техники в их конкретных областях.
Ключевые слова: язык, слово, термин, синоним, дублет, денотат, абсолютный синоним.

Leksik birliklar lug‘aviy ma’no darajasi, uslubiy bo‘yog‘i, nutqning barcha vazifaviy uslublariga ko‘ra mushtarak lisoniy qiymat kasb etsa, ular mutlaq ma’nodoshlik guruhi sifatida ajratiladi [1: 13]. Masalan: *tilshunoslik* va *lingvistika, lug‘atshunoslik* va *leksikografiya, shakl* va *forma, atama* va *termin, mavzu* va *tema, avtor* va *muallif, terminologiya* va *atamashunoslik, mimema* va *taqlid so‘z, pauza* va *to‘xtam, affiks* va *qo‘shimcha, fe’l nisbatlari* va *fe’l darajalari, morfemika* va *so‘z tarkibi, ibora* va *frazeologizm* kabilar. Ma’nodoshlikning bu turini *dubletlar* sifatida baholash kerak. Mutlaq ma’nodosh muqobil birliklarni birlashtiruvchi bunday paradigmatik qator odatda ikki a’zodan tashkil topadi.

Terminlar va ularning tizimi maxsus “ixtisoslashgan” ma’noli birliklardan iborat alohida qatlam sifatida leksikaning boshqa qatlamlaridan farq qiladi. Termin maqomida amal qiluvchi so‘zning o‘ziga xos lisoniy vazifasi – xalq xo‘jaligi, fan va texnika sohalariga oid tushunchalarni atashdir [2: 6]. Atash vazifasi tilning barcha tur terminologik tizimi birliklari uchun xos bo‘lgan vazifadir. Chunonchi, morfema, leksema, frazema va hatto sintaksemalar uchun ham xos bo‘lgan izomorf lisoniy hodisadir. Biroq terminologik tizim birliklariga xos atash atashning o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lib, ular ifodalagan ma’nolar ekspressivlik, emotsionallik singari ustama uslubiy-pragmatik “hissa”lardan xoli bo‘ladi.

Muhimi shundaki, terminlar va ularning tizimi ham umumxalq leksikasining o‘ziga xos lug‘aviy qatlami sifatida leksikaning boshqa lug‘aviy qatlamlari bilan bir xil lisoniy huquqqa ega bo‘ladi. Shu sabab terminlar va ularning tizimi ham lisoniy jihatdan leksikaning boshqa lug‘aviy qatlamlari kabi, tilning vazifaviy imkoniyatlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bir etnik jamoaga mansub xalq xo‘jaligi, fan va texnikaning “ahvoli” shu etnik jamoaga xizmat qiluvchi tilning terminologik apparati va uning davr talab etgan saviyasi bilan belgilanadiki, bu jihatlar terminologik tizimning ekstralingvistik jabhasiga xos sotsiolingvistik xususiyatdir.

Shunisi xarakterliki, xalq xo‘jaligi, fan va texnika sohasiga oid tushunchalar termini bo‘lganligi uchun bunday tizimda sinonimlik, variantlilik yoki dubletlikning bo‘lishi lingvistik jihatdan maqbul hisoblanmaydi. Shunga qaramay, bu tizimni sinonimlik, dubletlikdan xoli deb bo‘lmaydi. Bu holat tilshunoslikning o‘ziga xos muammosi bo‘lib, buning yechimi osonlikcha topilmasa kerak. Chunki davr talabi bilan “eski narsa”lar yangilanib turadi. Shu yangilanish dastlab tilda o‘z aksini topadi: eski “narsa” darhol yo‘qolmaydi, u “yangi narsa” bilan ma’lum muddat muqobil holatda birgalikda “yashab turadi”. Bu jarayon fanda ***sinergetika*** deb ataladi. Mazkur jarayonning tilga xos ko‘rinishlari lingvistikada yangi tarmoq sifatida vazifaga kirishgan ***lingvosinergetika*** tarmog‘ida o‘rganiladi. Terminologik tizimga mansub sinonimiya, dubletlik va variantlilikka o‘xshash ma’nodoshlik hodisalari, shubhasiz, sinergetika ta’sirida o‘z faoliyatiga chek qo‘ymaydi. Bu lisoniy jarayonlar barcha tillarning terminologik tizimida mushtarak amal qiladi. N.Mahmudov ta’kidlaganidek, sinergetikaning prinsiplarini tilni o‘rganishga tatbiq qilayotganda ehtiyotkorlikni unutmagan ma’qul [9: 71].

Mutlaq ma’nodoshlik xarakteridagi dubletlikda bir paradigma doirasiga kiruvchi lug‘aviy birliklar funksional-semantik jihatdan o‘zaro farq qilmaydi: bir xil lisoniy qiymatga ega bo‘ladi. Shunisi ham borki, mutlaq ma’nodoshlik paradigmasida birlashuvchi muqobil a’zolardan biri til taraqqiyotining muayyan bir davrida nutqda faol ishlatilib, boshqasining iste’moliga ma’lum darajada monelik qiladi, uni cheklaydi. Iste’moli cheklangan lug‘aviy birlik leksikaning nofaol qatlamidan joy oladi. Natijada vaqt o‘tishi bilan bunday lug‘aviy birliklardan tarkib topgan paradigmatik qator unutilib, barham topadi.

O‘zbek tilshunosligi terminlarini davriy ketma-ketlikda o‘rganishdan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, terminlar tizimiga xos dubletlik ikki davrga mansub hodisadir: hozirgi vaqtda lisoniy rasmiylashgan *qo‘shimcha* ter-

minining ma'nosi va vazifasida tilning diaxron davrida *harf, olmosh izlari, yopishiq olmoshlar, ishlovchi, turlov belgilari, supot belgilari, supotlama, o'xshatqich, tugallik, fe'llama, durkum turlamalari, odot* tarzida ishlatilgan bo'lsa, keyinroq shu ma'no va vazifada *prefiks, affiks, suffiks* terminlari ishlatilgan. Hozirgi kunga kelib esa ayni shu ma'no va vazifani ifodalovchi lug'aviy birlik *qo'shimcha* va *affiks* [10: 144] shakllarida lisoniy me'yorlashgan; mazkur termin mansub paradigmaning boshqa muqobillari esa o'zbek tili leksikasining faol lug'at qatlamidan chetlashgan. Shuningdek, bu lug'aviy birliklar ishtirokida hosil bo'lgan *suffiks – qo'shimcha, fonema – tovush, logik urg'u – so'z urg'usi, o'zak – asos, negiz – asosdosh, turlovchi suffikslar – so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar, egalik kelishigi – qaratqich kelishigi, infinitiv – fe'lning noaniq formasi, tochka – nuqta, alfavit – alifbo, apostrof – tutuq belgisi, ulush son – taqsim son* singari vazifaviy-mazmuniy mikroguruhlar (paradigmalar) ham lug'aviy-mazmuniy medioqurilmalar tizimidan uzoqlashgan.

Mutlaq ma'nodoshlik qatoridagi qaysi muqobil a'zoning qo'llanishi ommalashishi, rasmiylashishi va qay birining passivlashib, unutilishi til egasi bo'lmish etnik jamoaning ijtimoiy-siyosiy tuzumi va mafkurasi bilan ham bog'liq bo'ladi. Masalan, o'tgan asrning 40-yillarida o'zbek tilida *skobka, kavichka, ko'p tochka, tochka vergul* [13: 196]*, tochka, suffiks, fonema, alfavit* [7: 256] va shu kabi lug'aviy birliklar faol ishlatilgan, ularning *qavs, qo'shtirnoq, ko'p nuqta, nuqtali vergul, nuqta, qo'shimcha, tovush, alifbo* singari muqobillarining iste'moli cheklangan edi. Keyinchalik aksincha, *qavs, qo'shtirnoq, ko'p nuqta, nuqtali vergul, nuqta, qo'shimcha, tovush, alifbo* [4: 42] kabi terminlar iste'moli qaytadan faollashib va ommalashib, ularning o'tgan asrning 40-yillarida faol bo'lgan muqobillarining iste'moli cheklangan. Demak, ma'lum bo'ladiki, terminlar "hayoti"da ham, leksik birliklar "hayoti"da kuzatilgani kabi, mutlaq ma'nodoshlik va uning paradigmasi tilning o'zgaruvchan nomutlaq hodisalari qatorida bo'ladi.

Yuqorida aytilgan fikrlarga asoslangan holda aytish mumkinki, sinonim va dublet xarakteridagi terminlar lug'aviy tizimning lug'aviy-mazmuniy medioqurilmalari tavsifidagi ko'rinishlaridan biri sanaladi. Bunday xususiyatga ega bo'lgan terminlarning ifoda va mazmun jihatida o'zaro muvofiqlik, mutanosiblik bo'lmaydi.

Sinonim va dublet xarakteridagi hodisalar shakl va mazmun nomutanosibligi (asimmetriyasi)ning paradigmatik deb ataluvchi turiga mansub bo'ladi. Bu hodisalarda shakl va mazmun nomutanosibligi shakliy birliklar miqdorining ma'noviy birliklar miqdoriga nisbatan ko'pligiga asoslanadi.

Terminologiya tizimida dubletlik hodisalarini yana quyidagilarda ko'rish mumkin. Tilda uzual ma'no okkazional ma'nodan farqli holda, faqat bir so'zning semantik tarkibiga kiradi. Masalan, *"suyukli bola"* okkazional ma'nosini ijobiy emotsional komponenti bilan *qo'zichoq, bo'taloq, toychoq, shunqor, do'mboq* kabi so'zlarda ifodalash mumkin. Uzual ma'noni bir so'z ifodalaydi, ya'ni uni yana ikkinchi bir so'zda ifodalab bo'lmaydi.

*Sinonim*lar – ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan birdan ortiq so'zlar. Lekin bir sinonimik qatordagi so'zlar yo ekspressiv bo'yog'iga ko'ra, yo ma'no nozikligiga ko'ra o'zaro farq qiladi [8: 29]. Faqat *dublet*lar tarkibidagi so'zlar ma'nosi ayni bir xil bo'ladi [3: 29]. Lekin dubletlar tilda uzoq yashamaydi: yo biri qo'llanmay ketadi, yo biri bir jihati bilan o'zgarib ketadi [14: 239]. Ya'ni birorta ham uzual ma'no to'laligicha ikkinchi bir so'zda takrorlanmaydi.

So'zlar, ya'ni birdan ortiq so'zning ma'no munosabati aynan bir xillikka asoslangan sinonimlar tilshunoslikda *absolut sinonimlar* deb ataladi [11: 45]. Ularni ayrim tilshunoslar *dublet* deb ataydilar [6: 130]. Ba'zi ishlarda esa ma'nolari aynan bir xil sinonimlar mavjudligini aytish bilan cheklanilgan: *absolut sinonim* deb ham, *dublet* deb ham atalmagan [12: 183]. Aslini olganda, *absolut sinonim* va *dublet* terminlari bir xil ma'noga ega. Bu terminlar ostida ifodalangan sinonimlar birdan ortiq so'zning semantik tarkibi ayni bir xil bo'lishini bildiradi. Masalan, o'zbek adabiy tilida *chega* va *qadoq* so'zlari bo'lib, ular o'zaro absolut sinonimlar hisoblanadi. Chunki bu so'zlarning har ikkisida ham ikkitadan leksik ma'no bor: 1) siniq chinnining temir plastinkacha yordami bilan birlashtirilgan o'rni; 2) siniq idishni yamashtiradigan temir plastinkacha. Bu ikki leksik ma'no *chega* so'zining ham, *qadoq* so'zining ham semantik tarkibini tashkil qiladi. Bu ikki so'zning semantik tarkibida bundan boshqa semantika yo'q, ya'ni ularning semantik tarkibi bir xil. Ular absolut sinonimlar hisoblanadi. Misollarga e'tibor bering: *chegasidan sinmoq / qadog'idan sinmoq* va *chegasi tushib ketmoq / qadog'i tushib ketmoq.* Bu so'zlar grammatik kategoriyasi jihatidan ham bir xil.

O'zbek tilida *lingvist / tilshunos, qarsak / chapak, shoti / narvon, sinchalak / chittak, o'qituvchi / muallim, askar / soldat, sibizg'a / nay* kabi so'z juftliklari borki, ular ma'no jihatidan bir-biridan mutlaqo farq qilmaydi. Ular bir xil leksik ma'noga ega sinonimlardir [11: 191]. Bunday *absolut sinonim*lardan ayrimlari termin ekanligi bilan xarakterlanadi. Masalan, *lingvist* ilmiy uslubga xos termindir.

Absolut sinonimlar ayni bir xil leksik ma'noga ega bo'lgan birdan ortiq so'zdir. O'zbek tilida absolut sinonimlar tarkibidagi so'zlar deyarli bir juft bo'lib, leksik ma'nolari tushunchaga teng keladi va ular asosan terminologik leksikaga mansub. Komponentlari bir tilga xos bo'lishi shart. So'zning fonetik variantlari va bir ma'noli morfologik shakllari absolut sinonimni tarkib toptirmaydi. Sinonimlar bir o'zakka mansub bo'lmaydi [11: 196].

Xullas, ma'nodoshlikning umumtil lug'aviy birliklariga xos turi (*sinonim)* bilan uning terminologik tizimiga xos turi (*dubletlar*) diaxron va sinxron jihatdan farqlarga ega. Shakldoshlik xususiyatiga ko'ra o'zaro o'xshash

bo‘lgan bu ikki hodisa quyidagi jihatlariga ko‘ra farq qiladi:

a) sinonimlarning paradigmatik qatorida lug‘aviy birliklar miqdori (soni) ko‘p bo‘ladi; dubletlar paradigmasi odatda ikki so‘zdan iborat bo‘ladi;

b) sinonim so‘zlarning leksik ma’nosida nutqning farqlanuvchi uslubiga xoslanish, emotsional-ekspressiv bo‘yoq bo‘ladi, dubletlarda bu kuzatilmaydi;

d) sinonimlarning ma’nosi signifikatga nisbatan farqlovchi, dubletlarda esa farqlanmas bo‘ladi;

e) so‘zlar sinonimlarda markerli, dublet so‘zlarda markersiz bo‘ladi;

f) sinonimlar so‘zlar ma’nodoshligini ifodalaydi, dubletlar esa faqat bir tushunchani ifodalaydi;

g) dublet so‘zlarning biri albatta “o‘tkinchi” bo‘ladi, sinonimlar qatorida “o‘tkinchi” so‘zlar bo‘lmaydi, bo‘lsa ham passiv bo‘ladi;

h) dublet so‘zlarda so‘z ma’nosi farqlanmaydi, chunki ular bir tushunchani anglatadi, sinonimlarda ma’no nozikligi mavjud, ma’no farqlanadi;

i) dubletlarda ma’nodoshlik “ortiqcha yuk”, sinonimlarda esa ularga xos xususiyat sanaladi;

j) sinonimiyada uning qatori (paradigmasi) dominant a’zoga asoslangan holda tuziladi, dubletlikda dominant a’zo bo‘lmaydi.

Dublet so‘zlar va sinonimlar qatoridagi farqlar bu bilan yakun topmaydi. Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkin: terminlar o‘rtasida sinonimiya emas, dubletlik hodisasi mavjud. Shuning uchun terminlarga nisbatan *sinonim* va *dublet* terminlarini farqlab qo‘llash lozim.

Aslini olganda, tildagi boshqa birliklar singari so‘z yoki birikma shaklida bo‘lgan terminlar ham til lug‘at tarkibining ajralmas birliklari sanaladi. Ammo tushunchalarni aniq, qat’iy chegaralash jihatiga ko‘ra unda sinonimlik, variantlilik yoki dubletlikning bo‘lishi maqbul holat hisoblanmaydi. Lekin terminologik tizimda hali-hanuz sinonimlik, dubletlik muammolari mavjud. Mazkur muammolar davriy izchillikda yangi terminlarning qabul qilinishi yoki o‘zlashma terminni tilning ichki imkoniyatlari asosida milliylashtirish natijasida yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya). Universitet va pedagogika oliy o‘quv yurtlarining o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr fakultetlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2021.
2. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования и русской технической терминологии // Труды МИФЛИ. Т.5. Сборник статей по языковедению. – Москва, 1939.
3. Чофәров С. Муасир азәрбајчан дили. – Бакы: Элм, 1970.
4. Fitrət. Өzbek tili qaьdalarь togrusьda bir təçribə, Birinci kitab. Sərf. Samarqand – Taşkent: Өzdəvnəşr, 1930. 42 b.
5. Fitrət. Өzbek tili qaьdalarь togrusьda bir təçribə, Ikkinci kitab. Nəhv. – Samarqand – Taşkent: Өzdəvnəşr, 1930.
6. Kamolov F.K. Semasiologiya // Hozirgi o‘zbek adabiy tili. I t. / G‘.Abdurahmonov tahr. ost. – Toshkent: Fan, 1966.
7. Usmon O., Avizov B. O‘zbek tili grammatikasi darsligi. I qism. – Toshkent: O‘quvpeddavnashr, 1941.
8. Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.– Toshkent: O‘zbekiston, 1992.
9. Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2017.
10. Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan, 2013.
11. Mirtojiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.
12. Мәммәдов Н. Ахундов А. Дилчилијә кириш. – Бакы: Маариф, 1966.
13. G‘oziyev H. O‘zbek tili grammatikasi. II bo‘lim. Sintaksis. – Toshkent: O‘quvpeddavnashr, 1941.
14. Hojiyev A. Semasiologiya // O‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981.

Гулшод ХАМРАЕВА,
кандидат педагогических наук,
доцент Узбекского государственного университета мировых языков

ВИДЫ ПОДЧИНИТЕЛЬНОЙ СВЯЗИ В СЛОЖНОМ ПРЕДЛОЖЕНИИ

Цели: *образовательная* – расширение и углубление знаний по теме «Сложноподчиненное предложение (СПП). Виды подчинительных союзов»;

развивающая – совершенствование умений и навыков применения теоретических знаний на практике;

воспитательная – воспитание настойчивости и целеустремлённости в достижении поставленных целей, эмоционально-положительного отношения к продуктивной работе.

Методы и приёмы обучения: «Блиц-опрос», «Концептуальная таблица», «Корзина идей», метод «ЗХУ».

Оборудование: УМК, учебное пособие, раздаточный материал, проектор.

I. Основная часть (сообщение о плане занятия, теме, целях и задаче, планируемых результатах; проведение блиц-опроса для актуализации знаний по теме).

Блиц-опрос: 1. Какие предложения являются сложноподчинёнными?

2. Какие союзы могут употребляться в сложноподчинённых предложениях?

3. Что вам известно о структуре сложноподчиненных предложений?

4. Какие типы сложноподчинённых предложений вы можете назвать?

Сложноподчинённое предложение – это сложное предложение, части которого связаны подчинительными союзами. Оно состоит из двух частей – главной и придаточной: часть сложноподчинённого предложения, подчиняющая себе придаточную, называется главной частью, часть сложноподчинённого предложения, синтаксически зависимая от другой, является придаточной частью. Придаточные предложения соединяются с главным при помощи союзных слов и подчинительных союзов.

Союзными словами являются относительные местоимения (*кто, что, который, чей, какой*), наречия (*где, откуда, куда*) и др. Они могут быть членами предложения:

*Студенты, **которые** ездили на экскурсию в Самарканд, уже вернулись.*

В СПП с придаточным определительным союзное слово ***которые*** является относительным местоимением и подлежащим в придаточной части.

*Я принёс то, **что** просили родители.*

В СПП с придаточным дополнительного типа союзное слово ***что*** является относительным местоимением и прямым дополнением в придаточной части.

*Мы с друзьями ездили туда, **где** никогда не были раньше.*

В СПП с придаточным места союзное слово ***где*** является относительным наречием и обстоятельством места в придаточной части.

Запомните!

1. Слово ***что*** в одних предложениях может быть союзом, а в других – союзным словом: *Я видел, **что** друзья принесли.*

В данном СПП ***что*** является союзным словом и прямым дополнением к глаголу *принесли*.

2. *Я видел, **что** друзья принесли книги.*

В данном СПП ***что*** является союзом и не является членом предложения.

Подчинительные союзы отличаются от союзных слов. Они не являются членами предложения и служат только для связи придаточного предложения с главным:

*Родители написали, **что** они приедут на следующей неделе.*

*Сестра попросила, **чтобы** брат её встретил на вокзале.*

В главном предложении могут употребляться указательные местоимения (*тот, такой*) или указательные наречия (*там, туда, оттуда*):

*Мне нравится **тот** дом, который построен у реки.*

*Студенты филологического факультета поехали **туда**, где их ждал тьютор.*

Задание №1. Заполните таблицу, определяя типы СПП.

Тип СПП	Вопросы и союзы	Примеры
СПП …	Отвечают на вопросы косвенных падежей. Союзы: *что, чтобы, как будто, как, ли, как бы не* и др.	*Ребята знали, что сегодня будет субботник.*
СПП …	Отвечают на вопросы *какой? какая? какое? какие?* Союзные слова: *который, какой, чей, где, куда, что* и др.	Аудитория, в которой мы занимаемся, светлая.
СПП …	Отвечают на вопросы *когда? с каких пор? до каких пор?* и др. Союзы: *когда, в то время как, пока, едва, лишь, как только* и др.	Мы поедем на футбол, когда закончатся занятия.

СПП …	Отвечают на вопросы *где? куда? откуда?* Союзные слова: *где, куда, откуда.*	Студенты отправились на практику туда, куда их направил деканат.
СПП …	Отвечают на вопросы *как? каким образом?* Союзы: *что, как, будто, словно, точно, как будто, будто бы* и др.	Я выполнил задание так, как было написано в условии.
СПП …	Отвечают на вопросы *зачем? для чего? с какой целью?* Союзы: *чтобы, для того чтобы* и др.	Мы приехали в Ташкент, чтобы учиться.
СПП …	Отвечают на вопросы *почему? из-за чего? по какой причине? отчего?* Союзы: *потому что, оттого что, так как, в силу того что, из-за того что* и др.	На площади было много народу, потому что был праздник.
СПП …	Отвечают на вопрос *при каком условии?* Союзы: *если, когда, раз, коли (коль).*	Если погода будет хорошая, мы поедем в горы.
СПП …	Отвечают на вопросы *как? насколько? в какой мере? в какой степени? сколько?* Союзные слова: *насколько, сколько; союзы: что, чтобы, как, как будто.*	Мы должны купить столько овощей и фруктов, сколько понадобится на одну неделю.
СПП …	Отвечают на вопрос *несмотря на что?* Союзы: *несмотря на то, что; пусть (пускай); хотя (хоть); как ни, сколько ни.*	Хотя наступило утро, на улице было еще темно.

Задание №2. Приём «Корзина идей». Прочитайте предложения, определите типы СПП, распределите их по соответствующим корзинам (конверты, коробки, импровизированные корзинки из листов А4).

Корзина 1: СПП с придаточными обстоятельственными; корзина 2: СПП с придаточными определительными; корзина 3: СПП с придаточными изъяснительными.

Корзина 1 Корзина 2 Корзина 3

Приём «Корзина идей». Метод организации индивидуальной и групповой работы учащихся на начальной стадии занятия, когда идёт актуализация имеющихся знаний.

1. Мы вышли в путь, как только рассвело.
2. Дети побежали к речке, чтобы искупаться.
3. Друзья встретились там, где было мало народу.
4. Тьютор нашей группы попросил, чтобы мы его ждали в аудитории.
5. Дети должны учиться так, чтобы родители гордились ими.
6. Студентам объявили, что в понедельник состоится встреча с известным писателем Узбекистана.
7. Я окончу университет, когда мне будет двадцать два года.
8. Я поеду отдыхать летом туда, где есть море.
9. Если будет время, мы пойдем гулять.
10. Мне всегда нравился тот дом, который построен на берегу реки.

Задание №3. 1) Прочитайте текст, определите СПП и их типы.

Стремление к знаниям

В большом зале Славяно-греко-латинской академии собрались известные учёные, было много молодёжи. Шёл вступительный экзамен. В зале было тихо. Пока один отвечал, остальные ждали своей очереди. Вдруг раздался шёпот и смех. В зал вошёл молодой человек в кафтане и грубых сапогах.

– Вы ошиблись, – сказал ему учёный. – Здесь идёт экзамен. Что вам нужно?

– Я тоже хотел бы держать экзамен, – несмело отвечал новичок.

Учёный удивлённо спросил, знает ли он, что требуется для поступления в академию?

Юноша ответил, что он изучал всё, что требуется по программе.

Тогда экзаменатор велел ему ждать своей очереди. Новичок сел и стал слушать ответы других.

Пришла и его очередь. Отвечал он уверенно и хорошо, показав отличные знания. Ему задавали самые трудные вопросы и спрашивали то, чего не было в программе. Он отвечал спокойно и уверенно. Все внимательно слушали отличные ответы экзаменуемого. Экзаменатор был очень доволен.

Учёный спросил юношу, кто готовил его. Юноша скромно ответил, что его никто не готовил и что он сам учился в свободное от работы время.

Это был Михаил Васильевич Ломоносов, который потом стал великим учёным и поэтом. А тогда, чтобы учиться в Славяно-греко-латинской академии, он выдал себя за сына холмогорского дворянина.

В 1755 году по инициативе Ломоносова был основан университет. Сейчас этот университет называется Московским государственным университетом имени М.В.Ломоносова.

2) Ответьте на вопросы:

1. С какой целью собрались известные учёные в большом зале?
2. Кто вошёл в зал в кафтане и грубых сапогах?
3. Какие вопросы задавали учёные новичку?
4. Как отвечал юноша на экзамене?
5. Кто готовил юношу к экзамену?
6. Кем оказался новичок-самоучка?
7. В каком году был основан университет по инициативе М.В.Ломоносова?
8. Как называется университет, основанный М.В.Ломоносовым, в настоящее время?

9. Какие университеты России вам известны?
10. Что вам еще известно о жизни и деятельности М.В.Ломоносова?

Задание №4. Вставьте необходимые союзы и союзные слова в СПП (*хотя, если, что, чтобы, когда, который, несмотря на то что* и др.).

1. Пожалуйста, предупредите нас, … будете опаздывать.
2. Я знаю, … мой сын поддержит меня в трудную минуту.
3. Дедушка попросил внука, … он помог ему разобраться с инструкцией нового телефона.
4. … закончатся зимние каникулы, мы вернёмся в университет.
5. Я поступил в УзГУМЯ, … изучать иностранные языки.
6. Магистрант пришел к научному руководителю, … проконсультироваться.
7. В университете я встретил друга, … живёт в моём квартале.
8. Мы смотрим любимые телепередачи, … ужинаем.
9. … было уже поздно, в окнах студенческого общежития горел свет.
10. … задание было трудным, мы его выполнили.

Задание №5. Заполните концептуальную таблицу «Типы СПП русского языка», используя теоретический материал темы.

Типы СПП русского языка

Тип СПП	Вопросы, средства связи	Указывают …, обозначают …
С придаточными дополнительными		
С придаточными определительными		
С придаточными обстоятельственными		
времени		
места		
образа действия		
цели		
причины		
условными		
меры и степени		
уступки		

Задания для самостоятельной работы

Задание №1. Составьте и запишите несколько сложноподчинённых предложений, выделите их грамматическую основу и союзы.

Задание №2. Решите тесты.

1. Вставьте пропущенный союз (союзное слово): *«Нужно много работать, … достичь своей цели»:*
а) потому что, б) зачем, в) чтобы, г) так как.

2. На какие вопросы отвечает придаточное дополнительного типа?
а) на вопросы косвенных падежей,
б) какой? чей?
в) в какой степени?
г) зачем? с какой целью?

3. Вставьте необходимое по смыслу слово: *Вы не знаете, … находится 25 поликлиника?*
а) поэтому, б) куда, в) где, г) что.

4. Определите тип придаточного предложения *Мне сообщили, что моя статья принята в печать:*
а) придаточное определительное,
б) (изъяснительное) дополнительного типа,
в) придаточное цели,
г) придаточное причины.

5. Укажите СПП с придаточным сравнения:
а) Если будет время, мы поедем отдыхать в горы,
б) Мы ездили туда, где отдыхали в прошлом году,
в) Мама подарила мне книгу, о которой рассказывал папа,
г) Я любила её, как родную сестру.

6. Вставьте необходимое по смыслу слово: *Я опоздал на работу, … автобус пришёл поздно:*
а) потому что, б) зачем, в) поэтому, г) что.

7. Определите СПП с придаточным цели:
а) Мой друг поступил в университет, когда ему было 17 лет,
б) Мы приехали к бабушке, чтобы помочь по хозяйству,
в) Мы приехали в Ташкент с друзьями, чтобы отдохнуть,
г) Мы хотим, чтобы был мир на всей планете.

8. Укажите СПП с придаточным образа действия:
а) Мадина хочет стать актрисой, а Муниса хочет стать врачом,
б) Нужно заниматься спортом, для того чтобы быть здоровым,
в) Мы всё сделали так, как посоветовали друзья,
г) Если у вас есть время, мы можем сходить в парк.

9. Определите СПП с придаточным места:
а) В деканате сообщили, где будет проводиться олимпиада по русскому языку,
б) На встрече с молодёжью писатель рассказал, когда он написал свое первое произведение,
в) Я скучаю по дому, где родился и вырос,
г) Там, где было поле, построили музыкальную школу.

10. Укажите союзы и союзные слова, употребляющиеся в СПП с придаточным времени.
а) когда, пока, с тех пор как, в то время как,
б) что, поэтому, если, который.
в) который, кто, что, чей.
г) потому что, как, что, будто.

Ответы к тестам: 1. – в, 2. – а, 3. – в, 4. – б, 5. – г, 6. – а, 7. – б, 8. – в, 9. – г, 10. – а.

Задание №3. Заполните таблицу по технологии З/Х/У, используйте теоретический материал темы.

Технология ЗХУ

З (знаем)	Х (хотим узнать)	У (узнали)

Shohruh ABDIRAIMOV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti (DSc), pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

BITIRUVCHI SINF O‘QUVCHILARINING O‘QIB TUSHUNISH KO‘NIKMASINI BAHOLASH

Annotatsiya. Ushbu maqolada bitiruvchi sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmasini tekshirib, tashxislab, natijalar asosida tushunish bilan bog‘liq ko‘nikmalarni baholash va rivojlantirish yuzasidan tavsiyalar berilgan.
Kalit so‘zlar: baholash, o‘qib tushunish, indikatorlar, topa olish, saralash, yashirin mazmun, mazmuniy bog‘liqlik.
Annotation. This article examines and diagnoses the reading comprehension skills of graduate pupils, and based on the results, recommendations are given for the evaluation and development of comprehension skills.
Keywords: assessment, reading comprehension, indicators, search, sorting, hidden content, meaningful connection.
Аннотация. В данной статье исследуются и диагностируются навыки понимания прочитанного у учащихся выпускного класса, и по результатам даются рекомендации по оценке и развитию навыков понимания.
Ключевые слова: оценивание, понимание прочитанного, индикаторы, поиск, сортировка, скрытое содержание, осмысленная связь.

Yurtimizda so‘nggi yillarda barcha sohalardagi kabi ta’lim tizimida ham tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayni damda ona tili ta’limida burilish nuqtasidamiz, ya’ni lingvosentrik (ta’lim markazida til strukturasini o‘rgatish turgan) yondashuvga asoslangan ona tili ta’limidan antroposentrik (ta’lim markazida inson va uning ehtiyojlari turgan) yondashuvga asoslangan ona tili ta’limiga o‘tmoqdamiz. Bu yondashuvda inson ehtiyojlaridan kelib chiqib, to‘rtta nutqiy malaka: eshitib tushunish, o‘qib tushunish, yozish va so‘zlash ko‘nikmalarini shakllantirish ustuvor hisoblanadi. Shu bois yangi avlod darsliklarida ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Bu esa jamoatchilikda ko‘plab savollarni tug‘dirmoqda. Masalan, kishi o‘z ona tilisida yozilgan ma’lumotni tushuna olmaydimi, yuqori sinflarda ona tili ta’limida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish kerakmi? Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotda mazkur savollar atroflicha o‘rganib chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ona tili ta’limida, hatto bitiruvchi sinf o‘quvchilarida ham, matnni o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishga ehtiyoj mavjud.

O‘zbek tilini o‘qitish metodikasiga doir ilmiy tadqiqotlarda ham o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini baholash mazmuni, usullari va mezonlariga to‘xtab o‘tilgan. Xususan, R.Safarova o‘quvchilarning ona tili ta’limida egallagan nutqiy malakalari darajasini quyidagi uch parametr asosida 100 ballik mezonda baholash samaradorligini qayd etgan [4]:

a) o‘qish texnikasi;

b) o‘zgalar fikri va matn mazmunini anglash darajasi;

d) fikrni yozma tarzda ifodalash darajasi.

Mavjud nazariy qarashlarni umumlashtirib, tadqiqotni amalga oshirish davomida ona tili ta’limida matnni o‘qib tushunish ko‘nikmasini baholashda quyidagi indikatorlar – konstruktlarga asoslanish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz:

– matnda aniq ifodalangan ma’lumotni topa olish;

– matnda ochiq ifodalangan ma’lumotlarni tushunish;

– matndagi leksik birliklarning ma’nosini tushunish;

– matndagi grammatik birliklarning vazifasi va mazmunini anglash;

– matnda vizual ifodalangan ma’lumotlarni tushunish;

– matndagi verbal va vizual ma’lumotlar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni tushunish;

– matnda yashirin ifodalangan ma’lumotlarni tushunish;

– matnning grammatik qurilishini anglash;

– matn qismlarining umumiy ma’nosini tushunish;

– matnni mazmuniy bloklarga ajratish;

– matn qismlari orasidagi mazmuniy bog‘lanishlarni anglash;

– matnning umumiy ma’nosini tushunish;

– matn maqsadini anglash;

– matndagi fikrlar va muallif nuqtayi nazariga baho berish;

– matndagi ma’lumotlardan hayotiy vaziyatlarda foydalana olish.

Mazkur konstruktlar matnni o‘qib tushunish metakognitiv jarayon ekanligini dalillaydi va ular topshiriq tuzishda foydalaniladigan matnlarni mavzusi, turi va uslubiga ko‘ra ham bir-biridan farqlaydi.

Ushbu indikatorlar asosida bitiruvchi sinf o‘quvchilarining ona tilidagi matnlarni o‘qib tushunish darajasini aniqlash, ularning mavjud holatini tashxislash, istiqbolda amalga oshiriladigan ishlarni belgilash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Avvalo, baholash qonuniyatlari talablariga asosan o‘qib tushunish ko‘nikmasini tekshirishga qaratilgan 30 ta test topshirig‘idan iborat variant shakllantirib olindi va undan tajriba jarayonida foydalanildi. Ushbu testning to‘liq variantini bemalol https://t.me/savodxon1/676 link orqali ko‘rish mumkin.

Tajriba-sinov ishlari 2019 – 2020-o‘quv yilida Farg‘ona viloyati Farg‘ona shahridagi 33-maktab, Namangan viloyati Chust shahridagi 1-maktab, Xorazm viloyati Gurlan tumanidagi 21-maktab, Andijon shahri Baliqchi tumanidagi 25-maktab, Jalaquduq tumanidagi

48-maktab hamda Samarqand viloyati Payariq tumanidagi 46-maktablarning 129 nafar 11-sinf o‘quvchilari ishtirokida o‘tkazildi.

Tajriba-sinov natijalari asosida test topshiriqlari qiyinligiga ko‘ra besh guruhga ajratildi:

– *juda oson;*
– *oson;*
– *o‘rtacha;*
– *qiyin;*
– *juda qiyin.*

Bunda respondentlar umumiy miqdoriga nisbatan topshiriqni to‘g‘ri bajarganlar ulushiga asosan guruhlarga ajratildi:

- *juda oson test topshirig‘i*ni respondentlarning *81–99* foizi;

– *oson test topshirig‘i*ni respondentlarning *61–80* foizi;

– *o‘rta darajadagi test topshirig‘i*ni respondentlarning *41–60* foizi;

– *qiyin test topshirig‘i*ni respondentlarning *21–40* foizi;

– *juda qiyin test topshirig‘i*ni respondentlarning *0–20* foizi to‘g‘ri bajargan.

Baholash nazariyasiga ko‘ra, baholash amaliyotida respondentlarning 20% idan kam qismi hamda 80% idan ko‘p qismi bajargan topshiriqlardan [2] foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanmaydi. Shu nuqtayi nazardan shakllantirilgan variantda juda qiyin (*0–20%*) topshiriqlar mavjud emasligini ko‘ramiz. Biroq juda oson (*81–99%)* topshiriqlar variant tarkibida qariyb 27% ni tashkil etadi. Ushbu topshiriqlar orqali tekshirilgan ko‘nikmalar o‘quvchilarning aksariyatida rivojlanganligi, shuningdek, ushbu mazmundagi topshiriqlar orqali o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmasini tekshirish maqsadga muvofiq emasligi aniq bo‘ladi. Mazkur topshiriqlarni umumlashtirib turgan belgilari aniqlandi, ular yordamida quyidagi ko‘nikmalar tekshirilgan:

– *matnda aniq ifodalangan ma’lumotni topa olish;*
– *matnda ochiq ifodalangan ma’lumotni tushunish;*
– *matndagi grammatik birliklarning vazifasi va mazmunini anglash;*
– *matndagi ma’lumotlardan hayotiy vaziyatda foydalana olish.*

Quyida variantdan olingan, yuqoridagi ko‘nikmalar tekshirilgan testlarni keltirib, tahlilga tortamiz:

2018-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston aholi soni bo‘yicha dunyoda nechanchi o‘rinda turadi?

Ushbu test orqali publitsistik matnda “*aniq ifodalangan ma’lumotni topa olish”* ko‘nikmasi tekshirilgan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning 99 foizi testni to‘g‘ri bajargan. Bu maktab bitiruvchilarida ona tilidagi matlarni o‘qib, unda aniq ifodalangan ma’lumotlarni topish ko‘nikmasi rivojlanganligini ko‘rsatadi. Ona tili ta’limida bu ko‘nikmani 11-sinf o‘quvchilarida na rivojlantirishga, na baholashga ehtiyoj bor. Bu kabi savollarni tuzish kerak emas.

Shu bilan birga, *“matnda ochiq ifodalangan ma’lumotni tushunish”* ko‘nikmasini tekshirish uchun xizmat qiladigan quyidagi testlarni tahlil qilamiz.

Berilgan ma’lumotlar va unga aloqador tushunchalarni o‘zaro moslashtiring.

ESLATMA! variantlarda ortiqcha javob bor.

Ma’lumotlar	Tushunchalar
26. *Bosh miyaning bu qismi jarohat olsa, o‘pka va yurak faoliyati to‘xtaydi. Inson nobud bo‘ladi.* _____ 27. *Bosh miyaning bu qismi jarohat olsa, inson ko‘rish va tinglab tushunish, yoza olish qobiliyatlarini yo‘qotadi.* _____ 28. *Bosh miyaning bu qismi jarohat olsa, inson mushaklari faoliyatida buzilish paydo bo‘ladi va tik tura olmay yiqilib tushadi.* _____	A. *Oraliq miya* B. *O‘rta miya* D. *Miya ko‘prigi* E. *Uzunchoq miya* F. *Miyacha*

Ushbu test topshiriqlarida ilmiy matndagi muhim tushunchalar haqidagi ochiq ifodalangan ma’lumotlar prafraza qilib berilgan bo‘lib, ularni moslashtirish talab etilgan. 26-, 27-, 28-topshiriqlarni respondentlarning mos holda 84%, 81%, 81% qismi to‘g‘ri bajargan. Bu bitiruvchi sinf o‘quvchilaridan ona tili ta’limi, o‘quv materiallarida *“matnda ochiq ifodalangan ma’lumotni tushunish”* ko‘nikmasini rivojlantiradigan topshiriqlar tuzish shart emasligini bildiradi. Baholash jarayonida ham bu ko‘nikmalarni tekshirish maqsadga muvofiq emas.

Yuqori natija qayd etgan testlarni ham tahlilga tortdik:

13–15. Quyidagi hukmlarning matn mazmunidan kelib chiqib to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlang.

13. *Sanjarning ota-onasi onasining axloqi yomonligi sababli ajrashib ketishgan. U otasi bilan yashaydi, ammo onasini ham sog‘inadi. Kunlardan bir kuni onasi Sanjarni ko‘rgani keldi. Otasi ularni ko‘rishtirmadi. Shu to‘g‘rimi?*

A. *To‘g‘ri* B. *Noto‘g‘ri*

14. *Sanjar dunyoga keldi. Otasi Soatov, onasi esa Temurova. Unga ota-onaning kelishuviga binoan onasining familiyasi – Temurov familiyasi berildi. Shu to‘g‘rimi?*

A. *To‘g‘ri* B. *Noto‘g‘ri*

15. *Bola dunyoga keldi. Ota-onasi kelishib unga Yusuf deb ism qo‘yishdi. Bu ism unga yoqar edi. U o‘n ikki yoshlarda edi, ular yashaydigan mahallada Yusuf degan giyohvand, aqli noqis, bezori yigit paydo bo‘ldi. Shunda ota-ona undan so‘ramasdan bolaning ismini o‘zgartirib kelishdi. Shu to‘g‘rimi?*

A. *To‘g‘ri* B. *Noto‘g‘ri*

Mazkur uchala test ham *matndagi axborotlardan foydalana olish*, ya’ni *rasmiy matndagi ma’lumotdan hayotiy vaziyatlarda foydalana olish* ko‘nikmasini tekshirish uchun mo‘ljallangan. Ulardan 13-, 15-topshiriqlarni respondentlarning mos holda 87% va 81% qismi to‘g‘ri hal etgan. Demak, til sohiblari bo‘lgan bitiruvchi sinf o‘quvchilarida matndagi axborotlardan foydalana olish ko‘nikmasi ham yaxshi rivojlangan. Biroq ta’kidlash joizki, 14-topshiriqda ham “*matndagi axborotlardan foydalana olish”* ko‘nikmasi tekshirilgan bo‘lsa-

da, ushbu topshiriqni ishtirokchilarning 67%i to‘g‘ri bajargan, mazmunan bir xil ko‘nikmani tekshirgan topshiriqlar bir xil natija qayd etmagan. Boisi ishtirokchilarga milliy mentalitet bilan bog‘liq bo‘lgan omillar ta’sir qilgan, bizningcha. Chunki savolda farzandga familiya berish masalasi hal etilmoqda. Qonunchilik bo‘yicha bu masala ota-onaning kelishuviga binoan yo ota, yo onaning familiyasini olishi mumkin. Biroq o‘zbek jamiyatida asosan farzandga otasining familiyasi beriladi. Bu omil testni to‘g‘ri bajaruvchilar miqdoriga ta’sir qilgan. Shuningdek, quyidagi test topshirig‘ida ham garchand *“matndagi axborotlardan foydalana olish”* ko‘nikmasi tekshirilgan bo‘lsa ham, uni test topshiruvchilarning 64%i to‘g‘ri bajargan. Ushbu topshiriqni ham tahlilga torib ko‘ramiz.

Bir yigit boshi bilan qattiq yiqilib tushdi va birozdan keyin hushini yo‘qotdi. Unga qanday birinchi yordam ko‘rsatish kerak?

ESLATMA. Ikkita to‘g‘ri javob bor.

A. Hushiga keltirib, suyuqlik ichirish kerak.

B. Tezda soya-salqin joyga olib o‘tish kerak.

D. Uni o‘ng yelkasi bilan yonbosh qilib yotqizish kerak.

E. Boshiga yostiq qo‘yib to‘g‘ri holatda yotqizish kerak.

F. Yotqizgach, chap oyoq-qo‘lini bukish kerak.

Ushbu topshiriqning bir xil mazmundagi topshiriqlar bilan bir xil natija qayd etmagani topshiriq metodikasi bilan bog‘liq. Demak, test topshiriqlarining qiyinlik darajasi oshishiga *testlarning metodikasi* ham ta’sir qiladi.

Endi respondentlarga qiyinlik qilgan test topshiriqlarini tahlilga tortsak. Tajribamiz natijasida aniq bo‘ldiki, 4-, 7-, 21-test topshiriqlarini bajarganlar juda kamchilikni tashkil etgan. Ular umumiy topshiriqlarning bor-yo‘g‘i 10%ini tashkil etadi. Ushbu topshiriqlar uchun umumiy bo‘lgan tomonlarni o‘rganganimizda, ularda quyidagi ko‘nikmalar tekshirilganiga guvoh bo‘ldik:

– matnda yashirin ifodalangan ma’lumotlarni idrok etish;

– matndagi verbal va vizual ma’lumotlar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni tushunish.

Quyida variantdan olingan, yuqoridagi ko‘nikmalar tekshirilgan testlarni keltirib, tahlilga tortamiz:

7. Quyidagi qaysi hukm matn mazmuniga MOS EMAS?

A. Bola o‘z otasining tutumi, xarakterini, tanlovini har doim to‘g‘ri deb bilgan.

B. Ba’zi insonlar boylik orttirish uchun hech narsadan toymasligi keltirilgan.

D. Bola tarbiyasining o‘zbeklarga xos bo‘lgan holatlari ham aks ettirilgan.

E. Polvon tog‘aning mardligi muammolarining hal bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Mazkur test topshirig‘ida matn ochiq ifodalanmagan, umuman, voqealar rivoji orqali anglashiladigan, “yashirin ifodalangan ma’lumotlarni tushunish” ko‘nikmasi tekshirilmoqda. Bu ko‘nikma yuqori kognitiv ko‘nikma bo‘lganligi bois respondentlarning 40%i testni to‘g‘ri bajargan.

21. Matn mazmuniga mos ma’lumotni aniqlang.

A. O‘zbekistonda erkaklarning o‘rtacha umr davomiyligi ayollarnikiga nisbatan yuqori.

B. O‘zbekistonda o‘tgan asrning 50-yillari boshida aholi soni o‘sishdan to‘xtagan.

D. O‘zbekiston aholisining qariyb 70 foizi mehnatga layoqatli hisoblanadi.

E. Ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 2018-yilda qariyb 160 ming o‘lim kuzatilgan.

Ushbu topshiriq orqali aralash matnni tushunish, verbal (til birliklari) va vizual (rasm, tasvir, diagramma va boshqalar) ifodalangan ma’lumotlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni idrok etish, ya’ni turli chizma, diagrammalarda ifodalangan ma’lumotlarning matndagi vazifasi, ularda ifodalangan ma’lumotlarning mazmun-mohiyatini tushunish tekshirilgan. Natija bitiruvchi sinf o‘quvchilarimiz infografikalar yordamida ifodalanayotgan axborotlarni to‘la hazm qila olmasligini ko‘rsatdi. Shuningdek, xatti-harakatlar, holatlarni talqin qilish orqali umumiy voqelikni idrok qilish yaxshi shakllanmagan.

Olib borilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Bitiruvchi sinf o‘quvchilarida o‘qib tushunishning *matnda aniq ifodalangan ma’lumotni topa olish, matnda ochiq ifodalangan ma’lumotni tushunish* ko‘nikmalari rivojlangan. Ona tili ta’limida ushbu ko‘nikmalarni rivojlantiradigan va tekshiradigan o‘quv materiallaridan foydalanish kerak emas.

2. Bitiruvchi sinf o‘quvchilarida o‘qib tushunishning *matndagi grammatik birliklarning vazifasi va mazmunini anglash, matndagi ma’lumotlardan hayotiy vaziyatda foydalana olish* ko‘nikmalari yaxshi rivojlangan. Ona tili ta’limida ushbu ko‘nikmalarni tekshiradigan topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq emas, biroq o‘quv materiallarida ushbu ko‘nikmalarni rivojlantiradigan turli metodikadagi topshiriqlardan foydalanish mumkin.

3. Bitiruvchi sinf o‘quvchilarida o‘qib tushunishning *matnda yashirin ifodalangan ma’lumotlarni idrok etish, matndagi verbal va vizual ma’lumotlar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni tushunish, matn maqsadini anglash* ko‘nikmalari yaxshi rivojlanmagan. Ona tili fanidan ishlab chiqiladigan yangi o‘quv materiallari, yangi avlod darsliklarida ushbu ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi topshiriqlar salmog‘ini oshirish kerak.

4. Test topshiriqlarining metodikasi uning qiyinlik darajasi oshishiga ham ta’sir qiladi.

5. Ona tili ta’limida bitiruvchi sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish ko‘nikmasi baholanishi kerak, biroq bu imtihon topshiriqlari tizimining oltidan bir qismidan ortiq bo‘lmasligi kerak.

6. Ona tili ta’limida bitiruvchi sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish ko‘nikmasini baholashda asosan, yuqori kognitiv ko‘nikmalar baholanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahim Sh. Ona tili ta’limida o‘qib tushunish malakasini baholash. Monografiya. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
2. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
3. Safarova R.G‘. Milliy tiklanish sharoitida O‘zbekiston maktablarida Ona tili ta’limi nazariyasi va amaliyoti: Ped. fan. dok. … diss. – Toshkent, 1998.

Zulxumor MIRZAYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori,
Nilufar KADIROVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi

O‘QUVCHILARDA TANQIDIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Adabiyot darslarida o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish bugungi adabiy ta’limning dolzarb vazifalaridan biridir. Mazkur maqolada xorij va o‘zbek olimlarining tanqidiy tafakkur tushunchasi haqidagi qarashlari qiyosiy aspektda tahlil qilingan. Qolaversa, tanqidiy tafakkurga xos xususiyatlar, uning o‘quvchilarda badiiy asarni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni, ahamiyati kabi masalalar ham tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: tanqidiy tafakkur, adabiy ta’lim, badiiy tahlil ko‘nikmasi, tanqidiy fikrlash texnologiyasi, motivatsiya.

Annotation. The development of students’ critical thinking in literature lessons is one of the achievements of modern literary education. This article analyzes the views of foreign and Uzbek scientists on critical thinking in a comparative aspect. The article also analyzes the features of critical thinking, its role and its importance in the development of students’ skills in analyzing a work of literature.

Keywords: critical thinking, literary education, artistic analysis skills, critical thinking technology, motivation.

Аннотация. Развитие критического мышления учащихся на уроках литературы является одним из достижений современного литературного образования. В данной статье анализируются взгляды зарубежных и узбекских ученых на критическое мышление в сравнительном аспекте, а также особенности критического мышления, его роль и значение в развитии навыков анализа художественного произведения у учащихся.

Ключевые слова: критическое мышление, литературное образование, навыки художественного анализа, технология критического мышления, мотивация.

Tafakkur tushunchasi, taraqqiyoti, xususiyati, rivojlanish omillariga oid qarashlar tarixda ham, ayni kunimizda ham dolzarb hisoblanadi. Chunki muayyan millatning taraqqiyoti, rivojlanishi aynan mana shu tafakkur kuchiga, tafakkur sarhadlariga bog‘liq.

Inson tafakkuri bugunga qadar ham muayyan davr, ijtimoiy-madaniy muhit yoki turli xil darajadagi aloqalar ta’sirida muntazam rivojlanib bordi, taraqqiy etdi. G‘arb va Sharqda ma’lum-u mashhur bo‘lgan buyuk allomalar, ulkan tafakkur egalari, xususan, Aristotel, Platon, Al-Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabilar tafakkurning o‘ziga xos sahifalarini kashf qildilar va dunyo ilmi rivojiga mislsiz hissa qo‘shdilar.

Tafakkur tadriji biror-bir millatning madaniy, ilmiy, ijtimoiy, global taraqqiyoti bilan bog‘liq ekan, uni to‘g‘ri, yangicha usulda shakllantirish bugunning muhim vazifalari qatoriga kiradi.

Ma’lumki, mustaqillikkacha bo‘lgan davrda milliy adabiy ta’lim ham boshqa sohalar qatorida mavjud, belgilangan mafkuraga xizmat qildi. Tanqidiy tafakkur bir yoqda tursin, o‘z fikrini mustaqil bayon etish ham imkondan xorij masala edi. Hammani bir xil fikrlashga o‘rgatgan mafkura, partiya adabiyot darslarini ham bir xil, muayyan qoliplarda o‘tishga majbur qildi va bora-bora milliy metodika mana shu qoliplar soyasida uzoq yillar rivojlanmay qoldi. Ammo mustaqillik yillaridan keyin o‘rta ta’lim adabiyot darsliklarida, umuman, adabiyot o‘qitish metodikasi sohasida sezilarli o‘zgarishlar, adabiyot darsliklarida o‘quvchilar mustaqil va ijodiy fikrlarini bayon qilishga imkon beradigan yondashuvlarga qadam qo‘yildi. Masalan, Qozoqboy Yo‘ldoshev muallifligida nashr etilgan 7-sinf Adabiyot darsliklarida sovet davridan hammani bir xil fikrlash siyosatidan “meros” bo‘lib qolgan, o‘quvchilarning erkin, xolis munosabat bildirishlariga to‘sqinlik qilgan “Asar haqida” gi bo‘limdan voz kechilib, o‘quvchilarning biror-bir asar tahliliga erkin, ma’lum ma’noda tanqidiy munosabatda bo‘lishlariga rag‘bat berildi [1]. Chunki “asar haqidagi ma‘lumotning o‘quvchi ongiga singishi, uni to‘g‘ri deb qabul qilishi, mavjud ma‘lumotning dominant (yetakchi) lik xususiyati undagi – “boshqacha bo‘lishi mumkin” degan qarashiga mone‘lik qiladi yoki eng kamida o‘quvchini fikrlashdan to‘xtatadi” [2: 15]. Yoki yaqin yillarda nashr etilgan milliy metodika taraqqiyotida munosib o‘ringa ega ustozlarimiz Qunduzxon Husanboyevtish metodikasi” o‘quv qo‘llanmasi va darsligida aks etgan yondashuvlar, muayyan mavzu mohiyatini ochib berishga qaratilgan savol va topshiriqlarda ham avvalgi asarni o‘qitishda yoki tahlil qilishda faqat faktlarga yoki voqelikka urg‘u berish emas, balki o‘quvchi, talaba yoki o‘rganuvchini fikrlashga, o‘ylashga, izlanishga majbur qiladigan savol va topshiriqlarda ham adabiyot o‘qitish metodikasi yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘yganini ko‘rish mumkin [3].

Keyingi besh yillikda o‘quvchi tanqidiy va fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan, jahon adabiy ta’lim nazariyalari tahlilga tortilgan ko‘plab o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar nashr etildi va bu jarayon hamon davom etmoqda [4]. Ushbu o‘quv adabiyotlari milliy metodikani jahon adabiy ta’limi kontekstida o‘rganish, shu asosda o‘quvchilar tanqidiy fikrlarini rivojlantirishda va eng muhimi, adabiy ta’lim sohasidagi milliy manbalarning boyishida o‘ziga xos ahamiyat kasb etganligini ta’kidlash lozim.

Umuman olganda, mustaqillik yillaridan bugunga qadar milliy metodika u yoki bu darajada taraqqiy etdi.

Ammo jamiyat rivojlanishda davom etar ekan, inson tafakkuri ham ushbu taraqqiyotga o‘z aks-sadosini berishga, taraqqiyot, globallashuv, integratsiyalashuv sabab kirib kelayotgan turli xil – xoh u ijobiy, xoh ko‘ngilni behuzur qiladigan bo‘lsin – voqea-hodisalarni to‘g‘ri tahlil qila olishga, zarur o‘rinlarda sog‘lom aql va fikr bilan munosabat bildirishga har doim tayyor turmog‘i lozim. Shu nuqtayi nazardan, o‘qitishning turli xil yangi vositalari asosida o‘quvchilarni muntazam mustaqil, tanqidiy fikrlashga o‘rgatish ta’limning eng muhim vazifasidir. Taassufki, yuqorida qayd etilgan, o‘quvchi tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlarga qaramasdan adabiyot darslarining obyekti hisoblangan badiiy asar tahliliga mustaqil, tanqidiy munosabatda bo‘lish, o‘quvchilarda tahlil ko‘nikmalarini shakllantirishga doir muammolar hali ham ta’bni xira qiladi. Vaholanki, bugungi o‘quvchi dunyoqarashi, fikrlashi, voqelikka munosabati nuqtayi nazaridan kechagidan farq qiladi. Endi ular qolipga solingan, stereotip fikrlar, hokim qarashlar, o‘zlariga tanish ma’lumotlarni qayta bayon qilib berishdek eskicha yondashuvlar bilan murosa qila olmaydi. Agar adabiyot o‘quvchilar (o‘rganuvchilar) tasavvurida ularning hayotiy ehtiyojlari o‘laroq tasavvur hosil qilmas ekan, u zerikarli va quruq g‘oyalar majmuyi bo‘lib qolaveradi.

O‘rta ta’limning asosiy maqsadlaridan biri o‘quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash, shuningdek, muayyan voqelikka tanqidiy munosabatda bo‘lish, badiiy matnni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishdan iboratdir. Mustaqil va tanqidiy fikrlash, badiiy asarni mustaqil tahlil qilish ko‘nikmalari shakllangan o‘quvchi ongli ravishda o‘z kelajagini belgilay oladi, keyingi hayot yo‘llarida o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli ado eta oladi, “salla desa kallani ko‘tarib keladigan” ijrochi emas (bunday ijrochilar bilan mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlash imkonsiz), balki chuqur tahlil asnosida muammolarga samarali yechim taklif qila oladigan mutaxassis bo‘lib yetishadi. Demak, umumiy ta’limda o‘qitiladigan har bir fan, shu jumladan, adabiyot ham yuqoridagi maqsadga xizmat qilishi – o‘quvchilarda mustaqil, tanqidiy fikrlash va tahlil ko‘nikmalarini shakllantirishi lozim.

O‘quvchilar va hatto o‘qituvchlar ham badiiy asar tahlili deganda asarni qayta bayon qilib berish yoki matn haqida ma’lumot berishni tushunadi. O‘qituvchi ham badiiy matn tahliliga muayyan shaxs (masalan, darslik muallifi, yoki fan o‘qituvchisi)ning individual xulosalari mahsuli deb qaraydi. Badiiy asarni tushunishga bunday yondashuv o‘quvchilarning tahlil imkoniyatlari, mustaqil fikr aytish ko‘nikmalarini ihotalab qo‘yadi va natijada adabiyot darslarining zerikarli o‘tishiga sabab bo‘ladi. Qolaversa, o‘quvchida badiiy asarni mustaqil, tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmasini oshirish uchun, avvalo, ularning avvalgi bilimlarini faollashtirish, yangi va eski bilimlari o‘rtasida ko‘prik hosil qilish, yangi bilimlarni o‘quvchilarda mavjud bilish sxemalariga bog‘lay olish o‘qituvchi shaxsiy qarashlarini singdirishdan muhimroqdir. Badiiy asarda aks etgan voqea-hodisalarning mazmun-mohiyatini yuzaga chiqarish, badiiy-estetik, badiiy-g‘oyaviy jihatdan tahlil qilish, eng muhimi, badiiy asar tahlili jarayonlarida faol ishtirok etishlari uchun muhit yarata olish o‘qituvchi zimmasidagi vazifadir. Demak, badiiy asarni tushunish, unga tanqidiy munosabatda bo‘lish eski va yangi bilimlarni uyg‘unlashtirish bosqichidan boshlanadi.

Keyingi paytlarda nafaqat jahon, balki milliy adabiy ta’limda tanqidiy tafakkur muhim istiloh sifatida maydonga chiqdi. O‘rganuvchilar (talabalar, o‘quvchilar) ning tanqidiy, mustaqil fikrlash va asarni mustaqil tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, rivojlantirish milliy ta’limning muhim maqsadlaridan biri sifatida belgilab berildi.

Mavjud manbalarda aytilishicha, “Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish” texnologiyasi [1] XX asr oxirida AQShda Charlz Templ, Djinni Stil, Kertis Meredi tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur texnologiya jamoaviy va kichik guruhlarda ishlash usullarini o‘rgatuvchi metod va g‘oyalarni saralovchi, rivojlantiruvchi ta’lim, o‘qish va yozish jarayonida axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradigan yaxlit tizimdir. Tanqidiy fikrlash – inson intellektual faoliyatining turlaridan biri bo‘lib, bugungi kunda jamiyatni o‘rab turgan axborot maydonini yuqori darajada idrok etish, tushunish, muayyan muammoga yondashishning obyektivligi bilan ham xarakterlanadi.

Yana boshqa bir manbalarda o‘rganish jarayonini samarali tashkil etish va darslarni o‘quvchilar uchun qiziqarli qilish vositalaridan biri bo‘lmish “O‘qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish” texnologiyasi 1980-yillarda Amerika Qo‘shma Shtatlarida Piaje, Vigotskiy va boshqa pedagog olimlarning nazariy qarashlari asosida yuzaga kelganligi qayd etilgan.

Ushbu mavzuda olib borilgan tadqiqotlarni o‘rganish natijasida “tanqidiy tafakkur” tushunchasi, mazmun-mohiyati L.S. Vigotskiy, J. Piaje, D. Xalpern, E. G‘oziyev va yana ko‘plab mashhur psixolog olimlar, pedagog, metodistlar ishlarida keng va atroflicha tahlil qilinganligi ma’lum bo‘ldi. Jumladan, Diana Xalpern o‘zining “Tanqidiy tafakkur psixologiyasi” nomli kitobida (“Психология критического мышления”) tanqidiy tafakkurga quyidagicha ta’rif beradi: “Tanqidiy tafakkur (fikrlash) bu muammoni hal qilish, mantiqli qaror qabul qilish, to‘g‘ri xulosa chiqarish, xulosalarni asoslash, ijobiy natijaga erishish ehtimolini oshiradigan kognitiv usullar yoki mavjud bilimlar strategiyalari, ko‘nikmalardan foydalanishdir” [5]. D. Xalpern o‘z tadqiqotlarida tanqidiy fikrlashni, uning rivojlanish qonuniyatlarini tahlil qilib, tanqidiy tafakkurni o‘stirishga qaratilgan ko‘plab samarali usullarni ishlab chiqadi. Bugungi kunda Diana Xalpern taklif qilgan, tanqidiy tafakkurni o‘stirishga qaratilgan usullarda “nima o‘rgatish” emas, balki “qanday o‘rgatish” tamoyili yetakchilik qiladi.

Yana bir mashhur psixolog olimlardan biri Lev Vgotskiy tanqidiy fikrlash ko‘nikmasi shakllangan o‘quvchilarni quyidagicha ta’riflaydi: ”Tanqidiy fikrlash ko‘nikmasiga ega o‘quvchi muayyan axborot xabarini sharhlash va uni baholashning turli usullarini biladi, matn strukturasi, undagi ziddiyatlarni tasnif qilib, na-

faqat mantiqqa, balki suhbatdoshining g‘oyalariga, o‘z qarashlari, nuqtayi nazarlariga tayanib bahsga kirisha oladi. Qadriyatlar, urf-odatlar, muayyan tutumlar asosida atrof-muhitning ko‘p qutbliligini o‘z holicha qabul qilib, axborot maydonlari bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘ladi” [6].

Lev Vgotskiyning fikrlaridan ma’lum bo‘ladiki, tanqidiy fikr yoki tanqidiy fikrlash inson tafakkurining eng oliy va tayanch nuqtasi bo‘lib, u muayyan g‘oyalar, ma’lumotlar bilan o‘zaro tas’ir qilish, munosabatga kirishish orqali yuzaga chiqadi. Adabiyot darslarining obyekti hisoblangan badiiy asar tahlilida o‘quvchilar ko‘plab muammolar, tanlovlar, mustaqil qaror qabul qilish jarayonlariga duch keladilar. Ayni paytda, talabalar axborotni shunchaki o‘zlashtirib olish yoki badiiy asar mazmunini “tushunish”, “yodlab olish” bilan chegaralanmasliklari, ularni tanqidiy baholay olishlari, hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari, noto‘g‘ri ma’lumotlar, qarashlar yoki o‘z nazdida “qoniqarsiz” hisoblangan xulosalarga aniqlik kiritishlari, to‘g‘ri ma’lumotlarni taqdim etish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak.

Amerikaning Michigan universiteti professori Devid Kluster tanqidiy tafakkurning besh xususiyati haqida to‘xtaladi.

Birinchisi, tanqidiy fikrlash bu mustaqil fikrlash bo‘lib, agar dars tanqidiy tafakkur tamoyillari asosida tashkil etilsa, o‘quvchining fikrlashi uchun erkinlik muhiti yaratilsa, har bir o‘quvchi o‘z g‘oyalari va baholarini erkin ravishda shakllantiradi va bayon etadi. Tanqidiy fikrlash individual xarakterga ega ekanligi bilan tafakkurning boshqa ko‘rinishlaridan farq qiladi.

Ikkinchisi, berilgan axborot va ma’lumotlar o‘quvchi tomonidan qabul qilinib, o‘zlashtirilib bilimga aylansagina uning tanqidiy fikrlashiga turtki (motivatsiya) beradi. O‘quvchi tanqidiy fikrlashi uchun g‘oyalar, nazariyalar, tushuncha va ma’lumotlarni tahlil qilishi, saralashi, qayta ishlab chiqishi lozim. Egallangan bilimlar tanqidiy fikrlash uchun asos bo‘ladi.

Uchinchisi, tanqidiy fikrlash muammo qo‘yish, savollar bilan murojaat qilishdan boshlanadi. Muammoli ta’limni yo‘lga qo‘yish, ya’ni o‘quvchilar ongini ma’lum bir hayotiy muammoni yechish bilan band etish tanqidiy fikrlash uchun asos bo‘ladi. Diqqat-e’tibori bilan konkret muammoni yechishga harakat qilayotgan o‘quvchilar unga turli rakursdan qarab yechim topishga urinadilar.

To‘rtinchisi, tanqidiy fikrlayotgan o‘quvchi muammoni shaxsiy yechimi, asosli dalillar bilan quvvatlashga, isbotlashga harakat qiladi. Garchi tengdoshlari tomonidan taklif etilayotgan yechimlar boshqacha bo‘lishi mumkinligini bilsa ham, o‘zi tanlagan yechimi to‘g‘ri va oqilona ekaniga ishontirish uchun harakat qiladi.

Beshinchisi, tanqidiy fikrlash ijtimoiylik xarakteriga ega. Har bir fikrlovchi o‘quvchi o‘z fikr va yechimlarini jamoasi yoki guruhdoshlari bilan bo‘lishadi, natijada u jamoatchilik sinovidan o‘tkaziladi. Ular bilan fikr asosida bahsga kirishilganda, muhokama etilganda o‘quvchining qarashlari tahrir qilinib, yanada sayqallashib, boyib boradi. Natijada o‘quvchi tanqidiy fikrlashda o‘z pozitsiyasini qat’iy belgilab oladi [7].

Bugungi kunda o‘quvchilarni mustaqil, tanqidiy fikrlashga o‘rgatish zamirida shu asosda davlat va jamiyatga yuksak badiiy did egalarini yetishtirib berish, milliy va global tafakkurga ega shaxslar rag‘batida mamlakatni rivojlantirish, taraqqiy etish maqsadi yotadi. Chunki tanqidiy tahlil ko‘nikmasiga ega o‘quvchida mustaqil fikrga rag‘bat, o‘zga g‘oyalarga qarshi immunitet rivojlanadi. “Har bir hodisa yuzasidan o‘z fikr va qarashiga ega bo‘lgan, o‘z xulosalarini chiqarib, ularni asoslay bilgan odam hech qachon o‘zgalarga tobe bo‘lmaydi. Jiddiy masalalar hal etilayotganda beparvolik, loqaydlik qilmaydi, taqdirini o‘zgalar hal qilib yuborishiga yo‘l qo‘ymaydi. Fikr kishisi biror faoliyatni boshlashdan oldin o‘ylab ko‘radi, tahlil qiladi” [8: 20]. Holbuki, har bir bola tabiatida qiziquvchanlik xususiyati mavjud bo‘lib, u dunyoni o‘rganishni, uni turli xil ranglarda ko‘rishni istaydi. U o‘rganish jarayonida turli xil murakkab muammolarga duch keladi va mazkur muammolar yechimida o‘ziga xos fikrlar berishga tayyor. O‘qituvchining vazifasi – o‘quvchining fikrlash jarayoniga yordam berish. Tanqidiy fikrlash birinchi navbatda bahs-munozara, matn bilan faol ishlash va yozish orqali shakllanadi. Texnologiya mualliflarining fikricha, tanqidiy fikrlar alohida olingan ko‘nikma emas, balki ko‘nikma va malakalar majmuyi bo‘lib, qiziquvchanlikni namoyish qilish, o‘z oldiga savollar qo‘yib, bu savollarga tadqiqot yo‘li bilan javoblar qidirish, sabab va oqibat bog‘lanishlarini tahlil qilishdir.

O‘rganuvchilarda tanqidiy fikrlashni o‘rgatish vazifasi adabiyot darslari zimmasiga tushadi. Xususan, adabiyot darslarida amalga oshiriladigan badiiy asar tahlili bolani o‘z shaxsiy fikriga, munosabatiga ega bo‘lib borishini ta’minlaydi [9]. Ammo ayni damda adabiy ta’lim mazmunining asosini tashkil etayotgan “tanqid” so‘ziga ehtiyotroq munosabatda bo‘lish talab etiladi. Yanayam aniqroq qilib aytganda, “tanqid” deganda biror-bir asarni qoralash, undan faqat salbiy jihatlarni qidirish, har qanday fikrni inkor etib, o‘z qarashlari to‘g‘ri ekanligiga urinish emas, balki o‘z dunyoqarashi, idroki darajasida muayyan asarni tahlil qilish, mustaqil qarashlariga ega bo‘lish lozimligini o‘quvchilarga anglatish lozim.

O‘zbek adabiy ta’limi taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan – ustoz – Qozoqboy Yo‘ldoshev tanqidchilik so‘zining mohiyatiga, “tanqid” atamasiga e’tibor qaratish va bu borada muayyan to‘xtamga kelish maqsadga muvofiqligini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, “arab tilida “tanlab olish, saralash” hamda “tanqidiy tekshirish va tanqid qilish” ma’nolarini anglatadigan, نقد *naqada* o‘zagidan olingan “tanqid” va undan yasalgan “tanqid qilish, ayblash” ma’nolaridagi تنقيد *tanqidun* hamda bundan kelib chiqqan va “tanqid qiluvchi, tanqidchi” ma’nosidagi ناصنق *munaqqid* atamalari ushbu estetik hodisa mohiyatini aniq va to‘liq ifodalay olmaydi. Buning o‘rniga o‘z tilimizda bor va qozoq hamda qirg‘iz qardoshlar tomonidan ham ishlatilib kelinayotgan baholash ma’nosidagi “sin” so‘zi va shu yumush bilan shug‘ullanadigan kasb egasini anglatadigan “sinchi” atamasini qo‘llash maqsadga muvofiqroq bo‘lardi [10: 44].

Yuqorida qayd etilgan “tanqidiy tafakkur”ga berilgan turli xil fikrlar, ta’riflar, qarashlar va xulosalardan tanqidiy fikrga xos xususiyatlarni quyidagicha tasniflash mumkin. Demak, tanqidiy tafakkur:

– muayyan badiiy asar haqidagi avvalgi fikrlar tasdig‘i va inkorini matn orqali tekshirish, mavjudlari yoki tajribalar asosida yangilarini yaratish;

– ochiq qolgan savollarga javob izlash, badiiy asarni bugungi kun talablari, zamonaviy tahlil usullari nuqtayi nazaridan qayta ko‘rib chiqish va eski talqinlar bilan qiyoslash;

– ma’lumotlarni turli xil kontekstlarda tekshirish, sharhlash, asardagi sabab va oqibat zanjirini turfa rakurslarda baholash, mulohaza yuritish orqali mantiqli qarorlar qabul qilish, fikrlarini dalillash.

Milliy va jahon olimlarining tanqidiy fikr, tafakkurga oid fikrlaridan mazkur tushunchaning keng qamrovli ekanligi, intellektning boshqalardan farqli tarzda inson faoliyatini idrok etish, tushunish, yon-atrofida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga obyektiv munosabatda bo‘lish, to‘g‘ri, mantiqli o‘ylashga, fikrlashga undaydigan savollar berish, fikrlarni asoslab bera olish ko‘nikmalarini rivojlantirish qobiliyatidir degan xulosaga kelish mumkin. Tanqidiy tafakkur ko‘p holatlarda o‘quvchilarni murosasiz bahs-munozaralarga, tortishuvlarga olib kelishi nuqtayi nazaridan ham ko‘pchilikda salbiy munosabat uyg‘otishi, tabiiy. Demak, o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarida “tanqid”, “tanqidiy tafakkur”ga oid bilimlarni shakllantirishdan avval uning tub mohiyatini yaxshi anglab olishi lozim.

O‘quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish, adabiyot darslarida badiiy asarni o‘qish bosqichidan uni uqishigacha, badiiy g‘oyaviy zalvori, xususiyatlarini idrok etishgacha bo‘lgan jarayonlar o‘rganuvchidan va ayni damda o‘rgatuvchidan ham jiddiy mehnat talab qiladi. O‘quvchi muayyan badiiy asarni tahlil qilish bosqichidan, uni baholash, tanqidiy tafakkur o‘laroq taftish qilish bosqichiga o‘tishi uchun:

1) badiiy asarni uqish – uni o‘qishdan ko‘ra muhimroq ekanligini anglashi lozim. “O‘qish, uqish jarayonidagi ijodda aql-hush yetakchilik qiladi. Aniqrog‘i, kitobxon matnni yaxlit qabul qiluvchi, o‘zlashtiruvchisiga aylanadi. Asarni o‘qish, aslida o‘zi uchun uni yangitdan kashf etishdir. Kitobxon voqealarga aralashadi, qahramonlarni jonlantiradi, ularning gap so‘zlarini eshitadi, ruhiy holatlarini yurakdan his etadi” [11:13]. Ayni shu holatda badiiy matn estetik zavq manbayiga aylanadi. Zotan, o‘quvchida badiiy tahlil malakasi, tanqidiy, chuqur, mantiqli va ijodiy fikrlash ko‘nikmasi, asar mohiyatini anglash idroki shakllanmasa, u asarni shunchaki ko‘rib chiqadi, uquvsiz o‘quvda esa sujet voqealari bilan tanishadi, qahramonlar taqdiri haqidagi axborotga ega bo‘ladi, nari borsa asar janrini, uning nima haqida ekanligini anglash bilan cheklanadi. O‘quvchilardagi biror bir badiiy asar tahliliga chuqur kirolmaslik, qolipga solingan fikr-qarashlarga ergashish, mustaqil fikrini erkin bayon qilolmaslik, o‘quv dasturlariga tanqidiy fikrlashga oid mavzularning kiritilmasligi kabi xususiyatlar, bizningcha, aksar holatlarda adabiyot darslarini zerikarli o‘tishiga sabab bo‘ladi. Qolaversa, adabiyot darslarida tanqidiy fikrlash ko‘pchilik hollarda g‘arb jamiyatidagi kabi qadrlanmasligi o‘quvchi va talabalarning mustaqil izlanishiga bo‘lgan rag‘batiga ham putur yetkazadi.

2) badiiy tahlilda fikrlarini tizimlashtira olishi lozim. Odatda inson ongida fikrlar kutilmaganda va tartibsiz vujudga keladi. Inson mazkur fikrlarni tartib, bir maqsadga yo‘naltira olishi muhim hisoblanadi. Fikrlarni to‘g‘ri tizimlashtira olish qobiliyatiga Xalpern o‘ziga ishonch belgisi sifatida qaraydi. Chindan ham adabiy ta’lim jarayonlarida, xoh u oliy ta’lim talabasi bo‘lsin, xoh umum o‘rta ta’lim o‘quvchisi fikrni ifodalashda poyma-poylik, notizimlilik, fikriga nisbatan ishonchsizlik holatlari kuzatiladi. Buning oqibatida bildirilgan fikrlar to‘laligicha anglashilmaydi va bu jarayonda o‘quvchi yoki talabaning o‘zi ham fikrni oxirigacha yetkazish, asoslash va qat’iy xulosalar berishdan chekinadi.

3) muayyan muhitga moshlashuvchanlik yoki boshqalarning fikriga nisabatan bag‘rikenglik (tolerantlik) xususiyatiga ega bo‘lishli zarur.

Ma’lumki, yaxshi badiiy asar mutlaq haqiqatlardan iborat bo‘lmaydi, uning o‘ziga xosligi, zalvori ham shunda. Mana shunday fikrlar xilma-xilligida, aksar holatlarda o‘quvchilar partadoshi yoki sinfdoshining “boshqacha” fikrlari bilan kelisholmaydi, hatto ba’zida bu jiddiy konfliktlarga olib keladi. Qizig‘i, bunday holatni nafaqat maktab yoki oliy ta’lim o‘rganuvchilari, balki mutaxassislar, adabiy tanqidchilar, adabiyotshunoslar o‘rtasida ham kuzatish mumkin. Aytaylik, Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning mashhur “Oydan-da go‘zal…” she’rini ayrim adabiyotshunoslar “Cho‘lpon bu she’rda Alloh jamolini kuylamoqda”, desalar, yana boshqa guruhga xos olimlar bu fikrni inkor etib, “bu she’rda Cho‘lponning o‘z muhabbatini, go‘zal yorini kuylamoqda” degan fikrlarini bildiradi. Yoki 1990-yillarda adabiyotshunoslarning tahlil markazida bo‘lgan Abdulla Oripov qalamiga mansub “Tilla baliqcha”ga oid murosasiz bahslar, biri ikkinchisini inkor etuvchi xulosalar ham biz yuqorida ta’kid etgan, turli xil qarashlarga, fiklarga nisbatan bag‘rikenglik yoki moslashuvchanlikning kutilgan darajada shakllanmaganligi natijasidir. “Agar talaba (shu jumladan, har qanday mutaxassis) boshqalarning g‘oyalarini qabul qilishga tayyor bo‘lmasa (agar bu fikr va g‘oyalar mantiqiy asosga ega bo‘lsa, hayotiy dalillar va faktlar bilan ko‘rsatib berilsa, ta’kid bizniki Z.M., N.K.) u hech qachon o‘z g‘oyalari va fikrlarining generatoriga aylana olmaydi [12]. Moslashuvchanlik, ma’lumotlarni oxirigacha analiz va sintez qilish, so‘ngida eng yaxshi, to‘g‘ri va mantiqli xulosalar chiqarish uchun imkoniyat yaratadi.

4) qat’iyatlilik kerak. Ko‘p holatlarda o‘quvchilar biror-bir og‘ir vaziyat yoki tahlil jarayonida har tomonga bosib ketadigan talqinlar yuzasidan qarorlar qabul qilishda muammoga duch keladilar, ikkilanadilar. Shu paytda aksar holatlarda o‘qituvchi o‘quvchilarning qarorlarini keyingi darslarga qoldiradilar. Bu “surish” ba’zida yaxshi natijaga (talaba keyingi darsga qadar yana izlanishi, yangi bilimlarga tayanib, o‘z xulosasini qat’iylashtirishi mumkin) xizmat qiladi, ba’zida esa, ayniqsa,

qat'iyatsiz o'quvchilarda yanada avj olishiga ham xizmat qilishi ehtimoldan xoli emas.

5) o'z xatolarini ko'ra olishi va tuzatishga harakat qilishi harakat. Tanqidiy fikrlaydigan o'quvchi hech qachon o'zining noto'g'ri qarorlarini oqlamaydi, balki to'g'ri xulosalar chiqarib, noto'g'ri qarorlaridan keyingi rivojlanishi uchun o'zida muayyan immunitet, ko'nikmalar hosil qiladi [12].

6) ogohlik zarur. Ogohlik tahlil, to'g'ri qaror qabul qilish, tanqidiy fikrlash mahoratini o'stiradigan eng muhim xususiyat.

7) murosa madaniyati (murosa falsafasi)ga amal qilishi darkor. Muhim ahamiyatga ega so'nggi qarorlar, odatda, boshqalar tomonidan qabul qilinadi, xulosalanadi.

Tanqidiy fikrlashning asosiy xususiyatlari badiiy asar tahlili orqali yuzaga chiqadi, chunki birinchidan, badiiy asar mutolaasi o'quvchilardan fikr, ayni damda, tanqidiy fikr ko'nikmasini talab qiladi, chunki badiiy asar mutolaasi jarayonida inson miyasidagi sxemalar harakatlanadi va bir butunlikda muayyan g'oya va fikrlarni yaratadi, hosil qiladi. Ikkinchidan, badiiy matnning avvalgi talqinlaridan farqli ravishda yangi ma'nolarini yaratishda o'quvchilar avvalgi bilim va tajribalarini eslashlari, qayta tiklashlari va albatta, mulohaza yuritishlari lozim. Bunda ular adabiy fakt va fikr o'rtasidagi farqlar, munosabat, matnning yuza qismidagi va matn ostidagi ma'nolarni anglashi, badiiy asardagi tasvir vositalari, dudmallik, ikki fikrlilikka, muallif uslubiga xos xususiyatlarni tushunishi, ajrata bilishi, badiiy matnda aks etgan ohang, kayfiyatni aniqlashi, unga matndan dalillar keltirish, muayyan voqelik va harakatlar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarni topishi, ularni tasniflashi, turli xil ma'no qatlamlarini idrok eta olishi, tafsilotlardan inferensial munosabatni aniqlashi, mantiqli, adolatli xulosalar chiqara olish va eng muhimi, bu jarayonlardan olgan xulosalari, qarashlarini o'z faoliyatida, hayotiy ehtiyoji o'laroq qo'llay bilishi ham muhim. Badiiy matnni tushunish, anglash jarayonlarida "bilish", "tushunish", "tushuntirish", "talqin", "analiz", "sintez", "argumentatsiya", "baholash", "muammo yechish", "xulosa qilish", "mantiqiy fikrlash" va "qo'llash" kabi fikrlashga rag'bat beradigan muayyan bosqichlar faqat "Adabiyot" darslarigagina xos xususiyatlardir. Shuning uchun ham Lazere "Adabiyot ... barcha sohalarni qamrab olishga qodir yagona akademik fandir" degan fikrni aytadi [13: 3]. Badiiy asarda kitobxon va badiiy matn o'rtasida o'ziga xos g'ayrioddiy jarayonlar yuz beradi. Badiiy asarni o'qish jarayonida o'quvchi ma'lum taassurotlarni boshdan kechiradi, asar voqealari unga "ta'sir qiladi" va o'quvchi badiiy tafakkurining uyg'onishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'quvchi matnning affektiv (hissiy) ta'siri bilan bir qatorda, ma'noviy tomonini ham o'zlashtiradi: o'zining lisoniy imkoniyati, estetik va hayotiy tajribasidan kelib chiqib, u yoki bu qahramonni baholaydi, munosabat bildiradi. Binobarin asarning mazmuni faqat uni ma'lum bir o'quvchi tomonidan o'qish jarayonidagina shakllanadi. Asarning tag qatlamiga yashiringan g'oyalar ham aynan kitobxonning badiiy asarga turli rakurslardan yondashishi asnosida kashf qilinadi. O'qituvchining aralashuvi cheklangan holda o'quvchining o'quvchi asar voqealariga kirishib, ularga real guvoh bo'ladi va asar sujetini o'zining talqini orqali qayta "tuzadi". Bunda adabiyotga ijro san'ati sifatida qaralib, har bir o'quvchi mutolaa tajribasi asosida o'ziga xos, ehtimol, noyob matnni yaratadi. Bunda yozuvchi estetikasi emas, kitobxon (retsipiyent) qarashi, tafakkurining hosilasi sifatida diqqat markazda bo'ladi.

Tanqidiy tafakkur o'quvchining shaxsiy hayot tajribasida mavjud dogmalar yoki stereotip qarashlar bilan murosa qilmaydi, muayyan qoidalardan tashqarida bo'lgan yangi g'oyalarni kashf qiladi, muayyan faktlar bilan cheklanmaydi. Ma'lumotlarning hajmi yoki miqdori bilan emas, balki ularni qabul qilish yoki modellashtirishga, iste'molchilikka emas, balki yaratish yoki hamkorlikka rag'bat beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tanqidiy fikrlash – o'quvchiga kelajakda shaxs sifatida kamol topishiga, kasbiy rivojlanishining shaxsiy yo'llarini aniqlashga, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, uni umumlashtirish va mustaqil xulosalar chiqarish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradigan ijodiy jarayon. U o'quvchi uchun nafaqat kognitiv faoliyatda, balki kundalik hayotda ham eng muhim xususiyat sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldoshev Q. Umumta'lim maktablarining 7-sinf o'quvchilari uchun "Adabiyot" darsligi. – Toshkent, 2005.
2. Mirzayeva Z, Jalilov K. Adabiyot o'qitish metodikasi. An'anaviylikdan zamonaviylikka. – Toshkent, 2020.
3. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. 2020.
4. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2023.
5. Халперн Д. Психология критического мышления. – Санкт-Петербург: Питер, 2000. С.18.
6. Вготский Л.С. Педагогическая психология. – Москва АСТ. Астрель, люкс. 2005.
7. Клустер Д. Что такое критическое мышление? // Русский язык, 2002.
8. Husanboyeva Q. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari: Ped. fan. dok... ilmiy darajasini olish uchun diss. – Toshkent, 2006.
9. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent.: Innovatsiya-ziyo, 2020.
10. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishni yangilash metodikasi. O'quv -uslubiy majmua. – Toshkent, 2022.
11. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. – Toshkent: Fan, 2006.
12. Халперн Д. Психология критического мышления. – Санкт-Петербург: Питер, 2000.
13. Lazere D. Critical Thinking in College English Studies, ERIC Digest. ED 284275, 1987.

Aqmaral NISANBAYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
boshlang‘ich ta’limda ona tili va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi
o‘qituvchisi, pedagogika fanlari nomzodi, professor

YOSH PEDAGOGLARDA MAHORAT OSHIRISH MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirish zarurligi, ularning nutqiga qo‘yilgan talablar va yechimlar misollar asosida dalillab ko‘rsatilgan.
Kalit so‘zlar: kasb-hunar, yo‘nalish, mutaxassis, fundamental fan, tarbiya, psixologiya, pedagogika, muallim, bilim, san’atkor, tarbiyachi faoliyati, qobiliyat, perseptiv qobiliyat, idrok, xotira, didaktik qobiliyat, empatik qobiliyat, psixik, konstruktiv qobiliyat.
Annotation. The article shows the development of pedagogical skills in future teachers, the requirements and solutions for their speech based on examples.
Keywords: profession, direction, specialist, fundamental science, education, psychology, pedagogy, teacher, knowledge, artist, educational activity, ability, perceptive ability, perception, memory, didactic ability, empathic ability, psychic, constructive ability.
Аннотация. В статье на примерах показано развитие педагогических умений будущих учителей, требования к их речи.
Ключевые слова: профессия, направление, специалист, фундаментальная наука, образование, психология, педагогика, педагог, знание, художник, учебная деятельность, способность, познавательная способность, восприятие, память, дидактическая способность, эмпатическая способность, психическая, конструктивная способность.

Pedagoglik kasbini tanlagan har bir o‘g‘il-qiz shu kasbni sevish yoki sevmasligi to‘g‘risida o‘ziga savol beradi, yoshlarni o‘qitayotgan va tarbiyalayotgani uchun o‘ziga javobgarlikni oladi. Bundan tashqari, u o‘zining kasbiy tayyorgarligiga javob berish bilan birga pedagog, o‘qituvchi, tarbiyachi, muallim bo‘lish huquqiga ega bo‘lishi uchun juda ko‘plab majburiyatlarni olishi zarur. Muallimlik nafaqat o‘qituvchi, turli bilimlarni o‘rgatuvchi va mohir tarbiyachi bo‘lishi, balki uning o‘zi tanlagan kasb-hunar yo‘nalishidagi barcha mutaxassisliklar bo‘yicha o‘qitishi va tarbiya berishi, psixologiya va pedagogika asoslarini a’lo darajada egallashi shart. Shu bilan birga, haqiqiy muallim turli darajadagi bilim, xohish va iroda, tarbiyaga ega bo‘lgan talabalarni ajoyib san’atkor kabi o‘ziga ergashtira olishi zarur. Bunday kasbiy pedagogik xususiyatga ega muallim o‘ziga quyidagi majburiyatlarni olishi kerak: birinchidan, bo‘lajak o‘qituvchi, tarbiyachi bo‘lajak pedagoglik faoliyati uchun o‘zining imkoniyatlarini baholashi, o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlarini bilishi, kasbiy pedagogik tayyorgarlik davrida kasbiy zaruriy sifatlarni shakllantirishi; ikkinchidan, bo‘lajak pedagog intellektual faoliyatning umumiy tomonlari (tafakkur, xotira, qabul qila olish, ko‘z oldiga keltira bilish), xulq-atvor madaniyatini egallagan bo‘lishi shart; uchinchidan, pedagog uchun majburiy dastlabki shart-sharoit – muvaffaqiyatli faoliyat asosi bo‘lgan o‘quvchini o‘zining tengquri deb qarashi ular bilan o‘zaro aloqadagi qonun-qoidalarni bilishi kerak. Pedagog o‘quvchi va tarbiyalanuvchini, uning barcha xususiyatlaridan qat’i nazar, bilishi va qabul qilishi shart; to‘rtinchidan, pedagog talabalar o‘qish faoliyatining tashkilotchisi va o‘qish jarayonini tashkil etuvchilarning o‘zaro aloqasini ilhomlantiruvchi bo‘lib xizmat qilish bilan birga ma’lum ma’noda bilim, tarbiya berish va, demak, umumiy maqsadlarga erishishda ularning tengdoshi sifatida qatnashishi zarur. Zero, masalaning yana bir muhim tomoni borki, bo‘lajak o‘qituvchi pedagogik qobiliyatga ega yoki ega emasligida. Vaholanki, har bir kasb qobiliyat orqali egallanadi va mukammal o‘rganiladi. Bu esa talabalar oldiga doimo o‘zlarining pedagogik-psixologik bilimlarini o‘zlashtirib, rivojlantirib borishlari va ulardan pedagogik amaliyotlarda samarali foydalanishga intilishlarini yuzaga keltiradi.

Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Qobiliyatni rivojlantirish uchun esa layoqat, zehn, iste’dod, ya’ni nerv tizimida anatomik-fiziologik xususiyat bo‘lishi ham zarur.

Pedagogik qobiliyat falsafiy tushuncha sifatida ilk bor XIX asr o‘rtalarida paydo bo‘lgan. A.Disterverg pedagogik qobiliyatning kuchi, uning erkin faoliyatiga baho bergan, o‘qituvchining chuqur bilimga ega bo‘lishi qobiliyatli ekanligidan dalolat berishini ta’kidlaydi. XIX asrning ikkinchi yarmida P.G.Redkin “axloqiy qobiliyat” tushunchasini ilgari surdi. Disterverg, Redkin fikrlarini K.D.Ushinskiy davom ettirdi. K.D.Ushinskiyga ko‘ra, “odamni tarbiyalashning eng asosiy yo‘li ishontirishdir, odamning e’tiqodiga esa faqat ishontirish bilan ta’sir qilish mumkin”. Makarenko o‘z tajribasiga asoslanib, agar har bir kishi qunt bilan mehnat qilsa, u o‘ziga nisbatan talabchan bo‘lsa, yaxshi pedagog bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi.

Shu o‘rinda savol tug‘iladi: pedagogik qobiliyat o‘zi nima? Pedagogik qobiliyat – qobiliyat turlaridan biri bo‘lib, kishining pedagogik faoliyatga yaroqliligi va shu faoliyati bilan muvaffaqiyatli shug‘ullana olishini aniqlab beradi. K.D.Ushinskiy “Faqat shaxsgina shaxsning rivojlanishi va tarkib topishiga ta’sir qilishi mumkin, faqat xarakter ta’siri bilan xarakterni vujudga keltirish mumkin”, deb yozgan edi.

O‘qituvchining kasbiy qobiliyati favqulotda umumiy va xususiy qobiliyatlarni talab qiladi. Kasbiy-pedagogik

faoliyatning muvaffaqiyati xususiy pedagogik qobiliyatlarga bog‘liq bo‘ladi. Pedagogik qobiliyatlar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

– kommunikativlik – insonlarga yuz tutish, xayrixohlik, xushmuomalalilik;

– perseptiv qobiliyat – idrok jarayonining asosiy tuzilishi, birinchi bo‘lib idrok obyektlarini bilib olish va uni xotira obrazlari bilan solishtirish;

– didaktik qobiliyat – o‘quvchilar bilan muloqot qilishni o‘rgangan holda ta’lim jarayonini amalga oshirish;

– empatik qobiliyat – boshqa odamlarning psixik holatlarini tushunish va ularga hamdardlik qilish (birgalikda dardlashmoq);

– konstruktiv qobiliyat – o‘qituvchining o‘z ishini rejalashtira olishi;

– didaktik qobiliyatlar – bolalarga o‘quv materiallarini aniq va ravshan tushuntirib, oson qilib yetkazib berish, bolalarda fanga qiziqish uyg‘ota olish. Didaktik qobiliyatlarga ega o‘qituvchi zarurat tug‘ilganda qiyin o‘quv materialini osonroq, murakkabrog‘ini soddaroq, tushunish qiyin bo‘lganini tushunarliroq qilib o‘quvchilarga moslashtirib bera oladi;

– tashkilotchilik qobiliyati – o‘quvchilar jamoasini uyushtira bilish, bunday jamoani jipslashtira olish va o‘zining shaxsiy ishini to‘g‘ri tashkil qila olish qobiliyati.

Pedagogning bilish qobiliyati:

1) o‘qituvchiga xos bo‘lgan bilimlarni o‘qitish va tarbiya usullarini yangi pedagogik sharoitda ham o‘tkaza olish;

2) har bir pedagogik holat uchun yangi yechimlarni topa bilish;

3) aniq pedagogik vaziyatlarda yangi pedagogik yechimlar va ideallarni taklif eta olish hamda yangisini yechish usullarini topa olish [1: 86].

Anglash (tushunish, xususiy barqarorlik) – tushunib ongli harakat qilish, o‘zini boshqara olish.

Pedagogik xususiy qobiliyatlarga bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallash faoliyati va shaxsni tarbiyalash qobiliyati ham tegishlidir.

O‘qituvchining o‘rganish va o‘rgatish bo‘yicha qobiliyatlariga quyidagilar kiradi:

– metodlarni yetarli bayon qilish, uning barcha talabalarga tushunarliligini ta’minlash;

– o‘quvchilarning individualligini hisobga olgan holda o‘qitish jarayonini tashkil etish;

– o‘qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish;

– o‘zining pedagogik mahoratini takomillashtirish; o‘z tajribasini boshqarish bilan baham ko‘rish;

– mustaqil ta’lim olish va mustaqil takomillashish.

Pedagogik jarayonga qaratilgan umumiy pedagogik qobiliyatlarga quyidagilar kiradi:

– taqlid qilish uchun namuna bo‘lish;

– tarbiya jarayonida individual xususiyatlarni inobatga olish;

– muloqotning lozim topgan uslubini, o‘z o‘rnini topish, kelisha olish;

– hurmat qozonish, o‘quvchilar o‘rtasida obro‘ga ega bo‘lish;

– nutq qobiliyati [2: 168–176].

Darsda qobiliyatli o‘qituvchining nutqi hamma vaqt o‘quvchilarga qaratilgan bo‘ladi. O‘qituvchi yangi materialni tushuntiradimi, o‘quvchilar javobini sharhlab beradimi, o‘quvchilar javobi, ularning xatti-harakatlari yoki xulq-atvorini ma’qullaydimi yoki tanbeh beradimi, xullas, nima qilishidan qat’i nazar, nutqi hamma vaqt o‘zining ishonchliligi, jozibadorligi kabi ichki quvvati bilan alohida ajralib turishi lozim. O‘qituvchining nutqi, uning talaffuzi aniq, oddiy va o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi kerak. Beriladigan axborotlar shunday tuzilishi kerakki, bunda o‘quvchining fikri va diqqat-e’tiborini yuqori darajada faollashtiradigan bo‘lsin. Qobiliyatli o‘qituvchining nutqi jonli, obrazli, aniq, intonatsiyali va ifodali, emotsiyaga boy, dona-dona bo‘lib, stilistik va grammatik xatolar mutlaqo bo‘lmasligi lozim. Ayrim o‘qituvchilar tez gapirsa, boshqalari sekin gapiradi. Ammo o‘qituvchi o‘quvchilarning bilimlarni egallab olishi uchun eng qulay tezlikdagi nutq – o‘rtacha jonli nutq ekanligini esdan chiqarmasligi kerak. Nutq, imo-ishoralar, turli keskin harakatlar o‘quvchini jonlantiradi.

Pedagogik faoliyat o‘z mohiyatiga ko‘ra ijodiy xarakterga ega. O‘qituvchining professional odobi bu xususiyatni ham o‘z ichiga oladi. Ma’lumki, inson oldida bir muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug‘iladi. O‘qituvchilik kasbi ana shunday xususiyatga ega. Chunki o‘qituvchilik ishida hamma vaqt ham qo‘llash mumkin bo‘lgan tayyor qoida, retsept yoki shablonlar yo‘q. Pedagog o‘quvchi shaxsini shakllantiradi, kutilmagan vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qiladi, pedagogik muammolarni yechadi, o‘quv jarayonini mustaqil bajaradi. Bularning hammasida ijodkorlik muhim. Pedagogik ijodkorlikning tub ma’nosi ishning maqsadi va xarakteri bilan bog‘liq [3].

Hozirgi tushunchamizdagi kasbiy mahorat shunchaki bilimlarni osonroq, hammabop va tushunarli qilib o‘quvchilar ongiga yetkazib berish qobiliyatigina emas, balki o‘quvchilarning mustaqil ishlari, ularning bilish faolligini oqilona va mohirlik bilan boshqarib, ularni kerakli tomonga yo‘naltirib turishdan iborat qobiliyatni ham o‘z ichiga oladi.

Pedagogik qobiliyatlarning hammasi insonlarda tug‘ma holatda bo‘lmaydi, ular doimo izlanishlar, tinimsiz mehnat qilish, o‘z ustida izlanish orqali egallanadi va rivojlantirib boriladi. Bu mas’uliyatli vazifalar asosan ma’ruza, seminar va laboratoriya mashg‘ulotlarida bajariladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishda, avvalo, ularga ta’lim berayotgan pedagoglarning o‘zlarida ham shunday qobiliyatlar mujassam bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlonova R., To‘rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. Darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001.

2. Masharipova U. The role of innovation in continuous educational system // Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 2021(4).

3. Bakiyeva H. Developing articulation of elementary class students using independent work methodology // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019, Vol. 7(6).

Muborak JO‘RAYEVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti nemis tili amaliy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

MULTIMEDIA TAQDIMOTLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI CHET TILIDA GAPIRISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy o‘quv yurtlarida chet tilni o‘qitishda multimedia taqdimotlaridan samarali foydalanish shartlari masalasi ochib berilgan. Muallif multimedia texnologiyalarining asosiy afzalliklarini, shuningdek, chet tilni o‘qitishda ulardan foydalanish texnologiyasini tavsiflaydi.
Kalit so‘zlar: multimedia taqdimoti, motivatsiya, og‘zaki nutq, taqdimot mezonlari.
Annotation. The article reveals the question of the conditions for the effective use of multimedia presentations in teaching a foreign language in universities. The author describes the main advantages of multimedia technologies, as well as the technology of their use in teaching a foreign language.
Keywords: multimedia presentation, motivation, oral speech, presentation criteria.
Аннотация. В статье раскрывается вопрос об условиях эффективного использования мультимедийных презентаций при обучении иностранному языку в вузах. Автор описывает основные преимущества мультимедийных технологий, а также технологию их использования при обучении иностранному языку.
Ключевые слова: мультимедийная презентация, мотивация, устная речь, критерии презентации.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari uchun eng muhim vazifa nafaqat chet tilni amaliy bilish, balki professional muloqot sohasida chet tildan samarali foydalanishga yordam beradigan kommunikativ ko‘nikmalarni egallashdir. Bunday kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarga kelajakdagi mutaxassislar malakasi va kasbiy madaniyatining bir qismi bo‘lgan taqdimot qila bilish qobiliyatlarini shakllantirish kiradi.

Hozirgi ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtirish davrida zarur ma’lumotlarga ega bo‘lish inson faoliyatining har qanday sohasidagi zarur vositalardan biriga aylangan ekan, asosiy va eng muhim vazifa yosh avlodni texnologiya va axborot olamida yashashga o‘rgatishdir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bilish til kompetensiyasini va madaniyatlararo muloqotni yaxshilash imkonini beradi.

So‘nggi paytlarda oliy ta’lim sifatini oshirish uchun yangi ta’lim texnologiyalari tez-tez qo‘llanilmoqda. Chet til sohasidagi bilim va ko‘nikmalar bilan birgalikda axborot texnologiyalaridan foydalanish talabalarga mamlakatimiz va dunyodagi mavjud iqtisodiy va ijtimoiy vaziyat haqiqatlari haqida tasavvurga ega bo‘lishga muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashishga yordam beradi.

Axborot inqilobining ta’limga ta’siri katta. Kompyuterdan foydalanish shaxsning axborot savodxonligini shakllantirishga, o‘quv jarayoni samaradorligini va talabalarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga ko‘maklashadigan keng imkoniyatlarni ochadi. Shunday muhim dasturlardan biri Microsoft Office PowerPoint bo‘lib, uning yordamida o‘qituvchilar va talabalar chet til darslarini tayyorlash va o‘tkazishda axborot yordamini ta’minlaydigan multimedia taqdimotlarini yaratadilar.

Taqdimotlardan foydalanishning afzalliklari ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan. Tadqiqotning nazariy asoslari lingvodidaktika, pedagogika, psixologiya sohasidagi olimlarning (I.A.Zimnyaya, A.A.Leontev, Y.I.Passov, Y.S.Polat, O.B.Tarnopolskiy) ishlaridir. Tadqiqotchilar ta’lim sohasida yangi axborot texnologiyalaridan faol foydalanish shaxsning axborot madaniyatini shakllantirishga yordam berishi, o‘quv jarayoni samaradorligi va talabalarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishini isbotlamoqda [1: 50].

Multimedia taqdimoti chet tilni o‘rganishga sifat jihatidan yangi yondashuvdir. Bunday taqdimotni tayyorlash uchun talaba ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishi, shablonlardan qochadigan va har bir asarni individual ijod mahsuliga aylantiradigan ko‘plab axborot manbalaridan foydalanishi kerak. Taqdimotni tayyorlash jarayonida chet tilni o‘rganish motivatsiyasini rivojlantirish uchun sharoit yaratiladi, talabaning bilim darajasi, uning informativligi kengayadi, intellektual funksiyalar ham rivojlanadi: tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, fikrlash mantig‘i shakllanadi. Multimedia taqdimoti chet tilda monolog nutq uchun asos bo‘lgan keng material bo‘lib, tilning kommunikativ funksiyasini amalga oshirish uchun ajoyib imkoniyat yaratadi.

O.V.Popkovaning so‘zlariga ko‘ra, “amaliy chet til darslariga taqdimotlarning kiritilishi xilma-xillikni keltirib chiqaradi, o‘quv jarayonini jonlantiradi, o‘quvchilarda hissiy ta’sirni oshiradi, qulay o‘quv muhitini yaratadi, haqiqiy muloqot modelini shakllantirishga yordam beradi” [2].

Shunday qilib, multimedia taqdimotlari monologik nutqni rivojlantirish va takomillashtirishning samarali usuli hisoblanadi, chunki talaba o‘z nutqi davomida mustaqil ravishda ishlab chiqqan kalit so‘zlar, diagrammalar, rasmlar, jadvallardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu izchil, ifodali, yetarli tezlikda, iboralar o‘rtasida asossiz pauzalarsiz gapirish imkonini beradi. Taqdimot yagona muhitda tashkil etilgan kompyuter animatsiyasi, grafika, video va ovozli seriyalarning

kombinatsiyasidir. Uning mexanizmi shundan iboratki, unga tayyorgarlik jarayonida nutq vositalaridan samarali foydalanish o‘rgatiladi va taqdimot davomida yuqori darajadagi jarayonlar avtomatlashtiriladi. Umuman olganda, taqdimot til va axborot materiallarini tayyorlash, shuningdek, taqdimotning tuzilishi: kirish, asosiy qism, bir-biri bilan mantiqiy bog‘liq bo‘lgan asosiy qoidalarni ishlab chiqish va xulosa haqidagi bilimlarni o‘z ichiga olishi kerak.

Taqdimotni himoya qilar ekan, talaba o‘z nutqini mantiqan to‘g‘ri qurishni o‘rganadi, ya’ni ular monolog so‘zlash qobiliyatini shakllantiradi. Bu unga kommunikativ yo‘nalishga ega bo‘lgan to‘liq fikrni ifoda etish, mantiqiy fikr yuritish, dastur doirasida o‘zini ko‘rsatishni o‘rganishga imkon beradi. Multimedia taqdimotlari innovatsion usul bo‘lib, o‘zining soddaligi va qulayligi tufayli “ochiq” darslarda ham, odatiy darslarda ham qo‘llanilishi mumkin. Bundan tashqari, ular nutq amaliyoti bo‘yicha darslarda o‘zini yaxshi isbotlagan, ya’ni talabalar madaniyatlararo muloqotni amalga oshirish, madaniyatlar muloqotining ishtirokchisiga aylanish, o‘rganilayotgan til mamlakati xalqining ma’naviy dunyosiga qo‘shilish, uning urf-odatlari haqida ko‘proq ma’lumot olish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar.

Taqdimotdan foydalanish “Mening vatanim”, “Taniqli tarixiy shaxslar”, “Xalqlarning urf-odatlari” kabi mavzularni o‘rganishda juda asqatadi. Bu kabi mavzular hajmli materiallarni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun talabalar avval ushbu mavzularni mustaqil o‘rganishga, so‘ngra o‘zlari ishlab chiqqan taqdimotda bilimlarini namoyish etishga taklif qilinadi. Keyin talabalar o‘zlari tanlagan mavzuga oid loyihalarni boshqa talabalarga taqdim etadilar, taqdimot esa mavzu bo‘yicha og‘zaki ma’ruza bilan birga keladi. Taqdimotdan keyin auditoriya ishtirokchilari taqdimotchiga mavzu yuzasudan savollar bilan murojaat qilishlari mumkin.

Talabalarning taqdimot ko‘nikmalarini rivojlantirish oliy o‘quv yurtlarida chet til o‘qituvchisining vazifalaridan biridir. Talabalar PowerPoint dasturidan foydalangan holda yuqori sifatli taqdimot uchun quyidagi mezonlar bilan tanishishlari kerak:

1. **Ma’lumotlilik.** Taqdimot ko‘rib chiqilayotgan mavzu bo‘yicha muammoning mohiyatini ochib beradigan, ma’lum faktik ma’lumotlarni taqdim etadigan va tinglovchilar orasida ushbu sohada zarur bilimlarni shakllantirishga hissa qo‘shadigan yaxlit xabar bo‘lishi kerak.

2. **Ixchamlik.** Slayddagi ma’lumotlar tomoshabinlar tomonidan vizual tarzda qabul qilinganligi sababli, taqdimotni yaratishda matnning qisqaligi va ixchamligi zarur omil hisoblanadi.

3. **Mantiqiylik.** Materialni taqdim etish ketma-ketligi mantiqan shartlangan bo‘lishi kerak, shunda tinglovchilar muammo haqida yaxlit nuqtayi nazarga ega bo‘lishlari va sabab-natija munosabatlarini tushunishlari shakllanadi.

4. **Tuzilish.** Taqdimot uchta asosiy komponentni o‘z ichiga olishi kerak: kirish, asosiy qism va xulosa. Ularning har biri ma’ruzachining o‘ziga xos kommunikativ vazifasini hal qiladi.

5. **Tasvirlash.** Ushbu mezon ko‘rib chiqilayotgan muammoga mos kelishi, matn bilan bog‘lanishi va ma’ruzachining ma’lum bir fikrini ifodalashi kerak bo‘lgan tasviriy materialdan maqsadli foydalanishni ham o‘z ichiga olishi kerak. To‘g‘ri tanlangan tasvirlar orqali tomoshabinlarga hissiy ta’sir etish yanada samarali muloqotga yordam beradi.

Yuqoridagi mezonlarga rioya qilish sifatli taqdimotlarni yaratish uchun zarur bo‘lib, ulardan foydalanish chet til darslarini yanada mazmunli, samarali, rang-barang va qiziqarli qiladi va talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Auditoriyada taqdimot bilan ishlashning muhim bosqichi uning keyingi muhokamasidir: taqdimotchiga savollar beriladi, talabalar fikr almashadilar, o‘z nuqtayi nazarlarini bahslashadilar va buni tasdiqlovchi misollar keltiradilar; munozara davomida ma’lum barqaror iboralar, grammatik konstruksiyalar va nutq ko‘nikmalari faollashtiriladi va esga olinadi. Bu butun guruh talabalarining dialogik muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Shunday qilib, ma’lumot talabalar tomonidan eng qisqa vaqt ichida yaxshi o‘rganiladi. Buni O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlarida talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan tadbirlar va kuzatuvlarning natijalari tasdiqlaydi.

Multimedia taqdimotlarining afzalliklari quyidagilardan iborat:

– butun sinf e’tiborini faollashtiradi;

– taqdimotdan interfaol, multimedia doskasi sifatida foydalanish imkoniyati, bu yangi leksik, grammatik hatto, fonetik materiallarni aniqroq semantiklashtirish, shuningdek, nutq faoliyatining barcha turlarini o‘rgatish imkonini beradi;

– individual slaydlar (tayanchlar, jadvallar, diagrammalar, grafiklar, sxemalar)dan tarqatma material sifatida foydalanish imkoni yuzaga keladi;

– yangi o‘quv materialini idrok etish va yodlash samaradorligi ta’minlanadi;

– yangi bilimlarni o‘zlashtirish va o‘rganilayotgan materialni tizimlashtirish monitoring qilinadi;

– talabalarning sinf va sinfdan tashqari mustaqil ishlari kombinatsiyasi ta’minlanadi;

– talabalarning kompyuter multimedia kompetensiyasini shakllantirish, o‘quv ishlarini tashkil etishda ularning ijodiy qobiliyatlari rivojlantiriladi;

– talabalarda notiqlik san’ati shakllantiriladi.

Multimedia taqdimotlarni filologik oliy o‘quv yurtlari bilan bir qatorda nofilologik o‘quv maskanlarida ham sinf va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda tashkillashtirish kutilgan natijalarni beradi.

Multimedia taqdimoti chet tilni o‘rganishga sifat jihatidan yangi yondashuvdir. Bunday taqdimotni tayyorlash talabalarga ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishi uchun motivatsiya beradi. Taqdimotni tayyorlash jarayonida chet tilni o‘rganish motivatsiyasini rivojlantirish uchun sharoit yaratiladi, talabaning bilim darajasi, uning informativligi kengayadi, intellektual funksiyalar ham rivojlanadi: tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, fikrlash mantig‘i shakllanadi. Multimedia taqdimoti chet tilda ham monologik, ham dialogik nutq uchun asos bo‘lgan

keng materialdir, ya'ni tilning kommunikativ funksiyasini amalga oshirish uchun ajoyib imkoniyat yaratadi.

Chet til darslarida multimedia taqdimotlari texnologiyasi o'quv jarayonini jonlantiradi, individual ta'limni rivojlantiradi, mustaqillik va o'zini o'zi boshqarishni o'rgatadi, vaqt xarajatlarini optimallashtiradi. Talabalarga auditoriya bilan gaplashib, ushbu turdagi dastur bilan ishlash ko'nikmalarini egallashga yordam beradi, talabalarda notiqlik san'atini shakllantirib, og'zaki nutqni rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахметгареева Р.К., Максудова Э.С. Использование мультимедийных презентаций в процессе обучения иностранному языку. Методические указания. – Казань, 2012.
2. Попкова О.В. Ученые записки Орловского государственного университета // Серия: Гуманитарные и социальные науки, 2015, № 3 (66).
3. Коваленко А.В. Роль мультимедийной презентации на занятиях по иностранному языку // http://ito.edu.ru/2010/Tomsk/II/II-0-31.html.
4. Грюсендорф М. Английский для презентаций (Cornelsen Verlag). 1-е изд. – Москва: Дельта Паблишинг, 2007.
5. Бузина Д.И. PowerPoint на занятиях английского языка: быть или не быть? Полилог культур: один мир – многообразие языков: Сб. науч. тр. / Под ред. Т.В.Шульдешова; Яросл. гос. ун-т. – Ярославль: Изд-во ЯрГу, 2009. – С. 196–200.
6. Клевцова Н.И. Учебный потенциал мультимедийных технологий в обучении иностранным языкам // Информационные технологии в процессе подготовки современного специалиста: Межвуз. сб. – Вып. 4. – Т. 1. – Липецк: Изд-во ЛГЛУ, 2001. – С. 96–107.
7. Беляева Л.А., Иванова Н.В. Презентация PowerPoint и ее возможности при обучении иностранным языкам // Иностр. языки в школе, 2008, №4. – С. 36–40.

G'ofir HAMROYEV,
Toshkent Amaliy fanlar universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori (DSc)

KASBIY MALAKANI RIVOJLANTIRISHDA KO'RIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Maqolada ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan yangi pedagogik texnologiyalar hayot uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga xizmat qilishi, aslida ta'lim real hayotning uzviy bir qismi bo'lishi, idrok bilan bog'liq bo'lgan ko'rib tushunish ko'nikma va malaka sifatida alohida o'rganilmasligi, didaktikada barkamol insonni tayyorlash, kasbiy malakani rivojlantirish tizimida ham kompetensiya sifatida mavjud emasligi, uni tadqiq qilish zarurati mavjudligi asoslangan.

Kalit so'zlar: ko'rib tushunish, ko'nikma, malaka, kompetensiya, idrok qilish, analitik tafakkur, tinglab tushunish, so'zlash, kuzatish, qarash, solishtirish, taxmin qilish, o'quv topshiriqlari, savol, didaktika, metodika, umumiylik, xususiylik, mohiyat, hodisa, pragmatik yondashuv, baholash.

Annotation. The article notes that new pedagogical technologies used in the educational process should serve the development of skills and abilities necessary for life, that, in fact, education is an integral part of real life, that vision associated with perception cannot be studied separately as a skill and ability, that the training of a competent person in didactics does not exist as a competence even in the system of professional competence development.

Keywords: vision, skill, competency, competence, perception, analytical thinking, listening comprehension, speech, observation, view, comparison, assumption, study tasks, question, didactics, methodology, generality, peculiarity, essence, phenomenon, pragmatic approach, assessment.

Аннотация. В статье отмечается, что новые педагогические технологии, применяемые в образовательном процессе, должны служить развитию навыков и умений, необходимых для жизни, что, по сути, образование является неотъемлемой частью реальной жизни, что видение, связанное с восприятием, не может изучаться отдельно как умение и квалификация, что подготовка компетентного человека в дидактике не существует как компетенция даже в системе развития профессиональной компетенции.

Ключевые слова: видение, умение, компетентность, компетенция, восприятие, аналитическое мышление, понимание на слух, речь, наблюдение, взгляд, сравнение, предположение, учебные задания, вопрос, дидактика, методика, общность, особенность, сущность, явление, прагматический подход, оценка.

Inson tinglash barobarida o'qib tushunishdan oldin ko'rib tushunish jarayonlarini bosib o'tadi. Pedagogikada ko'rish orqali ko'proq ma'lumot o'zlashtirish mumkinligi ilmiy asoslangan, ammo ta'limda ko'rib tushunish masalasi ko'nikma yoki malaka darajasida hamon tadqiq qilinmadi. Aslida insonlar borliqni, vaziyatni, predmetni, jarayonni bir xilda, yetarli darajada ko'rib tushuna olmaydi. Buning uchun maxsus tayyorgarlik jarayonini

o‘tashi, ta’lim olishi zarur. Didaktikada ko‘rib tushunish – oddiy fiziologik hodisa emas, muhim pedagogik omil sifatida tadqiq etilishi hamda uning ko‘nikma, malaka hamda kompetensiya darajasida tavsifi berilishi lozim. Ko‘rib tushunish – idrok qilishdir, analitik tafakkurni shakllantiruvchi zaruriy jihozdir. Uning ta’lim oluvchida shakllanganini baholovchi indikatorlarni ham ishlab chiqish kerak.

Jahon tajribasida talabalarni kasbga tayyorlash bo‘yicha turli yondashuvlar qo‘llaniladi. Ularning orasida *dual yondashuv* samaraliroq ekanligi tobora ommalashib bormoqda. Adam Smit o‘z asarida ta’kidlagan: “Dual ta’limni – ish joyida ustoz shogirdga kasb-hunarning an’anaviy usullarini o‘rgatishi deb hisoblash kerak, chunki usta bilan birga ish olib borish, yosh ishchilarning kasbga bo‘lgan qiziqishlarini orttirib boradi” [1]. Olimning ta’kidlashicha, dual ta’lim tizimi, Yevropa ta’lim tizimining amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, kelajakdagi mutaxassisning muvaffaqiyatli kasbiy va ijtimoiy moslashuvi ta’lim tashkilotlari va ish beruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir mahsulidir. Talaba o‘quv jarayonining dastlabki bosqichlarida korxona, tashkilot xodimi sifatida ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan. Mashhur “Xalqlar boyligining tabiati va sabablariga doir tadqiqotlar” asarida Adam Smit ikki tomonlama o‘qitishda shogirdlik va murabbiylik tizimlarini ish joyida kasbiy tayyorgarlikning an’anaviy usullari, deb hisoblash kerakligini ta’kidlaydi, chunki usta yonida ishlash jarayonida bo‘lajak ishchilar *ko‘rib tushunish asosida* ta’lim asoslarini o‘rgandilar. Kasbni ikki tomonlama o‘qitish modeli korxonalarni kadrlar tayyorlash jarayoniga jalb qilishni nazarda tutadi, bu esa xodimlarni o‘qitish bilan bog‘liq juda katta xarajatlarga olib keladi, chunki ular yuqori sifatli kasb-hunar ta’limi xarajatlari kapitalning ishonchli hissasi ekanligini yaxshi bilishadi. Shu bilan birga, ular nafaqat o‘qitish natijalari, balki o‘qitish mazmuni, uni tashkil etish bilan ham qiziqishadi, deb ta’kidlaydi [2: 62–64].

Dual ta’lim tizimi axborot yetishmasligi va nochor amaliy ta’lim oqibatida ta’limning boshqa shakllari uchun muqarrar holda ish mohiyatiga silliq kirishni ta’minlaydi. Bu nafaqat muayyan mehnat vazifalarini bajarishni o‘rganish imkonini beradi, balki jamoada ishlash qobiliyatini ham rivojlantiradi, kasbiy kompetensiya va mas’uliyatni shakllantiradi. Dual ta’lim modeli har kimning o‘z darajasini boshqarish uchun ajoyib imkoniyatlarni taqdim etadi. Uning doirasidagi tayyorgarlik darajasi doimiy ravishda oshib boradi. Hech bir ta’lim tashkiloti ikki tomonlama o‘qitish kabi ishlab chiqarish bo‘yicha bunday bilim va malakalarni chuqur berishga qodir emas, bu uni muvaffaqiyatli darajaga ko‘taruvchi muhim qadam bo‘ladi [2: 62–64].

Dual ta’lim tizimi nazariyani amaliyotda ko‘rish va tushunish, o‘zlashtirish faoliyatidir. Ta’kidlaganimiz kabi, ko‘rib tushunish ko‘nikma yoki malaka sifatida ajratilmaydi. Uning bir qismi til ta’limidagi o‘qib tushunish ko‘nikmasi tarkibida baholab ketiladi. Unda asosan rasm, video hamda audiovizual materiallarni tushunishga e’tibor qaratiladi. Xalqaro pedagogikada vizual tushunish *(visual understanding)* alohida kompetensiya sifatida mavjud emas. Shuningdek, ma’lumotni vizualizatsiya qilish, vizual ma’lumotlarni tahlil qilish va tushunish, axborotni uzatish uchun vizual vositalar va usullardan foydalanishga qo‘shimcha mahorat yoki ko‘nikma sifatida qaralishi mumkin. Bu dizayn, marketing, ma’lumotlar tahlili va taqdimot tayyorlash kabi sohalarda foydalaniladi. Vizual tushunish rasmlar, diagrammalar, grafiklar va boshqalar kabi vizual tarzda taqdim etilgan ma’lumotlarni tahlil qilish va sharhlash qobiliyatidir. Vizual idrok etish qobiliyati yuqori bo‘lgan odamlar vizual elementlarni tanlab olish va tahlil qilish, munosabatlarni aniqlash, shuningdek, taqdim etilgan ma’lumotlar bo‘yicha xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega. Ushbu kompetensiya dizayn, media, marketing, reklama va san’at kabi sohalarda, ayniqsa, muhimdir.

Ko‘rib tushunish kompetensiyasi ta’lim oluvchida predmetdan tashqari *holat, jarayon, faoliyatni* ko‘rib tushunish, tahlil qilish va o‘z xulosasini bayon qilish faoliyatidir. Bunda faqat rasm, videomateriallarni emas, butun o‘quvchi yoki talabaning kelajak hayotida duch keladigan predmetlar, holat, jarayon va faoliyatlarni ko‘rib tushunish nazarda tutiladi. Shuningdek, talablarni kasbga tayyorlashga yo‘naltirilgan dual ta’lim tizimida ularning dars-mashg‘ulotlar bilan birga, ishlab chiqarish jarayonlarini ham borib ko‘rib o‘rganish asosidagi ko‘nikma va malakalarini baholash imkoni bo‘ladi. Ko‘rib tushunish ko‘nikmasining malaka va kompetensiyaga aylanish mexanizmi ishlab chiqilishi bugun muhim, hal qilishi lozim bo‘lgan pedagogik, metodik muammolardan biridir.

Dual ta’limda ko‘rib tushunish ko‘nikmasi kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lishda quyidagi vazifalarni bajaradi:

T/p	Ta’lim mazmuni	Ko‘nikma va malakalar	Natija
1	o‘quv adabiyotlar	o‘qib tushunadi	ma’lumotga ega bo‘ladi
2	professor-o‘qituvchilar	tinglab tushunadi	ma’lumotga ega bo‘ladi
3	ishlab chiqarish	ko‘rib tushunadi	malakaga ega bo‘ladi
	bank	ko‘rib o‘rganadi	malakaga ega bo‘ladi
	ta’lim muassasasi	ko‘rib o‘rganadi	malakaga ega bo‘ladi
	nashriyot	ko‘rib o‘rganadi	malakaga ega bo‘ladi
	boshqa davlat xizmatlari	ko‘rib o‘rganadi	malakaga ega bo‘ladi

Mazkur model o‘quvchi/talabalarda kommunikativ kompetensiyani hosil qilishga yordam beradi.

Faoliyat zarur kompetensiya sifatida quyidagilardan iborat:

– til vakolatlari;
– nutqni konvertatsiya qilish;
– pragmatik kompas;
– tadqiqot;
– aloqa tarkibi.

Pragmatizm – ta’limni hayotga yaqinlashtirish, ta’lim maqsadlariga amalda erishish tarafdori bo‘lgan falsafiy-pedagogik yo‘nalish bo‘lib, dastlabki pragmatistlarning g‘oyalari amerikalik faylasuf va pedagog D.Dyui tomonidan ishlab chiqilgan [3]. Uning qayd etishicha, ta’lim insonni hayotga tayyorlash vositasi emas, u hayotning o‘zi. Tarbiya odamlarni birlashtirishi, yoshlarni ijtimoiy tinchlik va totuvlik ruhida tarbiyalashi lozim.

Ta’lim ijtimoiy muhitni yaxshilash, jamiyat turini inqilobiy o‘zgarishlarsiz o‘zgartirishning hal qiluvchi vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Amerika deskriptiv lingvistika maktabi pragmatik ta’lim zarurligini isbotlay olgan va umumiy aholining taraqqiyoti va manfaatlariga mos keladigan ta’lim maqsadlarini taklif qila olgan. Bu ham didaktik, ham psixologik (ruhiy) jarayon bo‘lib, jumladan, psixolog olim M.Neppning ta’kidlashicha, bola 2–3 yoshida ona tili grammatikasini egallay boshlaydi, chunki boshqa odamlarning nutqini anglab, so‘zlar kombinatsiyasi va jumlalar tuzilishida ongosti sezgilari orqali kodlangan obyektiv qonuniyatlar, ko‘plab ajdodlarning tajribasini qabul qiladi. Odam ongida nutq rivojlanishi bilan bir qatorda, ongostida mumkin bo‘lgan harakatlarning ichki rejasi tuziladi, muayyan vaziyatda amalga oshiriladigan harakatlar modellari yaratiladi.

L.S.Vigotskiy, I.Y.Zimnyaya, A.A.Leontev, S.L.Rubinshteynlarning psixologik tadqiqotlari tahlili til tashuvchisini shakllantirishning muvaffaqiyati ona tilining kommunikativ rivojlanish darajasiga bog‘liqligi haqida gapirishga imkon beradi. I.Y.Zimnyayaning fikricha, “ona tilining kommunikativ rivojlanishi”ni quyidagilar asosida murakkab ko‘p qirrali hodisa sifatida ko‘rib chiqish kerak:

– lug‘at miqdori (leksik minimum);
– nutqiy malakalarni egallashning mohirlik darajasi;
– fikrini ongli ravishda izchil bayon qila olish qobiliyati, suhbatdoshining replikalariga munosib javob bera olish, eshitganlariga munosabat bildirish ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan og‘zaki muloqot shakllarini bilish darajasi;
– matnni o‘qish tezligi darajasi;
– yozma nutq ko‘nikmalarining shakllanish darajasi;
– kognitiv qiziqishlarning shakllanish darajasi;
– umumiy dunyoqarash darajasi [4: 91–95].

Xullas, ko‘rib tushunish ham tinglab tushunish, o‘qib tushunish, gapirish va yozish ko‘nikmalari kabi ta’limning asosi bo‘lib xizmat qilishi mumkin, zero, ta’limda o‘quvchi-talabalar mazkur ko‘nikmaga ega bo‘lishmaydi, dars davomida ko‘rib tushunish ko‘nikmasi o‘zlashtirilmaydi. Bevosita ko‘rib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlarini takomillashtirish masalasi alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Tahlillarimiz uzluksiz ta’limdagi islohotlar ko‘p jihatdan aynan ko‘rib tushunishni rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlarining qanday qo‘yilishiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatmoqda. Bunday o‘quv topshiriqlarini aynan ko‘rib tushunish (analitik tafakkur), fahmlash, anglash, so‘zlash va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishga mo‘ljallab tuzish, beriladigan savollarni o‘quvchi-talabani o‘ylantirish, fikrini aniqlashtirish, dunyoqarashini rivojlantirishga yo‘naltirish mamlakat ta’limini sifat bosqichiga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. Серия: антология экономической мысли 1960-е годы. – Москва: ЭКСМО, 2007.
2. Судакова Л.В. Сущность и основные признаки дуальной модели обучения // Образование и воспитание, 2016, №2(7). – С. 62–64.
3. John Dewey. The public and its problems. – Denver, 1927 / Дж. Дьюи. Общество и его проблемы. Перевод с английского: И.И. Мюрберг, А.Б. Толстов, Е.Н. Косилова. – Москва, 2002.
4. Зимняя И.А. Личностно-деятельностный подход в обучении как фактор гуманизации образования // Русский язык за рубежом, 1991, №3. – С. 91–95.

Замира НУРМАНОВА,
учитель высшей категории средней общеобразовательной школы №21 города Ангрена

“ЕГО ВЕЛИЧЕСТВО ЧЕЛОВЕК”
(Разработка урока литературы в 6-м классе по отрывку из романа Рахмата Файзи)

Трудно переоценить вклад народа Узбекистана в великую Победу над фашистской Германией в годы Второй мировой войны. Как свидетельствуют последние данные, из Узбекистана на фронт было мобилизовано около 1 миллиона 951 тысячи человек. Это значит, что в борьбу против фашизма с оружием в руках вступил каждый третий узбекистанец. В суровые годы войны весь наш народ неустанно трудился с единой целью: Всё – для фронта, всё – для победы! Наша страна превратилась в надёжный тыл по обеспечению фронта. В Узбекистан были эвакуированы полтора миллиона человек из республик, где шла война. В том числе свыше 250 тысяч детей. Наш народ дал им кров, окружил любовью и заботой, делился подчас последним куском хлеба, проявив присущий ему высокий гуманизм.

В то суровое время кузнец Шаахмед Шамахмудов и его жена Бахри Ахмедова усыновили четырнадцать детей-сирот разных национальностей, среди которых были русские, белорусы, молдаване, украинцы, латыши, казахи, татары и дети других национальностей. Шамахмудовы подарили им родительскую любовь и теплоту. Роман узбекского писателя Рахмата Файзи «Его величество Человек» посвящён этой подлинной истории о широте человеческой души. Это произведение выросло в повествование о великой дружбе между народами, о самоотверженном труде простых людей в годы войны.

Урок литературы (по новому учебнику) в 6-м классе по отрывку из романа Рахмата Файзи «Его величество Человек».

Цели урока:

образовательная – познакомить учащихся с современным узбекским писателем Рахматом Файзи и его романом «Его величество Человек»;

развивающая – развивать связную речь учащихся, умение слушать и выражать свои мысли, вырабатывать навыки чтения и анализа литературного произведения;

воспитательная – формировать представление о Родине, её истории, культуре, традициях и ценностях; воспитывать чувство гордости за свою страну и народ; прививать высокие патриотические качества.

Тип урока: комбинированный.

Оборудование: фотопортрет Рахмата Файзи, обложка книги «Его величество Человек», слайдовая презентация, эпизоды из кинофильма «Ты не сирота» («Узбекфильм», 1962, автор сценария Рахмат Файзи, на русском языке).

I. Организационный момент. Взаимное приветствие преподавателя и учащихся, проверка подготовки учащихся к работе на уроке.

Учитель. Ребята! К сегодняшнему уроку вы самостоятельно прочитали в учебнике отрывок из романа Рахмата Файзи «Его величество Человек». Наш урок посвящается подвигу узбекского народа в годы Второй мировой войны, о котором повествует этот роман. Но сначала узнаем об авторе произведения – Рахмате Файзи.

II. Введение нового материала (выступление подготовленного ученика с сообщением о писателе).

Известный узбекский писатель Рахмат Файзи (настоящее имя Файзиев Рахмат Файзиевич) родился в 1918 году в городе Ташкенте в семье ремесленника. После окончания школы продолжил образование в ФЗУ (фабрично-заводском училище) при Ташкентской железной дороге, а потом в электромеханическом техникуме. В 1937 году Рахмат Файзи поступает на работу в редакцию газеты «Ленин учкуни», через год переходит в газету «Ёш ленинчи». В разное время работал в газетах «Фрунзевец», «Кызыл Узбекистони». С 1951 по 1954 год – заведующий отделом журнала «Шарк юлдузи», а с 1957 по 1959 год – редактор газеты «Узбекистон маданияти». В шестидесятые годы писатель работал главным редактором на киностудии «Узбекфильм». До 1974 года Рахмат Файзи занимал пост заместителя председателя правления Союза писателей Узбекистана. Писатель скончался в 1988 году в возрасте 70 лет.

После окончания Второй мировой войны Рахмат Файзи опубликовал несколько сборников повестей и рассказов: «Свадебные подарки», «В пустыню пришла весна», «Шёлковый занавес». Наибольшую известность писателю принёс роман «Его величество Человек».

III. Подготовка учащихся к активному и сознательному усвоению знаний, проверка домашнего чтения.

Учитель: Рахмат Файзи – народный писатель Узбекистана. В романе «Его величество Человек» рассказывается о страшных годах Второй мировой войны, когда узбекский народ приютил тех, чьи дома были уничтожены фашистами. Доброта, забота, гостеприимство наших людей

спасли жизни и отогрели сердца тысяч людей, потерявших кров.

Беседа с классом по прочитанной дома главе из романа.

– Вы прочитали восьмую главу романа. О чём она?

– Кто главные герои? Как их зовут?

– На перроне железнодорожного вокзала Махкам-ака и Мехринисо среди других, встречающих эшелон с детьми, коротко пообщались с Ахунбабаевым. Кто этот человек?

(Юлдаш Ахунбабаев – видный государственный деятель в Узбекистане, происходил из семьи бедного дехканина).

– Как вели себя ташкентцы, ожидая эшелон?

– Почему встречающих просили не плакать?

– С кем познакомились Махкам-ака и Мехри на перроне? О чём рассказал им новый знакомый?

– Почему супруги не смогли в этот день взять себе ни одного ребёнка?

– Какая радость ожидала наших героев дома? Почему второе послание Батыра удивило и озадачило супругов? О чём они договорились между собой?

– Глава заканчивается на самом интересном месте. Как вы думаете, что случится потом?

IV. Изучение нового материала. (Рассказ учителя сопровождается мультимедийной презентацией).

Величие человека наиболее полно проявляется в тяжёлое время испытаний. Война коснулась каждого человека, ведь Победа ковалась не только на фронте, но и в глубоком тылу. Люди разных национальностей, объединённые общей бедой, стали братьями по духу, были как никогда сплочены и едины.

Прототипами Махкама-ака и Мехринисы стали реальные люди – ташкентский кузнец Шаахмед Шамахмудов и его жена Бахри Акрамова, которые в начале войны взяли на воспитание и усыновили 14 детей разных национальностей.

У Шамахмудовых не было собственных детей. Когда они начали забирать эвакуированных сирот, Шаахмеду-ака было 53 года, а его супруге 40. Они приходили на железнодорожный вокзал, куда прибывали поезда из охваченных войной районов, и забирали одного ребёнка за другим.

За один только 1943 год пожилой кузнец стал отцом четверых детей. Среди них Рая Мальцева – белоруска, Малика Исламова – татарка, Володя Урусов – русский, Саша Брынин – украинец. В этой большой и дружной многонациональной семье были и казашка, молдаванка, евреи, узбеки.

По сценарию Рахмата Файзи в 1962 году на киностудии «Узбекфильм» был снят художественный фильм «Ты не сирота». (Просмотр эпизода из кинофильма «Ты не сирота» с начала фильма до момента, когда Махкам-ака и Ваня купают Колю).



Учитель. В этом эпизоде мы видим, как большая семья кузнеца принимает ещё одного сироту – Колю из Смоленска, который сам разыскал дом, знаменитый на всю страну, и стал самым старшим среди детей, а затем и самым хорошим помощником приёмным родителям и младшим братьям и сёстрам. (Просмотр второго эпизода из кинофильма «Ты не сирота»: отец уходит работать в кузницу на два дня, дети самостоятельно хозяйничают в доме. Сцена с белым хлебом).

Что вы можете сказать об этих детях, посмотрев данный эпизод? Можно ли их считать братьями и сёстрами? Почему? Что их всех сблизило и объединило?

Учитель. В самый разгар этой страшной войны известный узбекский поэт Гафур Гулям написал замечательное стихотворение «Ты не сирота». Оно впервые прозвучало в 1943 году и вошло в цикл стихотворений поэта «Иду с Востока». Подготовленный к уроку ученик декламирует стихотворение Гафура Гуляма «Ты не сирота» в переводе Анны Ахматовой.

Разве ты сирота?.. Успокойся, родной!
Словно доброе солнце, склонясь над тобой,
Материнской, глубокой любовью полна,
Бережёт твоё детство большая страна.

Здесь ты дома. Здесь я стерегу твой покой.
Спи, кусочек души моей, маленький мой!
Я – отец! Я что хочешь тебе подарю,
Станут счастьем моим все заботы твои…

День великой войны – это выдержки день,
Если жив твой отец, беспокойная тень
Пусть не тронет его средь грозы и огня,
Пусть он знает, растёт его сын у меня!

Если умер отец твой, – крепись, не горюй.
Спи мой мальчик, ягнёнок мой белый усни.
Я – отец! Я что хочешь тебе подарю,
Станут счастьем моим все заботы твои.

Что такое сиротство – спроси у меня.
Малышом пятилетним в десятом году
Грел я руки свои у чужого огня.
Полуголый, таскал по дорогам нужду.

О, как горек сухой подаяния хлеб!
О, как жёстки ступени чужого крыльца!
Я, приюта искавши, от горя ослеп,
И никто моего не погладил лица…

Испытал я, что значит расти сиротой,
Разве ты сирота? Спи спокойно родной…
Пока старый охотник – кочующий сон –
На меня не накинул волшебную сеть,
Гордой радости – чувства отцовского полн,
Буду я над кроваткой твоею сидеть,
Над головкою русой твоей, дорогой,
И смотреть на тебя, и беречь твой покой…

… Почему задрожал ты? Откуда испуг?
Может горе Одессы нахлынуло вдруг?
Иль трагедия Керчи? И в детском уме
Пронеслись, громыхая в пылающей тьме,
Кровожадные варвары, те, что губя
Всё живое, едва не убили тебя!

Может матери тело любимой твоей,
С обнажёнными ранами вместо грудей,
И руки её тонкой порывистый взмах
Отпечатались в детских тоскливых глазах?

Я припомню печальные эти глаза,
Когда выйду на битву громить палачей.
За ребяческий взор, что затмила слеза,
За разрушенный дом, за позор матерей –
Покараю я страшно двуногих зверей,

Этот Гитлер – ублюдок, не знавший отца, –
Он не матерью – подлой гиеной рождён,
Отщепенец понурый с глазами скопца –
Цену детства как может почувствовать он?

Этот Гитлер – навозный коричневый жук,
Плотоядно тупые усы шевеля,
Захотел, чтобы свой предназначенный круг
По желанью его изменила земля.

Чтобы людям без крова по миру блуждать,
Чтобы детям без ласки людей умирать,
Но земле выносить его больше невмочь.
Спи спокойно, мой сын, Скоро кончится ночь!

Спи спокойно, мой сын… В нашем доме большом
Скоро утру цвести. И опять за окном
Зацветут золотые тюльпаны зарниц,
В нашей книге домовой без счёта страниц.
Будет памятна книга на все времена.
Сохранит твоё имя навеки она!

Улыбаешься ты, и улыбка светла.
Не впервые ль за долгие, долгие дни
На лице исхудавшем она расцвела,
Как фиалка на тающем снеге весны?
И продрогший простор словно сразу согрет
Полусонной улыбки внезапным лучом.
Это скоро рассвет, Это белый рассвет.
Это белый рассвет у меня за плечом.

Учитель. 26 мая 1982 года в Ташкенте на площади «Дружбы народов» был установлен памятник семье Шамахмудовых – монумент Дружбы народов. Скульптор Д.Б.Рябичев, архитекторы Л.П.Адамов, С.Р.Адылов.

V. Обобщение.

Учитель. Рахмат Файзи назвал свой роман «Его величество Человек».

Слово «величество» – многозначное. Первое значение – титулование монархов, жён монархов, монархинь. Второе (с последующим словом или словосочетанием) употребляется о ком (чём)-либо, заслуживающим уважения, преклонения.

– Какое значение вкладывал писатель в название своего произведения?

– Почему слово «человек» в названии написано с большой буквы?

– Подходит ли это название к роману Рахмата Файзи?

– Правда, ребята, «Его величество Человек» – гениальное название романа, отражающего всю суть той эпохи.

– Ариф-ата, один из героев романа, произносит такие слова: «Душа человека твёрже камня, но нежнее розы и широка как море. Помни это. И никогда не ошибёшься». Как можно соотнести это высказывание с героями романа «Его величество Человек»? Согласны ли вы с этими словами?

VI. Итоги урока. Рефлексия.

1) Метод «Микрофон» По рядам передаётся микрофон (или предмет, имитирующий его), получив его учащиеся чётко и лаконично излагают свои мысли, отвечая на вопросы:

– Что запомнилось на уроке?

– Что понравилось?

– Что было самым интересным?

– О чём бы ты рассказал своим родителям или друзьям? и др.

2) Оценивание работы учащихся.

Учитель. Я очень надеюсь, что вы прочитаете роман Р.Файзи «Его величество Человек» в полном объёме и посмотрите художественный фильм «Ты не сирота», снятый кинорежиссёром Шухратом Аббасовым по этой книге.

VII. Задание на дом: переписать в тетрадь таблицу анализа произведения «Его величество Человек» на стр. 221-222 и заполнить её.